

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2020 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI Karomat Mullaxo'jayeve
MAS'UL KOTIB Ilyos Ismoilov
TAHRIR HAY'ATI Zaynobiddin Abdirashidov Karl Rayxl (Germaniya) Isa Habibeyli (Ozarbayjon) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyung Oh (Koreya) Vahit Turk (Turkiya) Boqijon To'xliyev Qosimjon Sodiqov G'aybulla Boboyorov Onal Kaya (Turkiya) Kimura Satoru (Yaponiya) Nurboy Jabborov Aftondil Erkinov Rashid Zohidov Jabbor Eshonqul Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Baxtiyor Abdushukurov Sarvinov Sotiboldiyeva Dilnavoz Yusupova Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon) Qo'ldosh Pardayev Nodirbek Jo'raqo'ziyev

MUNDARIJA	
ADABIYOTSHUNOSLIK	
Shuhrat Sirojiddinov, Zebiniso Xurramova XX asr o'zbek adabiyotida mumtoz she'riyat an'analari	3
Akrom Dehqonov Arba'innavislik an'anasi va Muhayyir adabiy faoliyati	15
TILSHUNOSLIK	
Qudrat Omonov Turkiy tillar tarixida rasmiy uslubning bosqichlari va davrlashtirish masalalari	takomil 33
Ibrohim Darvishov Namangan shevalarida unlilar bilan bog'liq fonetik qonuniyatlar	49
Eldor Asanov O'rta Osiyo turk-run yodgorliklarida kelishik kategoriyasi	69
MATNSHUNOSLIK	
Jaloliddin Jo'rayev Abdurahmon Jomiytning "Risolayi muammoyi manzum" asari va uning tarjimai	85
MATN. TARJIMA	
Abdulla Gulshaniy "Risolayi muammoyi manzum" tarjimai	90

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
 DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
 EXECUTIVE SECRETARY	
Ilyos Ismailov	
 EDITORIAL BOARD	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Vahit Turk (Turkey)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Gaybullah Babayarov	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Nurboy Jabborov	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Jabbor Eshonqul	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Sarvinoz Sotiboldieva	
Dilnavoz Yusupova	
Kuldosh Pardaev	
Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)	
Nodirbek Jurakuziev	

CONTENTS	
 LITERARY STUDIES	
Shuhrat Sirojiddinov, Zebiniso Khurramova	
Traditions of classical poetry in the uzbek literature of the XX century	3
 Akrom Dehkanov	
The tradition of the writing arbain and the literary profession of Muhayyir	15
 LINGUISTICS	
Kudrat Omonov	
The Stages of the Development of the official style and the issues of the periodization in the history of turkic languages	33
 Ibrohim Darvishov	
Phonetic patterns associated with vowels in Namangan dialects	49
 Eldar Asanov	
Case forms in turkic runiform inscriptions from Central Asia	69
 TEXTOLGY	
Djaloliddin Djuraev	
About the translation of "Risalai muammoi manzum" by Jami	85
 TEXT. TRANSLATION	
Abdulla Gulshaniy	
The translation of "Risolayi muammoyi manzum"	90

Shuhrat Sirojiddinov*(Toshkent, O'zbekiston)*
shsirojiddinov@navoiy-uni.uz**Zebiniso Xurramova***(Toshkent, O'zbekiston)*
xurramovazebo@gmail.com

XX asr o'zbek adabiyotida mumtoz she'riyat an'analari

Abstrakt

Maqolada mumtoz she'riyat an'alarining yangi davr o'zbek adabiyotidagi taraqqiyoti haqida fikr yuritilgan. Unda 1920 – 1990-yillar davomida sho'ro adabiyoti bilan yonma-yon sharq mumtoz adabiyoti an'analari izchil davom ettirilgani yangi materiallar asosida ko'rsatib berilgan. XX asr Samarqand adabiy harakati namoyandalari orasida o'zbek mumtoz adabiyotidagi devon tartib berish, zullisonaynlik, xattotlik, diniy-falsafiy mazmundagi qasida-yu madhiyalar yaratish, tarjimachilik, hikoyatnavislik singari an'analarni munosib davom ettirgan ijodkorlar bo'lganligi o'sha ijodkorlar asarlarining qo'lyozma manbalari tahlili asosida yoritilgan.

Bu davr ijodkorlari asarlari matnshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan tekshirilib, mazmuniga ko'ra adabiy manbalar – devonlar, lirik she'rlar majmuasi, musavvadalar (Ibn Davlat, Vadud Mahmud, Murodiy, Ahlam, Jome'), tarixnavislikka oid manbalar (Ahlam, "Turkmanqishloq tarixi"), ilmiy manbalarga (Vadud Mahmudning fors-tojik adabiyotining ulug' shoirlari hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari) ko'rinishida mavjudligi, janriga ko'ra xat-yozishmalar, hujjatlar va arxiv fondlari (Vadud Mahmud, Jome', Ahlam) bo'linishi aniqlangan.

Maqolada Samarqand mintaqasida yashab, ijod etgan mualliflar va ularning shaxsiy arxivlaridagi ma'lumotlar birinchi marta ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilinadi.

Kalit so'zlar: *mumtoz she'riyat, adabiy an'ana, lirika, yangi davr she'riyati, Samarqand, zullisonaynlik, didaktik hikoyanavislik, ruboiy, qasida, munojot.*

Mualliflar haqida: *Shuhrat Sirojiddinov* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Zebiniso Xurramova – mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti.

Tavsiya etiladigan havola: Sirojiddinov, Shuhrat, Xurramova, Zebiniso. "XX asr o'zbek adabiyotida mumtoz she'riyat an'analari". *Oltin bitiglar* 2: 3—14.

Kirish

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda milliy-diniy qadriyatlarni tiklash jarayoni qizg'in kechdi. Bir tomondan, moddiy va nomoddiy madaniy qadriyatlarimiz, shu jumladan, diniy qadamjolar va dunyoga mashhur ulamolarimizning nomlari aniqlanib, ilmiy meroslari har taraflama o'rganila boshlandi. Ikkinchi tomondan, adabiyot sohasida barakali ijod etgan ko'plab o'tmish shoirlarimizni kashf etdik. Eng muhimi, milliy-madaniy merosimizni tiklash ishlari milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi nigohidan olib borildi. O'tgan yillarda qo'lga kiritilgan barcha yutuqlarni e'tirof etgan holda, bugungi bosqichda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir qancha yo'nalishlar borligini ta'kidlash lozim. Shulardan biri, sho'ro davrida muayyan mafkuraviy qoliplar iskanjasiga olingan o'zbek adabiyoti bilan yonma-yon faol bo'lgan an'anaviy mumtoz yo'nalishdagi o'zbek adabiyoti namoyandalari va ularning adabiy merosini o'rganish yo'nalishidir. Tasavvur aniq bo'lishi uchun o'tmishga nazar tashlasak.

XX asr o'zbek adabiyoti asr boshida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar tufayli turli mafkuraviy qutblarga mansub ijodkorlarning asarlaridan tarkib topdi. She'riyat masalasida esa ikki xil yondashuv kuzatiladi. Dastlabkisi, shaklan barmoq vazniga asoslangan yangi zamonni, yangi zamon kishisi tuyg'ulari va ijtimoiylik kasb etgan kechinmalarini she'rga solish, sho'ro davlati mafkurasi belgilab bergan mavzular doirasida she'rlar yozish bo'lsa, ikkinchisi, o'zbek mumtoz she'riyatining ko'pyillik tajribasini o'zida mujassam etgan aruz vazniga asoslangan, diniy-falsafiy dunyoqarash negizida shakllangan mumtoz she'riyat an'alarini saqlab qolishga bo'lgan urinishlardir. Keyingi qatlamga kirgan ijod ahlining ko'pchiligi mavjud tuzum tomonidan rad etilgan, ish bilan ta'minlanishiga ham yo'l qo'yilmagan, ba'zilar ulkan olim darajasida bo'lsa-da, oddiy xodim sifatida ishlashga majbur bo'lgan shaxslar edilar. Ba'zilarining

davr mafkurasiga mos keladigan, turli bayram yoki tadbirlar munosabati bilan yozilgan she'rlari matbuotda e'lon qilingan, albatta. Biroq ularning aksariyat asarlari mavjud tuzum mafkurasiga to'g'ri kelmaganligi bois ijod namunalarini pinhon saqlashga majbur bo'lishgan. Shu bilan birga aruz va barmoq vaznida bir xil ijod qilgan, lekin aruzdagi she'riy asarlarini chop ettira olmagan shoirlar ham anchagina.

Shu nuqtayi nazardan respublikamiz miqyosida olib qaralganda, ko'plab shoir- ijodkorlar nomi, lirik merosi noma'lum bo'lib qolmoqda. Mustaqillikdan keyingi yillardagina bunday ijod ahlining ba'zilar o'rganilib, adabiy meroslari avlodlari yoki ilm ahli tomonidan tadqiq etilmoqda, qisqacha ilmiy axborotlar berib borilmoqda. Shunga qaramay, hali hayoti va ijodiy merosi o'rganilmagan ko'plab shoirlar ham borki, ularning adabiy meroslarini topish, nomlarini adabiy jamoatchilikka ma'lum qilish lozim bo'ladi. Bu bir tomondan fanga noma'lum bo'lgan qator ijodkorlar asarlarining tahlil etilishiga imkon bersa, boshqa tomondan o'zbek mumtoz she'riyati an'analari barcha davrlarda davom etib kelganligini yaqqol isbotlaydi.

Asosiy qism

Samarqand shahri va atrof hududlarida ham nomi, ijodi ma'lum shoirlar bilan birga, 1920–1990-yillar mobaynida mavjud tuzum bois pinhon qalam tebratib kelgan shoirlar, sohibi devon ijodkorlar ko'plab uchraydi. Ularning asarlari daftarlarda qolib ketdi. Bu noyob manbalar hozirda avlodlari qo'lida saqlanmoqda. Ana shu iqtidor sohiblarining ayrimlari haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Omonulloh Jo'raboy o'g'li (1858–1934) – Omonulloh Oxund. Taxallusi Xarobotiy. Samarqand viloyat Qo'shrabot tumani Qo'ralos qishlog'ida yashab ijod etgan. Buxoro madrasasida tahsil olgan. O'z qishlog'ida maktab ochib bolalarga tahsil bergan. O'zbek va forsiy tillarda bir xil qalam tebratgan. Devoni bizgacha yetib kelmagan. O'zbek va forsiy tillardagi bir qism she'rlari daftarlar holida avlodlari qo'lida saqlanadi. She'rlarida So'fi Olloyorga izdoshlik ko'zga tashlanadi. Xattot sifatida Qur'oni karimni husnixatda ko'chirgan nusxalari saqlanib qolgan. Asarlari avlodlari qo'lida saqlanadi.

Sayyid Muhammad Yo'ldosh (1860 – 1947) – taxallusi Ibn Davlat. Samarqand viloyati, Xatirchi tumani, hozirgi Kattaqo'rg'on tumaniga qarashli Jizmonsoyning Dara qishlog'ida yashab ijod qilgan. Bir qancha diniy mavzudagi kitoblari qo'lyozma holida saqlanmoqda. Devon sohibi. Asarlari avlodlari qo'lida saqlanadi

(Lirik devoni nusxasi qo'limizda mavjud).

Abulxayrxon Eshon – taxallusi Savriy. Samarqand shahar So'zangaron mahallasida yashagan. 1961-yili vafot etgan. Asarlari nabiralari qo'lida saqlanmoqda.

Mulla Narzullo – taxallusi Shukuriy. Samarqand viloyat Urgut tumanida yashab ijod etgan. 1930-yilgacha hayot bo'lgan. Devon sohibi. Devoni sobiq Rossiya FA Osiyo mamlakatlari institutining Sankt-Peterburg bo'limi fondida 1581-inventar raqami ostida saqlanadi.

Asrorxon ibn mufti Umarxon (1875 – 1925) – taxallusi Muftaqir. Samarqand viloyat Urgut tumanida yashab ijod etgan. Mudarris, shoir va ma'rifatparvar adib. Ne'matullo Muhtaramning "Tazkirat ush-shuaro" asarida bu ijodkor haqida ma'lumot berilib, ijodidan namunalar keltirilgan. O'zbek va tojik tillarida ikki devon tuzgan. Hajviy mavzudagi she'rlariga "Pashminapo'sh" taxallusini qo'llagan. Asarlari avlodlari qo'lida saqlanmoqda.

Mulla Ahmad o'g'li Mahdiy – XIX asr oxiri XX asr boshlarida Kattaqo'rg' on shahrida tug'ilgan. Naqibbek va Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Bayoziy, Sohibiy va Mahdiy bayozlarida g'azallari mavjud. Vafot etgan yili ma'lum emas. G'azallar to'plami O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari fondiga topshirilgan.

Orif Gulxaniy (1879–1955) – Samarqandda tug'ilib ijod etgan. Zullisonayn shoir. "Shir-u shakar" (1991), "Shohmisralar" (1998) va boshqa asarlari chop etilgan. Asarlari avlodlari qo'lida saqlanadi.

Abdushukur Qori Yaxshiboyev (1887–1971) – taxallusi Ahlam. Samarqand viloyati Turkmanqishloq mavzeyida yashab o'zbek va forsiy tillarda ijod qilgan. Turkmanqishloq tarixiga doir asar yozgan. Asarlari avlodlari qo'lida saqlanadi.

Abdulg'ani Javdat (1889–1981) – taxallusi Javdat. Samarqand tumanidagi Bog'ibaland qishlog'ida yashab ijod etgan. Zullisonayn shoir. Birinchi devoni 20-30-yillardagi taloto'p paytida yo'qolgan. Ijod namunalari 2014-yil "Armug'oni Javdat" nomi ostida chop etilgan. Asarlari avlodlari qo'lida saqlanmoqda.

Abdulqodir Abduazizov (1890 – 1986) – taxallusi Jome'. Samarqand shahrida yashab ijod etgan. O'zbek va forsiy tillardagi asarlari o'g'illari qo'lida saqlanmoqda.

Nabiraxo'ja Valixo'jayev (1894 – 1968) – taxallusi Xil'at. Zullisonayn shoir. Samarqand shahrida yashab ijod etgan. Asarlari avlodlari qo'lida saqlanmoqda.

Salomat Parda qizi (1894 – 1964) – taxallusi Mutriba. Kattaqo'rg' onning Qalandarxona mahallasida yashab ijod etgan. Asarlari Kattaqo'rg'on shahar o'lkashunoslik muzeyiga topshirilgan.

Mirzo Hayitmurod Abdulmuqim o'g'li Sattorov (1894–1981) – taxallusi Murodiy. Kattaqo'rg'onning SaripulTEpa qishlog'ida tug'ilgan. Kattaqo'rg'on shahrida yashab ijod etgan. Shoirning 338 betdan iborat she'riy to'plami qo'lyozmasi qo'limizda mavjud. Asarlari avlodlari tomonidan SamDU Qo'lyozmalar bo'limiga topshirilgan.

Qori Muhammad Rasul Zubaydullaxo'ja o'g'li (1895 – 1989) – taxallusi Nojiy. Kattaqo'rg'on shahrida yashab ijod etgan. Devon sohibi. Asarlari o'g'illari qo'lida saqlanmoqda.

Vadud Mahmud (1897–1976) – Samarqand shahrida yashab ijod etgan. Bir qancha adabiy-tanqidiy izlanishlari qo'lyozma holida mavjud. Asarlari o'g' illari qo'lida saqlanmoqda.

Kattaxonxoja Dahbediy (1878 – 1969) – taxallusi Muznibiy . Samarqand viloyati Dahbed mavzesida istiqomat qilgan. Bir nechta diniy asarlar muallifi. “Risolayi tarixi Dahbediya” asari Kattaxonxoja musavvadasining to'rtidan bir qismi, ya'ni 55 varag'ini tashkil qiladi. Kitob musavvadasining qolgan uch qismi esa, asosan, arab, fors va o'zbek tilida yozilgan she'r, muxammas, g'azaliyot, ruboiy, nazmiy ta'rixlardan iborat” [Kattayev 2016, 146]. Asarlari avlodlari qo'lida saqlanadi.

Abdulmo'min Sattoriy (1903 – 1925) – Abu Tohirxojaning “Samariya” asarini fors tilidan o'zbekchaga o'g'irgan, o'z davrining iqtidorli olimlaridan. Samarqandlik ijodkor Jome' o'z xotiralarida uni shoir sifatida hurmat bilan tilga olib, Samarqand shahar Qozi Abdurasul mahallasida yashagani haqida yozgan. Hozircha asarlari to'liq topilmagan. Vadud Mahmud shaxsiy arxivida uning bir nechta sahifali she'rlari qo'lyozmasi saqlanib qolgan.

Qutbiddin Muhiddinov (1906–1983) – taxallusi Qutbiy. Samarqand viloyat Urgut tumanida tug'ilgan. Zabardast olim va zullisonayn shoir. She'riy asarlari “Man zi xatti qalamat omadaam” nomi bilan (2001) chop etilgan. Asarlari o'g' illari qo'lida saqlanadi.

Shayx Narzulloxon ibn Nizomiddinxon (1908 – 1986) – taxallusi G'aribiy. Samarqand viloyati Xatirchi tumanida tug' ilgan. Arab, fors-tojik va o'zbek tillarida diniy-irfoniy manzumalar yozgan. Usmon O'shiyning “Omoliy” qasidasini arab tilidan o'zbek tiliga she'riy tarjima qilgan. Asarlari o'g'illari qo'lida saqlanmoqda.

Nizomiddin Zokirov (1931 – 1969) – taxallusi Soidiy. Kattaqo'rg'on shahrida yashab ijod qilgan. She'rlari farzandlari tomonidan “Kechikkan kitob” (2015) nomi ostida chop etilgan.

Asarlari o'g'illari qo'lida saqlanadi.

Samariddin Sirojiddinov (1932 – 1987) – taxallusi Sirojiy. Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Samarqand shahrida yashab ijod etgan. Lirik she'rlaridan namunalar "Armon" nomi bilan (2014) chop etilgan. Asarlari o'g'illari qo'lida saqlanadi.

Latif Sharifiy (1936 – 2004) – taxallusi Latifiy. Samarqand viloyat Urgut tumanida yashab ijod etgan. "Bog'" nomli she'rlar to'plami vafotidan bir yil oldin (2003) nashr etilgan. Asarlari farzandlari qo'lida saqlanadi.

A'zamxon Kattayev – taxallusi A'zamiy. 1936-yili tug' ilgan, pedagog, shoir. Asarlari farzandlari qo'lida saqlanadi.

Yuqorida zikr etilgan ijodkorlarning shaxsiy arxivlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular tomonidan o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari – devon tuzish, zullisonaynlik, diniy-falsafiy mazmundagi qasidalar yozish, tarjimachilik, hikoyatnavislik – didaktik hikoyatlar yaratish sohalari izchil davom ettirilgan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, bir qator shoirlarning devonlari 30-40-yillar ijtimoiy-siyosiy to'fonida yo'q qilingan bo'lsa, ba'zilarining devoni kimlarningdir qo'lida qolib ketgan.

Ana shu yo'qotishlardan omon qolgan bir necha devonlar davr adabiyoti badiiy kamolotini aniqlashga imkon beradi. Jumladan, Ibn Davlat tomonidan 1944-yili tartib berilgan devonda muallifning 345ta she'ri jamlangan. Unda basmala, hamd, munojot, g'azal, murabba', muxammas, musaddas, ruboiy, fard va boshqa mumtoz janrdagi namunalarning arab alifbosi asosidagi harflar tartibida joylashtirilishi muallifning mazmun va shakl jihatidan an'anaviy devon tartib berish qoidalariga qat'iy amal qilganini ko'rsatadi. Ibn Davlat she'riy asarlarini mavzu ko'lamiga ko'ra ikki turkumga ajratish mumkin. Birinchi turkum asarlarda musulmon kishi sifatida islom dini buyurgan amallarga rioya qilish, oddiy xalqni toat-ibodatga, namoz o'qishga, ro'za tutishga, imon-e'tiqodga, qisqacha aytganda, islom dini, shariat buyurgan diniy amallar, shular doirasidagi halol luqma, kattalarni, xususan, ota-onani hurmat qilish, kichiklarning kattalar nasihatiga quloq osishi, sabr-qanoatli bo'lish va boshqa insoniy fazilatlarning barchasi islom doirasida targ'ib qilingan bo'lsa, keyingi turkumda diniy ahkomlar, to'rirog'i, naqshbandiylik tariqati yo'l-yo'riqlari, qonun-qoidalar, usul-darajalari nazm yo'lida bayon etilgan. Bu turkumdagi she'rlari faqat tariqat sohiblari – tolib, so'fiylarga murojaat kabi yangraydi. Bunda shayx shariatdan keyingi murakkab bosqichlarga doir mulohaza va fikrlarini badiiy bayon etadi. Shayxning bir qator g'azal va muxammaslarida so'fiyning

ma'rifat va haqiqat bosqichlaridagi ba'zi ruhiy holatlari, ularning nomlanishi va darajalari ham bayon etiladiki, bu oddiy musulmon kishi amal qilishi lozim bo'lgan diniy amallar bayoni emas, balki inson irodasini yillar mobaynida sinaydigan, toblaydigan o'ta murakkab ruhiy-psixologik holatlarning nazmiy bayoni bo'lib, bu she'rlarni tariqatdan xabari bo'lgan kishilargina tushunadilar. Fikrimizning dalili sifatida "Naqshband" nomli g'azalini, "mahlakot" – oltmish ikki fe'li bad, "munjiyot" – oltmish ikki fe'li nek, "darajot"lar izohi va bayoniga bag'ishlangan ko'plab g'azal, muxammas, musaddaslarini keltirib o'tish mumkin [Ibn Davlat, 16, 23, 46].

Vadud Mahmud tomonidan tuzilgan ruboiylar to'plamida ruboiylarning arab alifbosi tartibida joylashtirilganini kuzatiladi, ularning adadi mingdan ortiq.

Mazkur shoirlarning ijodida Alloh hamdi, Payg'ambar na'tiga bag'ishlangan madhiyalar, munojotlar ko'plab uchraydi. Ibn Davlat, Ahlam tomonidan masnaviy, g'azal, muxammas janrlarida mahorat bilan yozilgan hajman katta bir nechta hamd, munojotlar mavjud. Qutbiy (1906 – 1983) ijodida ham o'zbek va forsiy tillardagi g'azal, masnaviy janrida yozilgan qasida turlari bu davr she'riyatning eng yuksak badiiy namunalari bo'lib sanaladi. Qutbiy munojotlarida davr bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy voqealarning shaxsiy hayotidagi aksi ham ifodalangan. Sho'ro hukumati tomonidan bir necha bor nohaq qamalgan xoksor inson, zabardast olim o'sha davr fitnachi kishilaridan oila a'zolarini omon saqlashini so'rab, Allohga munojot etadi:

Har kas barad beh peshi kase, hojat talabat,

Man juz tu nadoramu tu Xoliqi ahad.

Bo ahli xonadoni manu nuri chashmi man,

Az marhamatu muhofizat binmo tu to abad [Qutbiy 2001, 7].

Bu davrda yaratilgan diniy-tasavvufiy, irfoniy mazmundagi bu munojotlar sho'ro davri ateistik mafkurasiga qarshi o'laroq xalqimizning diniy e'tiqodi asosida shakllangan o'zligi, milliy ruhiyati aks etgan badiiy asar namunalari ekanligi bilan ham katta ahamiyatga ega edi. Bu davr shoirlari tomonidan yaratilgan hamd, munojot va na't turkumidagi ko'plab she'rlar XX asr 30-80-yillarida diniy-falsafiy, irfoniy mazmundagi qasidalar yozish an'anasi saqlab qolingani hamda muvaffaqiyatli davom ettirilganini ko'rsatuvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ahlamning qoralamalari orasida nasta'liq xatida husnixat bilan yozilgan qasida uchradi. Bu chahoryorlardan biri Abu Bakr

Siddiq (572 – 634) nomiga nisbat berilgan 12 bayt, 24 misrali arabcha munojotning o'zbek tiliga tarjimasi ekan. Bu haqda shoirning o'zi: "Ushbu qasidayi sharif hazrati Abu Bakr Siddiq raziollohu anhu qasidalaridur. Kamina banda ul janobi ruhi poklaridan istionat talab qilib, bu qasidani turki(y) tilga nazm qildim. Toki turki(y) tilda so'zlovchi do'stlar ham bu tabarrukona qasidani(ng) ma'nosidin bahramand bo'lub, o'qub savob topsunlar" – deb izoh beradi [Ahlam, 14, 5]. Shuningdek, G'aribiy tomonidan arab tilidan she'riy tarjima qilingan Usmon O'shiyning "Omoliy" qasidasini ham alohida ta'kidlash lozim. 52 baytdan iborat qasida tarjimasidan bir bayt keltiramiz:

Tavhid manzumasi

*Ey yoronlar, barcha ashyog'a haqiqat bor haq,
Ilm anga sobit erur siz qilmangiz inkor haq.*

Ya'ni: Ey do'stlar, hamma narsaning haqiqati bor. Eng oliy haqiqat Allohdir, haqning dunyoni yaratganligi haqiqatan haqdur [Raf'iddinov 2005, 54].

XX asrning 60-70-yillarida bu mavzuda yozish yoki biror asarni tarjima qilishning o'zi tahlikali edi. Nomlari yuqorida keltirilgan ijodkorlarning Yaratganning qudrati-yu qodirligi, zoti-yu sifatlarini madh etib yozgani va buning ustiga din tan olinmagan bir davrda islom dini peshvolaridan bo'lgan Abu Bakr Siddiq munojotini yoki mashhur "Omoliy" qasidasining o'zbek tiliga nazmiy izohli tarjimasini amalga oshirishlarini ma'naviy jasorat deb baholash o'rinli bo'ladi, nazarimizda.

O'zbek adabiyotida zullisonaynlik an'anasi mumtoz she'riyatning ajralmas qismi va u shoir iqtidorini baholash mezoni hisoblangan. Bu an'ana 1920-1990-yillar mobaynida samarqandlik shoirlar tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi. O'tgan asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrdagi tazkira va bayozlarga kiritilgan Muftaqir, Taslim, Vasliy, Ajziy singari shoirlar ijodidan berilgan namunalar shundan dalolat beradi. Bu an'ana keyinchalik Salohiy, Omonulla Oxund, Muznibiy, Nojiy, Ahlam, Jome', Vadud Mahmud, Qutbiy va boshqa shoirlar tomonidan davom ettirildi.

Ko'rib chiqilayotgan davr ijodkorlari shoir bo'lish bilan birga, yaxshigina xattot ham bo'lganlar. Omonulla Oxund tomonidan kufiy xat turida ko'chirilgan bir nechta Qur'on nusxasi bugungi kunda allomaning avlodlari qo'lida saqlanadi. Shuningdek, bu davr ijodkorlar orasida salaflar ijodidan o'ziga yoqqan she'rlarni chiroyli

xat bilan ko'chirish urf bo'lgan. Ahlam qo'lyozmalari orasida Alisher Navoiy va Fuzuliy g'azallaridan ko'chirilgan namunalar uning mohir xattot ekanligini ko'rsatadi. Jome' daftarlarida Fazliy Namangoniy, Nishotiy ("Husn va Dil" dostonidan), Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye" (Alisher Navoiy vasf etilgan boblar), Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Nizomiy Ganjaviyning bir qancha g'azallari va Umar Xayyom ruboiylaridan namunalar ko'chirilgan sahifalar mavjud. Murodiyning mumtoz janrlar asosida yaratilgan she'riy to'plami muallifning o'z qo'li bilan nihoyatda chiroyli husnixatda tartiblangan.

Sharq adabiyotida muhim o'rin egallagan didaktik yo'nalishdagi hikoyatlar yozish an'anasi XX asr 70–80-yillar adabiyotida ham uchraydi. Bunga misol tariqasida Latif Sharifiyning pand-nasihat xarakteridagi hikoyatlarini aytib o'tish mumkin. Uning hikoyatlarida Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari mazmuni va kompozitsion tuzilishiga ergashish kuzatiladi. Misol sifatida bir hikoyatni keltiramiz: "Qishloq chekkasidan bir gala bo'ri tog' tomon o'tib ketdi. Ularga itning kichkinagina ikki bolasi ergashdi. Ko'p urindim, ammo polaponlarni qaytara olmadim. Chunki ular ancha uzoqlashib ketgan edi. Ming afsus bilan qishloqqa qaytdim. Ko'zim qordagi izlarga tushdi: yirik tirnoqli izlar yonida jajji izchalar ham bor edi. Bir necha kun quyidagi to'rtlik tilimdan tushmadi.

Ruboiy:

*Bu o'rlikmas, bu albatta, xom-g'o'rlik,
Ergashib bormoqda bechora sho'rlik,
Polapon bo'g'ziga bo'ri tish urgay,
Qolur eh, jasaki bo'lmasdan go'rlik [Sharifiy 2003, 76].*

Yoki muallifning "Bino" hikoyatini ko'raylik. Bir kishi yulg'ichlik orqali qurgan dang'illama imorati bilan maqtanar va shunday imorat qurolmagan tengdoshlari ustidan kular edi. U qishloqdoshlaridan biriga dedi: – Men shunday imorat qurdimki, sen uni umring bo'yi qurolmaysan. Bilaman, ko'p kitob o'qiysan, axir kitobdan nima olasan? Qishloqdoshi dedi: – Sen tosh va g'ishtdan bino quribsan, biroq dilingda ma'nining mustahkam g'ishtidan imorat qurolmabsan. Zero ma'ni qasri abadiy va o'lmasdir.

Qit'a:

*"Shohnoma", "Xamsa"-yu "Guliston", "Bo'ston",
Ma'nidan yaralgan xazonsiz gulbog',*

Qorunning mulkidan igna bormu, ayt?!

Yo Ma'mun taxtidan bir siqim tuproq?

Xulosa

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida mumtoz adabiy an'analar izchil davom etgan. Bu an'analar mumtoz adabiyotimizning mavzular ko'lamida ham, janr – shakllar olamida ham o'z aksini topgan. Mumtoz she'riyatimizdagi deyarli barcha janrlar bu davr adabiyotida yangicha ruhda ifoda etilgan, talqin etilgan. Ko'plab diniy-tasavvufiy va tariqat odobi bilan bog'liq she'riy asarlar ham yaratilgan.

XX asr davomida Samarqand shahri va yaqin atroflarida yashab o'tgan noma'lum shoirlarning tarqoq va sochilgan holdagi lirik merosi bir joyga jamlanib, qo'lyozma holida saqlangan arab yozuvidagi asarlar joriy yozuvga tabdil qilinsa hamda bu noyob lirik merosmonografikko'lamdao'rganilsa, o'zbek adabiyotshunosligining o'tgan asrdagi 70-75 yillik tarixi yanada mukammallashar edi. Shubhasiz, bunday ijodkorlar yurtimizning har burchagida topiladi va ularning adabiy merosini yuzaga chiqarish adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar

- Абдурахмонов, А. 1990. *Ургут: тарих ва адабиёт*. Тошкент: Фан.
- Аҳлам. *Қўлёзма*. Шахсий архив материаллари.
- Ибн Давлат. *Девон қўлёзма нусхаси*.
- Ибратли ҳаёт гулшани. 2005. Ўроқхон (Рафъиддинхон) хожи шайх Нарзуллохон ўғли. Тошкент: Мовароуннаҳр.
- Жомеъ. *Қўлёзма*. Шахсий архив материаллари.
- Каттаев, К. 2016. *Маҳдуми Аъзам тарихи ва мукамал даҳбедийлар тариқати*. Тошкент: Машхур-пресс.
- Маҳмуд, Вадуд. *Рубоӣёт*. Қўлёзма. Шахсий архив материаллари.
- Муродий. *Шеърӣй тўплам қўлёмаси*.
- Ҳалимов, С. 1978. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX бошларида ўзбек ва тожик алоқалари. Самарқанд.
- Ножий. 2014. *Девон*. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Орзибеков, Р. 2006. *Ўзбек лирик шеърӣйати жанрлари*. Тошкент: Фан.
- Салоҳӣй. 2015. *Қутилган китоб*. Тошкент: Шарқ.
- Самарқанд адіблари*. 2017. Тошкент.
- Сирожӣй. 2012. *Армон*. Тошкент: Наврўз.
- Соидӣй. 2014. *Кечиккан китоб*. Тошкент: Шарқ.
- Қаюмов, А. 2010. *Асарлар. Қўқон адабӣй муҳити. 7-жилд. 1-китоб*. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Қутбӣй. 2001. *Ман зи хатти қаламат омадаам*. Тошкент: Янги асп авлоди.
- Хўжақулов, С. 2015. *Адабӣётӣ давраи бедорӣи милли*. (Нимаи дюми

Shuhrat Sirojiddinov

(Tashkent, Uzbekistan)

shsirojiddinov@navoiy-uni.uz

Zebiniso Khurramova

(Tashkent, Uzbekistan)

xurramovazebo@gmail.com

Traditions of Classical Poetry in the Uzbek Literature of the XX Century

Abstract

The article examines the development of the traditions of classical poetry in modern Uzbek literature. New materials show that the traditions of Eastern classical literature were consistently continued in parallel with Soviet literature in the 1920s – 1990s. Among the representatives of the Samarkand literary movement of the twentieth century, there are artists who continued a number of traditions of Uzbek classical literature, such as arrangement of the Devonian, calligraphy, calligraphy, creation of hymns of religious and philosophical content, translation, narration.

Of these, the personal archives of Ibn Davlat, Ahlam, Jameh, Muradi and Wadud Mahmud are classified, and a scientific description of the sources available in the literature of this period is made. According to this classification, the authors of this period are divided into literary, historiographic and scientific sources, both by the content of the manuscripts and by the type of genre - letters and correspondence, documents and archives.

For the first time, the article informs the scientific community about the authors who lived and worked in the Samarkand region, and information from their personal archives.

Key words: *classical poetry, literary tradition, lyrics, poetry of a new era, traditions, Samarkand, bilingualism, didactic narration, rubai, munajat.*

About the authors: *Shuhrat Sirojiddinov* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent state University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

Zebiniso Khurramova – Independent Researcher, Samarkand State

Institute of Foreign Languages.

Recommended citation: Sirojiddinov, Shuhrat, Khurramova, Zebiniso. "Traditions of classical poetry in the uzbek literature of the XX century". *Golden scripts* 2: 3—14.

References

- Abdurahmonov, A. 1990. *Urgut: tarix va adabiyot*. Toshkent: Fan.
- Ahlam. *Qo'lyozma*. Shaxsiy arxiv materiallari.
- Ibn Davlat. *Devon qo'lyozma nusxasi*.
- Ibratli hayot gulshani*. 2005. O'roqxon (Raf'iddinxon) xoji shayx Narzulloxon o'g'li. Toshkent: Movarounnahr.
- Jome'. *Qo'lyozma*. Shaxsiy arxiv materiallari.
- Kattaev, K. 2016. *Maxdumi A'zam tarixi va mukammal dahbediylar tariqati*. Toshkent: Mashhur-press.
- Mahmud, Vadud. *Ruboiyot. Qo'lyozma*. Shaxsiy arxiv materiallari.
- Murodiy. *She'riy to'plam qo'lyozmasi*.
- Halimov, S. 1978. *XIX asrning ikkinchi yarmi va XX boshlarida o'zbek va tojik aloqalari*. Samarqand.
- Nojiy. 2014. *Devon*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Orzibekov, R. 2006. *O'zbek lirik she'riyati janrlari*. Toshkent: Fan.
- Salohiy. 2015. *Kutilgan kitob*. Toshkent: Sharq.
- Samarqand adiblari*. 2017. Toshkent.
- Sirojiy. 2012. *Armon*. Toshkent: Navro'z.
- Soidiy. 2014. *Kechikkan kitob*. Toshkent: Sharq.
- Qayumov, A. 2010. *Asarlar. Qo'qon adabiy muhiti. 7-jild. 1-kitob*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Qutbiy. 2001. *Man zi xatti qalamat omadaam*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Xo'jaqulov, S. 2015. *Adabiyoti davrai bedorii milli. (Nimai duyumi asri XIX va ibtidoi asri XX)*. Toshkent.
- Sharifiy, Latif. 2005. *Bog' . Devon*. Toshkent.

Akromjon Dehqonov*(Toshkent, O'zbekiston)*
dehqonov@navoiy-uni.uz

Arba'innavislik an'anasi va Muhayyir adabiy faoliyati

Abstrakt

Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida Qo'qonda yashab ijod etgan iste'dodli adib, tarjimon Muhammadqul Muhammadrasul o'g'li Muhayyir ijodi haqida ma'lumot berilgan. Muhayyirning Alisher Navoiy an'anasini davom ettirib, qirq hadis mazmunidan iborat nazmdagi "Arba'in"i tahlil etilgan. Shuningdek, musulmon Sharq adabiyotidagi, xususan, arab, fors, usmonli turk va o'zbek adabiyotidagi arba'inchilik an'anasi haqidagi ayrim kuzatishlari ham bayon etilgan.

"Arba'in" bilan bevosita bog'liq bo'lgan qirq raqamining xosiyati, insoniyat tarixiga doir voqea-hodisalarning Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor ijodidagi talqini tahlil etilgan. Ayni fikrni dalillash uchun adiblarning asarlaridan iqtiboslar olingan. Mazkur voqea-hodisalarning ildizlari Qur'oni Karim va hadisi sharifga borib taqalishi asoslangan.

Maqolada Muhayyirning tarjimonlik mahorati, uning tarjima uchun olingan hadis mazmunini saqlagan holda yaxshigina she'riy namunalar yaratgani ko'rsatib berilgan. Fiqhlar asosli misollar yordamida isbotlangan. Shuningdek, Muhayyir nazmga solgan hadislar Alisher Navoiy ta'lif etgan "Arba'in" bilan ham qiyoslangan. Har ikki ijodkor yaratgan "Arba'in"larning o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos o'rni, mazmun va ma'no ko'lami jihatidan ayrialigini yoritilgan. Ular Alisher Navoiy "Arba'in"idagi hadislarining takrori bo'lmay, balki mutlaqo yangi, mustaqil asar ekanligi ta'kidlangan.

Tarjima uchun asos qilib olingan Shayx ibn Nuruddin Muhammad Puroniyni forsiy tilda ta'lif etilgan "Arba'in"i qiyosiy ko'rib o'tilgan. Adibning forsiy matndagi ma'noni turkiy tilda qay darajada ifodalagani tadqiq etilgan. Kuzatishlar asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *tarjima, "Arba'in", hadis, an'ana, o'ziga xoslik, nazm, qiyosiy tahlil.*

Muallif haqida: *Akrom Dehqonov* – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Dehqonov, Akrom. 2020.

“Arba’innavislik an’anasi va Muhayyir adabiy faoliyati”. *Oltin bitiglar* 2: 15—32.

Kirish

Muhammadqul Muhammadrasul o’g’li Muhayyir (1842-1918) Qo’qon adabiy muhitining iste’dodli vakillaridan biri, sohibi devon shoir edi. Bizga Muhayyir devonining ikki nusxasi yetib kelgan. Har ikki nusxani ham shoirning o’zi ko’chirgan. Ulardan biri qoralama nusxa bo’lib, hijriy 1315 (melodiy 1897)-yilda ko’chirilgan, 162 varaqdan iborat. Ushbu qo’lyozma nusxa 7493 inventar raqami ostida O’zFA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda. Devonning ikkinchi nusxasi hijriy 1335 (1917)-yilda ko’chirilgan bo’lib, 241 inventar raqam ostida Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi fondida saqlanmoqda. Muhayyir asarlarining yana bir noyob manbasi uning o’zi tomonidan yozilgan bayozdir. Bu bayoz hijriy 1311 (melodiy 1893)-yilda ko’chirilgan. Ushbu bayoz 682 inventar raqam ostida O’zFA Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Shoir devonining har ikki nusxasida, shuningdek u ko’chirgan bayozda ham debochadan keyin qirq hadisning she’riy tarjimasi keltirilgan. Ma’lumki, o’zbek adabiyotida Alisher Navoiy boshlab bergan bir ijodiy an’ana mavjud. Navoiy Abdurahmon Jomiy tomonidan forsiyga nazm bilan tarjima qilingan qirq hadisni 1481-yilda she’riy yo’lda turkiyga o’girib, uni “Arba’in” deb nomlagan edi [Навоий 1991, 3]. Alisher Navoiyning qirq hadisni aynan forsiydan turkiyga tarjima qilishi, avvalo, shoirning hadislarga bo’lgan ixlos-ehtiromi bo’lsa, so’ngra ustoz Abdurahmon Jomiyga bo’lgan cheksiz hurmatining ifodasidir. Shoir buni “Arba’in”i muqaddimasida ham ta’kidlab o’tadi [Навоий 2000, 261].

Asosiy qism

Muhayyir devoni nusxalarining har ikkisi ham debochadan keyin qirq hadisning she’riy tarjimasi bilan boshlangan. Shoir tarjima muqaddimasida qisqagina so’zboshi yozgan. Unda jumladan shunday deyiladi: “Anbiyo sarvarining sahih rivoyat birla vorid bo’lg’on hadislardan qirq hadisni bir hadisi qudsiy birla “Ballig’u anni va lav oyatan” fahvosincha (“Men haqimda biror belgi bo’lsa ham yetkazinglar” ma’nosicha – A.D.) forsiy tarjima yuzidin Muhayyir turkiy ruboiyada ado qildi. Umid budurki, ushbu hadislarni yod qilg’on ulamo zumrasidan bo’lg’ay” [Мухаййир 5].

Muhayyirning yozishicha, ushbu tarjima qilingan hadislarning

hammasi sahih – ishonchli hadislar bo'lib, ular forsiydan turkiyga o'girilgan. Shuningdek, shoir Payg'ambar alayhissalomning "Mening haqimda biror belgi bo'lsa ham yetkazinglar" mazmunidagi hadisiga binoan ushbu ishga qo'lurganini ham so'zboshida bayon qilgan. Devon nusxalarida hadislar quyidagi tartibda joylashgan: dastlab yuqorida hadisning arabcha matni berilgan, undan keyin Muhayyirning qit'a shaklida qilgan tarjimasi keltirilgan. Lekin ularda tarjima qilingan hadislarining forscha she'riy tarjimalari mavjud emas.

Muhayyir tomonidan ta'lif qilingan 682 raqamli qo'lyozma bayozda ham xuddi shu hadislar tarjimasi mavjud. Lekin tuzilishi bir oz o'zgargan. Dastlab hadisning arabcha matni qizil siyoh bilan bitilgan. Undan keyin hadislarining forsiy tarjimasi qiyalatib yozilgan, so'ngra Muhayyirning turkiy tarjimasi ham qiyalatib yozib chiqilgan.

Bu qo'lyozmadagi muhim so'zboshi-izoh forsiyda bitilgan. Unda jumladan shunday deyiladi: "...Ammo ba'd az hamd-u sano va durudi sarvari anbiyo maxfiy namonadki, ba rivoyati sahih in kalomi fasih az onhazrat sallallohu alayhi vasallam vorid shudaki: "Ballig'u anni va lav oyatan", ya'ni barpoyand ummaton az man, garchi miqdori oyat boshad. Bas, bamuqtazoyi in amr Shayx ibn Nuruddin Muhammad Puroniy hadisi az sahoihi axbori Mustafo tarjima namud to hifzi maqosidi in: bar tolibon oson gardad va rajo az hazrati Kibriyo onki, dar ro'zi jazo az saodati "Man hafiza an ummati arbaina hadisan ba'asahullohu taolo yavmal qiyomati faqihan, oliman" bahramand gardad.

Va ayzan dar in zamon, ki diydayi Muhayyir in nusxayi muborakro did, umedvorki, diydayi baqadri fahm-u donishi xush ba iborati turkiy dar barobari tarjimayi avval soni navishta. Iltimos inki, ba ma'ni nazar kunand. Ba nazm xurda nagirandki, dar injo ma'ni matlub ast, na nazm" [Мухаййир 9]. Tarjimasi: "Ammo Ollohga hamd-u sanodan va sarvari anbiyoga salovotdan so'ng maxfiy qolmasinkim, onhazrat sallollohu alayhi vasallamdan: "Men haqimda biror belgi-oyat bo'lsa ham yetkazinglar" mazmunida sahih rivoyat bilan hadis vorid bo'lgan. Shayx ibn Nuriddin Muhammad Puroniy shu amr-buyruqning taqozosi bilan Mustafo alayhissalomning sahih hadislarini tarjima qildi, toki ularni yod olish toliblarga oson bo'lsin. Va u onhazrat sallollohu alayhi vasallamning "Ummatimdan kimki qirqta hadisni yod olsa, Olloh taolo qiyomat kunida uni faqih-olim holda tiriltiradi" mazmunidagi bashoratidan ham bahramand bo'lishni umid qildi. Va yana shu zamonda Muhayyirning nazari o'sha muborak nusxaga (ya'ni Muhammad Puroniy tarjimasiga – A. D.) tushdi. Iltimos shuki, (o'qiganlar) ma'nosiga nazar qilsinlar,

nazm nozikliklarini bundan (ya'ni ushbu tarjimadan – A. D.) talab qilmasinlar. Chunki ushbu tarjimadan maqsad – ma'nodir, nazm emas”.

Ushbu qo'lyozmadagi hadis tarjimalarining tuzilishi an'anaviy arba'inlar tuzilishiga ko'proq mos keladi. Alisher Navoiy tarjima qilgan “Arba'in” ham xuddi shu tarzda tuzilgan, ya'ni avval arabcha matn, so'ng Abdurahmon Jomiyning forsiy tarjimasi, undan keyin esa Navoiyning turkiycha tarjimasi berilgan [Хакимов 1983, 177-178].

Forsiy so'zboshidan ma'lum bo'lishicha, Muhayyir ushbu hadislarini Shayx ibn Nuriddin Muhammad Puroniy fors tiliga she'riy yo'l bilan qilgan tarjimadan turkiyga o'g'irgan. Biz Muhammad Puroniyning kimligini aniqlash uchun manbalardan ko'p izladik, lekin bu nomga faqat bir o'rinda duch keldik xolos. «Собрание Восточных рукописей»ning 6-tomida ushbu ism “Amir Shayx ibn Nuriddin Muhammad Puroniy” shaklida uchradi. Unda ma'lumot berilishicha, №2692/1 inventar raqami ostida ushbu muallif qalamiga mansub “Meros huquqi ilmiga sharh” nomli qo'lyozma saqlanmoqda. Sanasiz. Taxminan XVII asrga oid qo'lyozma. Undagi kichik so'zboshida yozilishicha, Muhammad (ya'ni ushbu kitob muallifi – A. D.) meros ilmini din ilmlarining yarmi deb hisoblaydi va unga (ya'ni meros ilmiga – A. D.) yuqori tabaqalar ham, past tabaqalar ham birdek muhtoj. Shuning uchun ko'pchilikning iltimosiga binoan Muhammad Puroniy ushbu kitobning arabcha matniga forscha izoh yozganini aytadi [CBP 1957, 253]. Bizningcha, Muhayyir forsiy so'zboshida zikr etgan Muhammad Puroniy shu shaxs bo'lsa kerak. Bunday deyishimizga har ikki Puroniy ismlarining bir xilligidan tashqari yana bitta asosimiz bor. U ham bo'lsa, “Meros huquqi” ilmiga sharh” asarining fors tilida ekanligidir. Bu dalil Muhammad Puroniyning forsiy tilli ijodkor bo'lganini bildiradi. Muhayyir turkiyga tarjima qilgan “Qirq hadis” ham, forsiy so'zboshidan ma'lum bo'lishicha, aslida, fors tilida nazmga solingan. Shu dalilga asoslanib biz Muhayyir zikr qilgan Muhammad Puroniy bilan “Собрание Восточных рукописей”dagi Muhammad Puroniy bitta ijodkor bo'lsa kerak, deb taxmin qildik.

Har uchala qo'lyozmada ham qirq hadis tarjimasining oxirida bir uzun hadisi qudsiyning arabcha matni va turkiycha she'riy tarjimasi joylashgan. Nusxalarda bu hadisi qudsiyning forsiy tarjimasi mavjud emas. Shunga asosan bu qudsiy hadisni Muhayyirning o'zi bevosita arab tilidan turkiyga tarjima qilgan bo'lib, u Muhammad Puroniyning “Qirq hadis”i matnida mavjud bo'lmasa kerak, degan xulosaga keldik. Bu hadisi qudsiy xususida keyinroq batafsil to'xtal-

ib o'tamiz.

Biz Muhayyir "Qirq hadis"ining tadqiqiga kirishishdan oldin qirq raqami, o'zbek mumtoz adiblari ijodidagi bu raqam bilan bog'liq ayrim o'rinlar, shuningdek, Sharq adabiyotidagi arba'inchilik an'anasi xususidagi ayrim kuzatishlarimizni qayd etib o'tishni lozim topdik.

Arba'inchilik an'anasi – qirq raqamining ildizlari

Badiiy adabiyotdagi qirq raqamining ildizlari juda qadim davrlarga borib yetadi. Bu raqam bilan bog'liq voqea-hodisalar yozma va og'zaki adabiyotda turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Xalq og'zaki ijodidagi bu raqam bilan bog'liq jihatlarni adabiyotshunos M. Jo'rayev o'z tadqiqotida atroflicha yoritib bergan [Жўраев 1991, 20]. Mumtoz adabiyotda raqam ramzlari va ularning ma'no talqini mavzusidagi tadqiqotini adabiyotshunos S. Jumayeva yaqinda tugatdi [Жумаева 2006]. S. Jumayeva boshqa ko'p raqamlar qatorida, qirq raqamining ham she'riyatdagi badiiy-estetik vazifasiga to'xtalgan. Lekin u qirq raqamining tarixiy ildizlariga ekskurs qilgan emas.

Qirq raqami bilan bog'liq o'rinlar, avvalo, ilohiy kitoblar, xususan, Qur'oni Karimda, so'ngra payg'ambar alayhissalom hadislarida uchraydi.

Qur'oni Karimda qirq raqami to'rt joyda zikr qilinadi [Қуръони карим 1992, 11, 94, 135, 476]. Bulardan uchitasi Muso alayhissalom va Bani Isroil bilan bog'liq voqealar munosabati bilan keladi va bir o'rinda inson haqidagi oyatda ushbu raqamning zikri o'tadi.

Shuningdek, Hadisi shariflarda ham turli munosabatlar bilan qirq raqami zikr etiladi. Xususan, homila haqidagi quyidagi hadisda ketma-ket uch marta qirq raqami takrorlanadi: "Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: "Qaysiningizning bo'lmasin (nutfa holiday) jussangiz (otangiz pushti kamaridan chiqib) onangiz qorniga tushgach, ul yerda qirq kun davomida (o'zaro birikib) yetilgay, keyin esa shuncha muhlatda laxta qonga aylangay, so'ng yana shuncha muhlatda bir parcha et shakliga kelgay..." [Бухорий 1996, 394].

Mumtoz adabiyotimizning Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Alisher Navoiy va So'fi Olloyor kabi ulkan namoyandalari asarlarida ham qirq raqami bilan bog'liq o'rinlar anchagina uchraydi. Xoja Ahmad Yassaviy:

*"Qul Xoja Ahmad, qirqqa kirding, nafsingni qirq,
Munda yig'lab , oxiratda bo'lg'il ariq..."* [Яссавий 1990,

64]- deb o'z-o'ziga murojaat qilsa, uning iste'dodli shogirdi, "tariqatda ham, she'riyatda ham Ahmad Yassaviy an'analarining davomchisi" [Боқирғоний 1991, 3] Sulaymon Boqirg'oni:

*Qirq xachir ko'taru bilmas Tavrot ilmi,
Ochib oni o'qur edi Muso kalim.
Bormu teb aytur erdi mandek olim,
Tegma fasih tili birla aytdi, ko'rung, –*

deb Qur'oni Karimdagi Muso Kalimulloh bilan bog'liq voqealarga ishora qiladi.

Badiiy adabiyotda qirq raqamiga murojaat qilingan asarlarning mumtoz namunalarini, shubhasiz, Alisher Navoiy asarlarida uchratish mumkin. Biz Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" va "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlarida qirq raqami bilan bog'liq bir necha epizodlarni uchratdik. Jumladan, "Tarixi anbiyo va hukamo"dagi Odam alayhissalom haqidagi qissada shunday deyiladi: "...Andin so'ngra Odam a.s. tufrog'ig'a qirq kun rahmat yomg'uri yog'durub, o'z qudrat ilki bila taxmir qildikim, "Xammartu tiynata Odama biyadi arba'inya sabahan" (Odamning loyini qirq kun (tong) o'z (qudrat) qo'lim bilan qordim – A.D.) andin xabar berur" [Навоий 2000, 99].

Alisher Navoiy, shuningdek, "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ham bir necha o'rinlarda qirq raqami bilan bog'liq rivoyatlarni keltiradi, ko'plab shayxlarning xilvatda chilla – arbain o'tirganligini zikr qiladi. Masalan, Shayx Nizomiy Ganjaviy ta'rifida shunday so'zlarni uchratish mumkin: "Mashhur mundoqdurki, alar suluk ayyomida qirq arbain chiqaribdurlar va to'rt arbainni bir daraxt ustida chiqaribdurlar. Har oyina bu nav' mufrit riyozatlar tortmag'uncha bu nav' besh ganjki, alarg'a nasib bo'lubdurki, ko'p abyoti alfoz jazolatidin va ma'no-yu tarkib salosatidin desa bo'lurki, e'joz sarhadiga yetibdur, kishining ilkiga kirmak imkon emas..." [Навоий 2001, 471].

Qirqta arbainning bir ming olti yuz kun bo'lishi hisobga olinsa, Shayx Nizomiyning shuncha vaqt bir makondan tashqariga chiqmay, faqat zikr-u tasbeh bilan mashg'ul bo'lgani og'ir mashaqqatligini, Navoiy aytganidek "mufrit riyozat" ekanligini tasavvur qilish mumkin. Mutasavvuf shoir So'fi Olloyor "Sabot ul-ojizin" asarining muqaddimasida:

*Baliq qornida bir sohib karomat
Chilla o'ltirdi-yu, chiqdi salomat, [Оллоёр 1991, 7] -*

deb mashhur Yunus – Zunnun alayhissalom qissasiga ishora qiladi.

Xullas, mumtoz adabiyotimizdagi ko'plab ijodkorlarning ilmiy va adabiy asarlarida qirq raqami bilan bog'liq ko'plab misollarni uchratish mumkin. Ular ko'pincha payg'ambarlar qissalari (Odam, Dovud, Muso, Yunus a.s.), qiyomatga yaqin qirq yil obodlik bo'lishi, Muhammad alayhissalomga qirq yoshida vahiy kela boshlagani, Hazrat Umarning qirqinchi bo'lib islomga kirishi, tasavvufdagi qirq abdol toifasi, molning qirqdan biridan zakot berilishi kabi voqealar bilan bog'liqdir [Навойи 2001, 364, 17].

Muhayyir "Arba'in"i bo'yicha izlanishlar davomida yana bir muhim yangilikka duch keldik. Sharq adabiyotida arba'inchilik an'anasi mavjud ekanligi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarning "Arba'in" ta'lif etganliklari bizga ma'lum. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, bu an'ana biz bilganimizdan ko'ra ancha keng va qamrovli hodisa ekan.

Usmonli turk tadqiqotchisi Mahmed Emre o'zining "Qirq mavzuda qirq hadis" kitobining muqaddimasida arab va turkiy tillarda "Arba'in" ta'lif qilgan yigirma ikki muallifning nomini keltiradi [Emre 1344, 4-7]. Shuningdek, Mahmed Emre o'zlari turk bo'lib, arba'inlarini ham turkiycha nazmda tasnif etgan mualliflarni va o'zlari turk bo'lib, arba'inlarini arabcha tuzgan mualliflarni alohida-alohida sanab o'tadi.

Mahmed Emre hijriy II asrdan X asrgacha bo'lgan oraliqda (melodiy VII – XVI asrlarda, aniqrog'i, 736 – 1567-yillarda) yashab o'tgan va arba'in ta'lif etgan mualliflar haqida axborot bergan bo'lsa-da, nima uchundir uning ro'yxatida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy nomlari keltirilmagan.

Yana bir usmonli turk tadqiqotchisi Hasan Husnu Ardam «Ilohiy hadislar» kitobiga yozgan "Hadisda arba'in" nomli maqolasida arba'in turkumida to'qsonga yaqin muallifning asari mavjudligini aytadi [Ардам 1994, 10]. Bu tadqiqotchi Abdurahmon Jomiy "Arba'in" tuzgan mualliflar qatorida zikr qilib o'tadi. Bu arba'inlar mavzu doirasiga ko'ra xilma-xil bo'lgan. Ulardan ayrimlari alohida mavzularga bag'ishlangan bo'lsa, masalan, e'tiqodga oid qirq hadis, axloqqa oid qirq hadis, ota-ona haqlariga oid qirq hadis va hokazo, ba'zilar aralash mavzularda ta'lif etilgandir. Shunga o'xshash, arba'inlarning tuzilishi ham turlicha bo'lgan. Masalan, ba'zilar nasrda va yana ba'zilar nazmda, ayrimlari esa nazm-u nasrda ta'lif etilganligini tadqiqotchilar ta'kidlab o'tishgan.

Biz Mahmed Emre kitobida kelgan va "Arbain" tuzgan, ayni paytda, Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida ham zikr etilgan mualliflarning ba'zilar haqida ma'lumot berib o'tishni

lozim topdik. Ular:

1. Abdulloh ibn Muborak.
2. Abdulloh Ansoriy.
3. Muhyiddin ibn Arabiy.

1. **Abdulloh ibn Muborak.** Hijriy 118 (melodiy 736)-yili Marv shahrida tug'ilgan, hijriy 181 (melodiy 797)-yilda Bag'dodda vafot etgan. Juda ko'plab asarlar yozgan. Alisher Navoiy Abdulloh ibn Muborak haqida shunday deydi: "Ani ulamoning shahanshohi der emishlar va jud-u shijoatda zamonining yagonasi ermish. Va tariqat as'hobining muhtashami. Va bu qavmning mashoyixining ko'pining suhbatig'a musharraf bo'lubdur. Va mashhur tasonifi bor» [Навоий 2001, 27].

Mahmed Emre ham, Hasan Husnu Ardam ham o'z maqolalarida eng dastlabki arba'in ta'lif etgan muallif Abdulloh ibn Muborak ekanligini ta'kidlashgan. Abdulloh ibn Muborak o'z davrining Hammod ibn Ziyod, So'fyon Savriy, So'fyon ibn Uyayna, Molik ibn Anas kabi yetuk olimlaridan saboq olgan. "Turk asllidir" [Evliyalar ansiklopediasi 1992, 154-165]. Asarlari: 1) "Kitob uz-zuhd var-raqoiq"; 2) "Musnad"; 3) "Kitob ul-birri va-s-sila"; 4) "Kitob ut – tafsir"; 5) "Kitob ut-tarix".

2. **Abdulloh Ansoriy.** To'liq ismi: Abu Ismoil Abdulloh ibn Abu Mansur Muhammad Ansoriy Hiraviy. Hijriy 396 (melodiy 1005)-yili Hirotida tug'ilgan, hijriy 481 (melodiy 1088)-yilda Hirotida vafot etgan. Mashhur mutasavvif olim. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Abdulloh Ansoriy haqida uning o'z tilidan hikoya qilib shunday deydi: "Debdurki, mening olti ming baytdan ortiq arabiy she'rim bor, rost vazni bila. El ilkida va ajzom keynida. Va debdurki, arab shuarosining mutaqaddim va mutaaxxirindandan yuz ming bayt xotirimda bor..." [Навоий 2001, 231].

Sharqshunos olim Y.E.Bertels Abdulloh Ansoriyning so'fizm tarixida tutgan o'rniga va ijodiga juda yuqori baho berib, shunday deydi:

"...Ansoriyni chetlab o'tish mumkin emas. Chunki uning ta'siri favqulodda kuchli bo'lib, bir necha asrlar davomida sezilib turadi..." [Бертельс 1965, 301]. Asarlari: 1) "Manozil us-soiriyn", 2) "Shams ul-majolis", 3) "Anvor ut-tahqiq", 4) "Tafsir ul-qur'on", 5) "Xulosa fi sharhi hadis", 6) "Sharh ut-taarruf li mazhab it-tasavvuf" [Evliyalar ansiklopediasi 1992, 100].

3. **Muhyiddin ibn Arabiy.** To'liq ismi: Shayx Muhyiddin Muhammad ibn Ali ibn Arabiy. 1165-yilda Andalusiya (Ispaniya)da tug'ilgan. 1240-yilda Damashqda vafot etgan. Islom olamida Ibn

Arabiy kabi ijodi va dunyoqarashi keskin bahs va munozaralarga sabab bo'lgan olim kamdan-kam topiladi. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da shunday deydi: "Vahdati vujud qoyillarining qudvasidur. Zohir fuqaho ulamosidin ko'p anga ta'n qilibdurlar. Fuqahodin oz va so'fiydin jamoate ani buzurg tutubdurlar..." [Навоий 2001, 394].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, musulmon Sharqidagi ko'plab zabardast olimlar "Arba'in" ta'lif etganlar. Bu ulamolarning "Arba'in" tuzishlariga sabab – Payg'ambar alayhissalomning: "Kimki sunnatimga oid qirq hadisni yod olib va yozib ummatimga yetkazsa, Alloh taolo uni faqihlar va olimlar zumrasiga qo'shadi" mazmunidagi bashoratlaridir [Ардам 1994, 9]. Keyingi asrlardagi olimlar bu hadisi sharifga birmuncha erkin va ijodiy yondashib, qirq hadisni nazmda tartib berishga jazm etganlar.

Muhayyir tarjimasidagi qirq hadis

Muhayyir ham shu yo'ldan borib, nazmda "Arba'in" ta'lif etishga, aniqrog'i, nazmdagi "Arba'in"ni tarjima qilishga qo'l urgan. Muhayyir tarjimasidagi qirq hadisni Alisher Navoiy "Arba'in"i bilan qiyoslaganimizda, ularning birortasi ham bir-birini takrorlamasligi ma'lum bo'ldi. Ehtimol, ushbu "Arba'in" muallifi, ya'ni Muhammad Puroniy Alisher Navoiy tarjima qilgan qirq hadis bilan yaxshi tanish bo'lgan va undagi hadislarni takrorlamaslikka intilgandir. Qolaversa, mumtoz adiblarimiz iloji boricha doimo yangi asarning tarjimasiga qo'l urishga harakat qilishgan.

Muhayyirning hadislarni nazmda tarjima qilishdan maqsadi – ularni xalqqa tushunarliroq qilib yetkazish edi. Chunki she'riy yo'l bilan kishilarga fikrni singdirish osonroq va ta'sirliroq bo'ladi, bundan tashqari, hadisning she'riy tarjimasi nasriy tarjimadan ko'ra diqqatni ko'proq jalb etadi.

Muhayyir tarjima qilgan hadislarda chin insoniy fazilatlar madh etiladi, kishilarni bir-birlariga yordam berishga, qarindoshlik aloqalarini tiklashga chaqiriladi, insonga xos ba'zi illatlar – gap tashuvchilik, takabburlik, baxillik kabi illatlar qoralanadi, bunday nomaqbul odatlarni tark etishga targ'ib qilinadi.

Muhayyir o'z "Arba'in"i tarjimasiga yozgan forsiy so'zboshida "...nusxayi muborakro" ("muborak nusxa") deb bejiz ta'kidlamagan. Darhaqiqat, tarjima uchun tanlangan hadislar insonlar o'rtasidagi eng nozik-daqiq munosabatlarga taalluqli hadislardir. "Arba'in"dagi ba'zi hadislarning har ikki shoir tarjimasiga diqqat qilaylik. Nasriy tarjimasi: "Payg'ambar alayhissalom aytdilar: "Hayo imondandir".

Puroniyda:

*Sharm boyad shiori xud sozad,
Har ki u mo'mini musulmonast,
Z-on, ki payg'ambari Xudo namud:
"Ki hayo az hisoli iymon ast".*

Muhayyirda:

*Lozim ulki, hayo shior etgay ,
Kimkidur mo'min musulmondin.
Dedi Payg'ambari Xudo bo'yla:
"Kim hayodur hisol iymondin" [Мухаййир 24].*

Ko'rinib turibdiki, Muhayyir forsiy matnni aynan tarjima qilgan, ma'noni ham to'liq saqlagan. Albatta, bu hadis juda mashhur va sahih hadis bo'lib, ko'p mo'tabar kitoblarda keltiriladi. Xalqimizda ham hayo xususida ko'p maqollar, hikmatli so'zlar mavjud. Ularda hayo juda ko'p insoniy fazilatlarining boshi ekanligi aytiladi.

Yana bir misol. "Payg'ambar alayhissalom aytdilar: "G'iybatchi jannatga kirmaydi".

Puroniya :

*Nakune hech ki suxanchini,
Z-on, ki marviy zi shahi rahi din ast.
Ki ba jannat darun nameoyad
Har ki az mardumon suxanchinast.*

Muhayyirda:

*Qilmangiz hech bir suxanchinlik,
Ki rivoyatdur ul shahi dindin.
Tongla jannatga kirmagay hargiz
Har kishi begumon suxanchindin.*

Yuqoridagi hadis tarjimasida g'iybat – gap tashish mazammat qilinyapti. Darhaqiqat, g'iybatchilik insonlarning orasini buzadigan yaramas fe'llardandir. Hadis matnida qisqa qilib "G'iybatchi jannatga kirmaydi" deb ta'kidlangan bo'lsa-da, uning mazmun-mohiyatidan odamlarni g'iybatchilikdan keskin ravishda qaytarish ohangi mavjud. Shu bois mutarjimlar hadis matnidan kelib chiqib, turgan mana shu ma'noni ochiq ifodalaganlar va buni:

*Qilmangiz hech bir suxanchinlik, -
Nakune hech ki suxanchini, -*

deb, birinchi misraga olib chiqqanlar.

Buyuk mutasavvif shoir So'fi Olloyor ham bu mazmunni "Sabotul-ujizin" manzumasida:

*Namimani yomon dedi Shahi din,
Suxan chin bo'lsa ham bo'lma suxanchin [Оллоёр 1991,
76],*

- deb qisqa misralarda favqulodda mahorat bilan ifodalagan edi. Darhaqiqat, ulamolar tuhmat, g'iybat va namima (gap tashuvchilik) ga shunday sharh berganlar:

1. Tuhmat. Bir kishida mavjud bo'lmagan yomon xislatlarni, ayblarni o'sha odamga nisbat berib, orqasidan gapirish. Ushbu amalni qilgan odam jazolanishga loyiq bo'ladi. Bu xislat munofiqlik alomatlaridandir.

2. G'iybat. Bir kishining fe'lida bor bo'lgan ayblarni, kamchiliklarni o'zi yo'q paytida, o'zi eshitsa xafa bo'ladigan shaklda odamlar orasida gapirish. Bunisi agarchi tuhmatga nisbatan yengilroq bo'lsa-da, odamlarning orasini buzishda zarari kattadir.

3. Namima, gap tashuvchilik (suxanchilik). Odamlarning orasini buzish niyatida birovlarining gaplarini birovlariga shundayicha yoki sal o'zgartirib yetkazish. Agarchi bu yetkazilgan gap o'zgartirmay yetkazilsa ham, niyat buzuq bo'lgani uchun gunohi kattadir. Yetkazilgan gap tufayli katta-katta fitnalar chiqqani, odamlarning orasi buzilgani uchun ham bu odat qattiq qoralanadi, tanqid qilinadi.

Yuqoridagi biz ko'rgan hadisda zikr etilgan uch turli illatning keyingi ikkitasi nazarda tutilgan bo'lib, mualliflar shu illatning islohi uchun sa'y-harakat qilganlar.

"Bir banda yana bir bandaning aybini yopsa, Olloh taolo qiyomat kuni uning aybini yopadi" mazmunidagi hadisi sharifning har ikki mutarjim tarafidan nazmga solingan tarjimasiga diqqat qilaylik:

Puroniya:

*Bandae aybi bandayi digar
Chun po'shad zi xalq dar dunyo.
Po'shad az lutf Ezidi Sattor
Aybi on bandaro ba ro'zi jazo [Кўлэзма 24].*

Muhayyirda:

*Bir kishi yona bir kishi aybin
Xalqdin yopsa ushbu dunyoda,
Lutfila yopqay Ezidi Sattor
Ani aybini tongla uqboda [Кўлэзма 24].*

Muhayyir bu hadisni ham forsiy matnga nihoyatda yaqinlashtirib, asl ma'noni saqlab turkiyga o'g'irgani ko'rinib turibdi. Muhayyir bu hadisning nafaqat ma'nosini, balki so'zlarining ham aksariyatini saqlab qolgan hamda shakl va ma'noning to'liq uyg'unligiga erishgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu "Arba'in"da Alisher

Navoiy “Arba’in”idagi hadislarining birortasi takrorlanmagan. Lekin har ikki “Arba’in”da mavzu-mohiyatiga ko’ra bir-biriga uyg’un bo’lganlari mavjud. Masalan, Alisher Navoiy “Arba’in”idagi quyidagi hadis ma’nosi biz yuqorida ko’rib o’tgan hadis mazmuniga hamohang: hadisning nasriy tarjimasi: “O’z aybini bilib, boshqalar aybini qidirmaydigan odam – xo’b yaxshi odamdur”.

Navoiy:

Ey husho ulki, ayb ko’rmamak ila

Yuz hunarvar marotibin topqay.

Ya’ni o’z aybi pardasi ko’ziga

O’zga el aybi chehrasin yopqay [Навоий 2000, 267].

Muhayyir va Navoiy tarjimasidagi har ikki hadisda ham kishilardan ayb izlamaslikka da’vat bor. Shuni ta’kidlab o’tish joizki, Muhayyir ham xuddi Navoiy singari, hadislarini faqat tarjima qilib qo’ya qolmaydi, balki ularga eng zarur bo’lgan, qisqa izoh – sharhlarni berib boradi va bu bilan o’z tarjimasiga yanada mazmundorlik baxsh etadi. Shu bilan birga, Muhayyir hadis matniga qat’iy rioya qiladi, matndan zarracha ham chetga chiqmaydi.

Muhayyir “Arba’in”ining oxirida ilova tarzida uzun bir hadisi qudsiyning masnaviy yo’lida qilingan tarjimasi berilgan. Bu hadisi qudsiyning forsiy tarjimasi devonning har ikkala nusxasida ham, shoir qo’li bilan ko’chirilgan bayozda ham berilmagan, vaholanki, qolgan hamma hadislarining forsha she’riy tarjimasi mavjuddir. Shunga asosan biz bu hadisi qudsiy Muhammad Puroniy tomonidan forsiy tilga o’girilgan hadislar ichida mavjud bo’lmay, uni Muhayyirning o’zi bevosita arabchadan tarjima qilib, qirq hadisning oxiriga qo’shgan bo’lsa kerak, degan fikrga keldik. Bu hadisi qudsiy bilan hadislar soni qirq bitta bo’ladi.

Bu hadisi qudsiy xususida ba’zi mulohazalar tug’ilgani va uning ma’nosi favqulodda ahamiyat kasb etgani uchun ushbu hadisning Muhayyir “Devon”idagi matnini, nasriy tarjimasini va Muhayyirning she’riy tarjimasini to’liq keltirishni lozim topdik.

Hadisning matni:

قَالَ النَّبِيُّ عَلَيْهِ السَّلَامُ حِكَايَةً عَنْ اللَّهِ تَعَالَى يَا أَحْمَدُ إِنَّ عِنْدِي شَرَّيَا بِالْأَوَّلِينَ إِذَا شَرَبُوا سَكَرُوا وَإِذَا سَكَرُوا طَرَبُوا وَإِذَا طَرَبُوا طَلَبُوا وَإِذَا طَلَبُوا جَدُّوا وَإِذَا جَدُّوا تَابُوا وَإِذَا تَابُوا خَلَصُوا وَإِذَا خَلَصُوا صَلُّوا وَإِذَا صَلُّوا اتَّصَلُوا وَإِذَا اتَّصَلُوا لَا تَفَرُّقُ بَيْنِي وَبَيْنَهُمْ

Tarjimasi: “Payg’ambar alayhissalom Alloh taolodan hikoya qilib shunday dedi: “Ey Ahmad (s. a. v.), mening huzurimda do’stlarim

uchun bir sharob bor. (Do'stlarim) agar uni ichsalar mast bo'ladilar, mast bo'lsalar xursand bo'ladilar, xursand bo'lsalar talab qiladilar, talab qilsalar topadilar, topsalar tavba qiladilar, tavba qilsalar xalos bo'ladilar, xalos bo'lsalar yetadilar, yetsalar birlashadilar va agar birlashsalar, ular bilan mening oramda farq qolmaydi".

Muhayyirning she'riy tarjimasi:

*Do'stlarg'a Nabi inoyat etib,
Tangridin bo'yla bir hikoyat etib,
Qildi la'li bo'lib guharafshon
Bir kun ushbu hadisi qudsiy bayon:
Kim Xudovandi jumla olam
Dedi: "Ey sayyidi Bani Odam,
Mening ollimda bor ajib boda,
Do'stlarim uchun o'lg'on omoda.
Ichsalar qachon bo'lurlar mast,
Tarab onlarga bergusidur dast.
Istagaylar meni tarab qilg'och
Meni topgay alar talab qilg'och.
Har qachon topsalar meni mavjud
Bo'lsa hosil alarga bu maqsud,
Tavba aylab menga bo'lurlar xos
Qilg'um ag'yordin alarni xalos.
Qolsalar ul jamoayi abror
Dargohimda bu nav' beag'yor,
Bo'lg'usidir alar menga payvand
Qurb bog'ida xurram-u xursand.
Har qachon yetsalar visolimg'a,
Boqsalar nuri «lo yazolimg'a»,
Vasl hosil bo'lur alarga mudom,
Men bila doimo saboh-u shom.
Har qachon bu murod o'lub hosil
Yetubon menga bo'lsalar vosil.
Ko'rmagaylar yana judolig'ni,
Qo'ymagayman bu oshnolig'ni.
Ya'ni o'rtag'a tushmagay hijron,
Ey Nabiysi rasuli ins-u jonn,
Bo'lubon jumla nur bahrig'a g'arq,
Men – onlar aroda qolmas farq.*

Ushbu hadisi qudsiy tarjimasining farqli jihati – uning qit'a

shaklida emas, masnaviy yo'lida va hajman ancha katta ekanligidir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Alisher Navoiy ham o'z "Arba'in"ini masnaviy yo'lida yozilgan misralar bilan yakunlagan edi. Lekin Navoiyning xotimasi biror hadisning sharhi bo'lmay, shoirning o'z so'zlaridir.

Muhayyir keltirgan hadisi qudsiyning matni qaysi manbadan olinganligini aniqlashga hozircha muvaffaq bo'lmadik. Bu hadisning majoziy mazmundagi hadis ekanligi ko'rinib turibdi. Mumtoz adabiyotimizda "may" so'zi va uning ma'nodoshlari, istiora tarzida, aksariyat holatlarda ilm-ma'rifat, ishq va muhabbat ma'nolarida qo'llangan. Mumtoz adabiyotimizda may obrazi talqinida ko'plab fikrlar aytilgan. Yuqoridagi hadisi qudsiyda qanday may xususida so'z yuritilgani haqida uzil-kesil biror fikr aytish qiyin. Chunki hadis matnida ushbu so'z «sharob» («inna indi sharoban») deb berilgan. "Sharob" arabcha so'z bo'lib, "ichimlik" degan ma'noni bildiradi [Баранов 1984, 397]. Shunga asosan ushbu hadisi qudsiyda «sharob» – jannatdagi ichimlik ma'nosida qo'llangan bo'lishi yoki ma'naviy ne'mat, masalan, Ollohning ishq ma'nosida ishlatilgan bo'lishi ham mumkin.

Bizningcha, bu hadisi qudsiyning asl manbasini topib, uning sharhi bilan tanishib chiqib, so'ngra biror fikr bildirish kerak. Chunki hadisning majoz yo'li bilan aytilganligini inobatga olmoq lozim. Bunday hadislarga nisbatan juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligi haqida Y.E.Bertels shunday degan edi: "Shuni yodda tutish lozimki, umummusulmon hadislari bilan bir qatorda, so'fizm so'fiylik ilmining asoslarini tashkil qiladigan o'ziga xos so'fiylik hadislarini ham to'qib chiqardi. Shuning uchun rivoyatlar ichidagi so'fiylikka xos shu hikmatlarni so'fizm tarixiga oid juda muhim manba sifatida e'tirof qilgan holda, biz baribir ulardan juda ehtiyotlik bilan foydalanishimiz lozim..." [Bertels 1965, 206].

Shuning uchun mazkur hadisning ilmiy sharhlari bilan tanishmaguncha uzil-kesil bir fikr aytish qiyin. Hadislarni nazmda tarjima qilish ijodkordan ayricha mas'uliyatni talab etadi, uning imkoniyatlarini cheklaydi. Muhayyir hadislar tarjimasiga yozgan so'zboshi – izohida tarjima qilishda asosan ma'noga e'tibor berganini, nazmga solingan hadislarining badiiyatidan o'zining ham ko'ngli to'lmaganini aytib o'tadi. Lekin muallif kamtarlik yuzasidan yuqoridagi so'zlarni aytgan bo'lsa-da, bizning kuzatishlarimiz davomida hadis tarjimalarining aksariyati muvaffaqiyatli chiqqani, ularning barchasida ma'no to'liq saqlangani ma'lum bo'ldi. Nazmga solingan hadislarining badiiy jihatdan yetuk, mukammal darajaga yetganlari ham anchagina. Faqat ba'zi hadislar tarjimasidagina mutarjim

aytgan holatlar kuzatildi. Bizningcha, hadislar tarjimasidagi bu kabi xususiyatlarni quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

1. Hadis matniga qat'iy rioya qilish talabi. Chunki Payg'ambar alayhissalomdan shunday hadisi sharif bor: "Kimki men aytmagan gapni mening nomimdan aytsa, o'ziga do'zaxdan joy tayyorlayversin".

2. Hadisda bayon qilingan fikrni to'rt misraga sig'dirish zarurati.

3. Arab tilining o'ziga xos xususiyatlari.

Xulosa

Muhayyir "Arba'in"i yuzasidan olib borilgan izlanishlarimiz natijasida quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi:

1. Arba'innavislik an'anasi hijriy ikkinchi asrdan boshlangan bo'lib, bu an'ana umumsharq – umummusulmon xarakteriga egadir;

2. Keyingi asrlardagi arab, fors va turkiy tilli ijodkorlar bu an'anaga birmuncha erkin yondashib, o'z arba'inlarini nazmda ta'lif eta boshlaganlar;

3. Ba'zi ijodkorlar boshqa tilda nazmga solingan "Qirq hadis"ni tabarruk bilib o'z ona tillariga she'riy tarjima qilganlar. Alisher Navoiyning Jomiy "Arba'in"ini, Muhayyirning esa Muhammad Puroniy "Arba'in"ini forsiydan turkiyga o'g'irganlari buning dalilidir. Bu narsa keyingi mutarjimning arab tilini yaxshi bilmaganligi bilan emas, balki salaf shoirga bo'lgan hurmatning ifodasi sifatida izohlanishi lozim;

4. Muhayyirga zamondosh shoirlarning birortasi "Arba'in" ta'lif etgani bizga ma'lum emas. Uning Alisher Navoiyga ergashib "Arba'in" tuzgani ijodidagi o'ziga xos fazilat sifatida qayd qilinishi kerak;

5. Sharq adabiyotida arba'inchilik mavzusini kengroq aspektda va chuqurroq o'rganish ilmda yangi natijalar berishi mumkin.

Adabiyotlar

- Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. 1996. *Ҳадис. IV жилдлик. IV жилд*. Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти.
- Ардам, Ҳасан Ҳусну. 1994. *Илоҳий ҳадислар*. Тошкент: Чўлпон.
- Баранов, Х. К. 1984. *Арабско – русский словарь*. Москва: Русский язык.
- Бертельс, Е. Э. 1965. *Суфизм ва суфийская литература*. Москва: Наука.
- Боқирғоний, Сулаймон. 1991. *Боқирғон китоби*. И. Ҳаққул, С. Рафъиддин сўзбошиси. Тошкент: Ёзувчи.

- Emre, Mehmed. 1344. *Kirk mevzuda kirk hadis*. Istanbul.
Evliyalar ansiklopediasi 1. 1992. Istanbul.
- Ҳақимов, М. 1983. *Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи*. Тошкент: Фан.
- Жумаева, С. Қ. 2006. *Ўзбек мумтоз адабиётида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини*. Фил. фан. номз... дисс. Тошкент.
- Жўраев, М. 1991. *Сеҳрли рақамлар сири*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Муҳаййир. *Девон*. ЎзФАШИ Қўлёзма асарлар фонди. Инв. № 7493.
- Навоий, Алишер. 1991. *Арбаъин ҳадис. Қирқ ҳадис шарҳи*. Тошкент: Ёзувчи.
- Навоий, Алишер. 2000. МАТ. 20 томлик. 16-том. Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 2001. МАТ. 20 томлик. 17-том. Тошкент: Фан.
- Оллоёр, Сўфи. 1991. *Сабот ул-оҷизин*. Тошкент: Меҳнат.
- Қуръони Карим. 1992. *Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи А. Мансур*. Тошкент: Чўлпон.
- Собрание Восточных рукописей Академии Наук Узбекской ССР*. VI том. 1957. Ташкент: Наука.
- Яссавий, Аҳмад. 1990. *Ҳикматлар*. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
- ЎзФАШИ қўлёзма асарлар фонди. Инв. №682.

Akrom Dehkanov

(Tashkent, Uzbekiston)

dehqonov@navoiy-uni.uz

The Tradition of the Writing Arbain and the Literary Profession of Muhayyir

Abstract

In an article it was informed that second half of xix, in early xx century, a talented writer, whose name is Muhayyir, created and lived in Kokand. A translator whose name is Muhammadqul Muhammadrasul, was his father. Muhayyir analized "Arba'in", which consisted of 40 "hadis" subject matter. Thus, it was given account that he also worked on moslem east literature.

He explained 40 numbers' peculiarity that was concerned with "Arba'in" as well as historical events of humanity: Akhmad Yassavi, Alisher Navoi, Sufi Allayor works. It was taken samples from authors' work so as to prove exactly above mentioned idea. The main source of outlined above

events go back to “the Koran” as well as “hadisi sharif”.

It was demonstrated in an article that he had a translator capacity and he could create poetic writings, preserving their contents. Thoughts were contrasted with the help of well grounded instances. Likewise, “hadids”s, which were contrasted with “Arba'in” by Alisher Navoi. Although both Alisher Navoi and Muhayyir are so valuable and important for Uzbek literature, it was illustrated that both of their writings were distinguished from each other according to meaning. It was restated that writings (hadis) were not only the reputation of “Arba'in” by Alisher Navoi, but also completely new, independent works.

It was taken as an example from “Arba'in” which is in Persian language by Shayx ibn Nuruddin Muhammad Puroniyy, was contrasted. It was investigated that to what extent the writer could express the meaning of Persian text in a Turkish language. It was come to deduction, relating on scientific as well as well grounded conclusions.

Key words: *translation, “Arba'in”, hadis, tradition, peculiarity, nazm, comparative analysis.*

About the author: *Akrom Dehkanov* – Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Tashkent state University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Recommended citation: Dehkanov, Akrom. 2020. “The Tradition of the Writing Arbain and the Literary Profession of Muhayyir”. *Golden scripts* 2: 15—32.

References

- Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. 1996. *Hadis. IV jildlik. IV jild*. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati.
- Ardam, Hasan Husnu. 1994. *Ilohiy hadislar*. Toshkent: Cho'lpon.
- Baranov, X. K. 1984. *Arabsko – russkiy slovar*. Moskva: Russkiy yazik.
- Bertels, Y. E. 1965. *Sufizm va sufiyskaya literatura*. Moskva: Nauka.
- Boqirg'oniy, Sulaymon. 1991. *Boqirg'on kitobi*. I. Haqqul, S. Raf'iddin so'zboshisi. Toshkent: Yozuvchi.
- Emre, Mehmed. 1344. *Kirk mevzuda kirk hadis*. Istanbul.
- Evliyalar ansiklopediasi* 1. 1992. Istanbul.
- Hakimov, M. 1983. *Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi*. Toshkent: Fan.
- Jumaeva, S. Q. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyotida raqam ramzlari va ularning ma'no talqini*. Fil. fan. nomz... diss. Toshkent.
- Jo'raev, M. 1991. *Sehrli raqamlar siri*. Toshkent: O'zbekiston.
- Muhayyir. *Devon*. O'zFASHI Qo'lyozma asarlar fondi. Inv. № 7493.
- Navoiy, Alisher. 1991. *Arba'in hadis. Qirq hadis sharhi*. Toshkent: Yozuvchi.
- Navoiy, Alisher. 2000. MAT. 20 tomlik. 16-tom. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 2001. MAT. 20 tomlik. 17-tom. Toshkent: Fan.
- Olloyor, So'fi. 1991. *Sabot ul-ojizin*. Toshkent: Mehnat.
- Qur'oni Karim*. 1992. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi A.

Mansur. Toshkent: Cho'lpon.

Sobranie Vostochnix rukopisey Akademii Nauk Uzbekskoy SSR. VI tom. 1957.

Tashkent: Nauka.

Yassaviy, Ahmad. 1990. *Hikmatlar*. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.

O'zFAShI qo'lyozma asarlar fondi. Inv. №682.

Q. Omonov*(Toshkent, O'zbekiston)*
mmi.prorektor@tsuos.uz

Turkiy tillar tarixida rasmiy uslubning takomil bosqichlari va davrlashtirish masalalari

Abstrakt

Turkiy tillar qadimiy tarixga ega. U bugungi holga kelgunga qadar turli taraqqiyot bosqichlari, davrlarini bosib o'tgan. Ana shu jarayonda ichki va tashqi omillarga ko'ra o'zgarishlarga uchragan. Bu holni turkiy tillar rasmiy uslubining takomil bosqichlari misolida kuzatish mumkin. Ushbu maqolada turkiy tillarga xos hujjatchilik, rasmiy yozma uslub tarixi, uning rivojlanish jarayoni va mazkur jarayonni davrlarga bo'lib o'rganish masalasi tahlil etilgan.

Muallif maqolada ko'k turk bitiglari tilini barcha uslublarning asosi sifatida qarash zarur degan fikrni ilgari suradi hamda o'z fikrlarini turkiy tilning qadimgi davriga oid namunalar bilan asoslashga harakat qiladi. Turkiy hujjatchilik tarixi, rasmiy uslubning yuzaga kelishi va takomillashuvi bir qancha davrlarni o'z ichiga oladi. Muallif uni quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi: "Eng qadimgi davrlar hujjatchiligi", "Turk xoqonliklari davri hujjatchiligi", "IX–XIII asrlar hujjatchiligi", "XIII–XVI asrlar hujjatchiligi". Maqolada ushbu davrlar yana ichki bosqichlardan iborat ekani ham qayd etilgan. Muallif turkiy rasmiy uslubning takomil bosqichlari tahlili turkiy saltanatlarning ish yuritish amaliyotida rasmiy matn tuzish an'anasi tugal shakllanganligi, hujjat bitishning yagona andozasi amal qilganligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *"turkiy tillar, ko'k turk, rasmiy uslub, bosqich, davrlashtirish, turkiy hujjatlar, turk xoqonligi."*

Muallif haqida: *Qudrat Omonov* – filologiya fanlari doktori, professor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Omonov, Qudrat. 2020. “Turkiy tillar tarixida rasmiy uslubning takomil bosqichlari va davrlashtirish masalalari”. *Oltin bitiglar* 2: 33—48.

Kirish

Muayyan bir til tarixining turli davrlarida til vositalarining boshqasi bilan almashinishi (oʻrnini egallashi), uning qurilishi va meʼyorida sifat jihatdan oʻzgarishlar sodir boʻlgani uchun ham tilning taraqqiyot bosqichlarini davrlarga ajratib oʻrganamiz.

Tildagi biror-bir hodisaning boshqasi bilan oʻrin almashinuvi tilning rivojlanish jarayoni sifatida undagi mavjud vosita boshqa kategoriya tomonidan siqib chiqariladi va u bilan aloqasini yoʻqotib, yangi til birligi, yangi kategoriya sifatida namoyon boʻladi. Bu qonuniyat tilshunoslikda «tabiiy transformatsiya» (oʻzgarish, bir holatdan boshqasiga oʻtish) atamasi bilan yuritiladi [Koduxov 1974, 187]. Transformatsiya – tilning tarixiy rivojlanish jarayoni sifatida tildagi ayrim hodisalarni yoki butun til strukturasining sifat oʻzgarishidir. Buning yorqin misolini qadimgi turkiy adabiy tildagi son kategoriyasining yasalishi bilan bogʻliq hodisada kuzatamiz. Unda ikki xonali sonlarni yasash uchun boshlab birlik aytilib, keyin oʻnlik aytilgan. Eʼtibor bering: *iki yigirmi* «oʻn ikki» maʼnosida qoʻllanilgan. Buning bilan «yigirmaga qarab ikki soni qoʻshildi», degan maʼno anglashiladi. Qadimgi turkiy adabiy tilda ikki xonali sonlarni yasashda ayni tartib yetakchi boʻlgan: *yiti yigirmi* – oʻn yetti, *iki otuz* – yigirma ikki. Hozirgi tilimizda mavjud tartibga yaqin tartib ham boʻlgan. Faqat unda oʻnlikdan soʻng *artuqi* soʻzi qoʻshilgan: *qirq artuqi toʻrt* – 44 [Sonning yasalishi toʻgʻrisida qarang: Sodiqov 2006, 156–158]. Son yasalishining ushbu turi oʻtmishda u qadar faol boʻlmagan. Turkiy tilning keyingi yuksalish davri – eski turkiy adabiy til deb yuritiladigan bosqichda sonning yasalishi sifat jihatdan oʻzgarib, hozirgi koʻrinishiga kelgan. Shuning uchun, til tarixida roʻy bergan transformatsiyani oʻrganish til tarixidagi muayyan xronologik bosqichni ajratish va til tarixini davrlashtirishda qoʻl keladi.

Muhimi shundaki, yozma yodgorliklar tahlili til tarixida kechgan transformatsiya masalasida turkiy tillar nisbatan konservativ tabiatga ega boʻlganini koʻrsatmoqda. Boisi, tilimiz oʻz tizimidagi hodisalarni mutlaqo yangi holatga oʻzgartib yubormaydi. Turkiy til tarixini kuzatsak, til strukturasining oʻzgarishida unchalik yiroqlashishni kuzatmaymiz. Undagi hodisalar yaxlit, bir butun

ko'inishda namoyon bo'ladi. Tildagi ana shu yaxlitlik davom etib kelayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, bu holat gap qurilishida yaqqol ko'rinadi. Turkiy xalqlarning eng ko'hna yodgorliklari ko'k turk matnlarining gap qurilishi va gap bo'laklarining joylashuvi hozirgi tilimizga teng keladi. Bunga bir misol. Qadimgi bitiglarda: *Üzä kök täñri, asra yağız yär qilintuqda ikin ara kisi oğlı qilinmis. Kisi oğlinta üzä äčüm apam Bumîn qağan, Istami qağan olurmiş.* Bu jumla hozirgi tilimizga shunday o'giriladi: «Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda ikkisinin orasida inson bolasi yaratilgan. Inson bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon, Istami xoqon bo'lib o'tirgan». Yoki Kul tigin va Bilga xoqon bitiglariga kiritilgan yorliqlar boshlanmasida keluvchi unvon va murojaat qismlarini tahlil etsak: *Täñri-täg täñri yaratmış türk Bilgä qağan sabīm. Sabīmīn tükāti äsidgil: ulayu ini yägünüm, oğlanīm, biriki, oğuşum, bodunum, biryä šadapīt bäglär, yïrya tarqat, buyruq bäglär, otuz ... toquz oğuz bägläri, bodunī, bu sabīmīn ädgüti äsid, qatīğdī tīnlä. – «Ko'kday (ulug'vor) Tangri yaratgan turk Bilga xoqon so'zim. So'zimni tugal eshitgil ketimdagi ini, jiyanim, o'g'lonim, ittifoq, urug'im, xalqim, o'ngdagi shadapit beklar, chapdagi tarxonlar, buyruq beklar, o'ttiz ... to'qqiz o'g'uz beklari, xalqi, bu so'zlarimni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla»* [Sodiqov 2004,76–79]. Har ikki matnning qurilishi va gap bo'laklarining joylashuv tartibi bir xil. Orada bir ming to'rt yuz yil o'tmagandek. Asosiy farq ayrim leksik birliklar va morfologik ko'rsatkichlarning o'zgarganida. Buning singari jarayonni so'z birikmasi qurshovida yoki qo'shma fe'llar bilan bog'liq leksik birliklarni o'zlashtirishda ham ko'rish mumkin. Jumladan, fe'l bilan bog'liq o'zlashmalar doimo turkiy tildagi biror yordamchi fe'l ko'magiga tayanib ish ko'radi. Ular yolg'iz holda o'z ma'nosini va vazifasini bajara olmaydi. Masalan, *nazar tashladi* fe'lini tahlil etsak. *Nazar* so'zi *tashladi* fe'lisiz biror harakatni amalga oshira olmaydi. U o'z harakatani ifodalash uchun tildagi biror yordamchi fe'lni ko'makka chaqiradi. Buning asl o'zbekchasi *qaradidir*. Rasmiy matnlarda keluvchi *farmon berdi* fe'li *bermak* yoki *qilmoq* yordamchi fe'lining ko'magi bilangina nutqda *buyurdi* ma'nosini yuzaga keltiradi. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan dalillar turkiy tillar tabiatida o'z-o'zini muhofaza etish, o'zligini saqlab qolish qobiliyati, himoya immuniteti yaxshi shakllanganini ko'rsatadi. Boshqa qo'shni tillar tarixiga nazar tashlasak, buning singari holatni ko'pda ko'rmaymiz. Chunonchi, eroniy tillarga e'tibor qaratsak, ko'k turk obidalari bilan bir davrda bitilgan sug'dcha matnlar tili hozirgi forschadan tamomila ajralib

turadi.

Asosiy qism

Turkiy xalqlar tarixida kechgan siyosiy, ijtimoiy, etnik, diniy, mafkuraviy, madaniy jarayonlarning ta'sirini ham inkor etib bo'lmaydi. Biroq turkiy xalqlar va ularning tili hamisha o'zligini saqlab, bu kabi jarayonlardan sog'-omon chiqqan. Shu bois, turkiy tillar tarixining taraqqiyot bosqichlarini davrlarga ajratganda ana shu omillarni e'tiborda tutgan yaxshi.

Shunga tayanib, ko'k turk bitiglari tilini barcha uslublarning asosi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Ko'k turk matnlarining tili o'sha kezda amal qilgan turkiy tilgagina emas, tilimizning butun bir tarixiga, uning ildizlariga yo'l ochadi.

Turkiy hujjatchilik tarixi, rasmiy uslubning yuzaga kelishi va takomillashuvi bir qancha davrlarni o'z ichiga oladi. Uning eng qadimgi davrlardan XVI asrlarga qadar bo'lgan takomil yo'lini quyidagi bosqichlarga ajratib o'rganish mumkin:

I. Eng qadimgi davrlar hujjatchiligi (meloddan avvalgi III asrdan, melodiy VI asrgacha).

II. Turk xoqonliklari davri hujjatchiligi (melodiy VI–IX asrlar).

Hujjatchilikning ushbu bosqichi o'z ichida ikki davrga bo'linadi:

1) *Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliklari davri hujjatchiligi* (VI–VIII asrlar);

2) *Uyg'ur xoqonligi davri hujjatchiligi* (VIII–IX asrlar).

III. IX–XIII asrlar hujjatchiligi. Turkiy hujjatchilikning bu bosqichi ham ikki davrga bo'linadi:

1) *Qoraxoniylar davri hujjatchiligi* (X asrning ikkinchi yarmidan XII asr oxirigacha);

2) *Qo'chu va Gansu davlatlarida amal qilgan hujjatchilik* (IX–XIII yuzyilliklar).

IV. XIII–XVI asrlar hujjatchiligi. Turkiy hujjatchilikning ushbu bosqichi quyidagi davrlarga bo'linadi:

1) *Chig'atoy ulusida amal qilgan hujjatchilik* (XIII–XIV asrlar);

2) *Oltin O'rda va undan keyingi xonliklar hujjatchiligi* (XIV asrning birinchi yarmidan XVI yuzyillikning ikkinchi yarmiga qadar);

3) *Temuriylar davri hujjatchiligi* (XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI yuzyillikka qadar);

4) *Usmoniylar saltanatining dastlabki davri hujjatchiligi* (XV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrga qadar).

Eng qadimgi davrlar hujjatchiligi

Qadimgi turkiy saltanatlaridan biri Tuman tangriqut boshchiligida eramizdan burungi 200 yillarda qurildi. Uning o'g'li Maday tangriqut davrida saltanat chegarasi Yapon dengizi sohillaridan Kaspiy dengizi qirg'oqlariga qadar uzaydi. Ular harbiy jangovorlik qudratidan tashqari, davlat boshqaruvida ham salohiyatga ega edilar. Ularda devon mahkama ishlari, hujjatchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Turkiy tillar tarixini tadqiq etgan mutaxassislar tilimiz taraqqiyoti rivojining bosqichlaridan birini turkiy tillar shakllanishining "xun davri" (eradan burungi III asrdan, melodi V asrgacha) tarzda guruhga ajratadi [Baskakov 1969, 152]. Mazkur bosqich tili xususida gap ketganda, xitoy manbalarida yetib kelgan, ularning bir qator so'zlari, kishi va unvon nomlari (xitoy transkripsiyasida) qadimgi turkiy xalqlarning o'sha kezlardagi tiliga doir aniq ma'lumot bermaydi, deb mulohaza yuritiladi. Farang sinologi P. Pelo xitoyliklar tomonidan tuzilgan, eramizning I–IV asrlariga tegishli lug'atlarda eng qadimgi turkiy xalqlarning tilidagi so'zlar izohlanganini ta'kidlaydi. Biroq bu lug'atlar shu choqqa qadar chop etilgan emas. Ular chop etilsa, turkiy tillardagi eng qadimgi manba sifatida o'rganish imkonini yaratardi. Shu bois, bu bosqichdagi turkiy tilning tabiati haqidagi masala hamon ochiq qolmoqda [Baskakov 1969, 153].

Kunimizga qadar qadimgi davrlarda bitilgan biror bir yozma hujjat yetib kelgan emas. Biroq xitoy yilnomalarida keltirilgan turkiy davlatlardan xitoylarga yo'llagan diplomatik maktublaridagi ayrim hujjatlar nomi, formulalar, so'z va unvon nomlariga tayanib, o'sha davrdagi rasmiy uslub asoslari to'g'risida ayrim mulohazalarni bildirishimiz mumkin. Chunonchi, *yarliq* (ko'k turk xatidagi yozilishi: **𐰽𐰺𐰍**) so'zi boshlab, tangriqutlarining¹ devonxonasida "xoqonning xati, buyrug'i" anglamida ishlatilgan. Keyinchalik, bu atamaning ishlatilish doirasi asrdan-asrga, saltanatdan-saltanatga kengayib borib, o'rta asrlarda bu atama orqali hukmdorlarga tegishli barcha

1 Qadimgi turkiy davlatlarda o'z imperatorlarini "tangriqut" (*tängri qut*) unvoni bilan atagan. Keyingi saltanatlarda ham o'z xoqonlarini shuning singari unvon bilan atash rusum bo'lgan. IX asrda asos solingan idiqut davlatida hukmdorlar "idiqut" (idi>izi>iyi>egä "tangri" ma'nosini tashiydi) sifati bilan atalgan. Ikkala o'rinda ham yurt egalarining unvoniga qo'shilib kelayotgan "qut" so'zi "baxt, iqbol" anglamidan boshqa bir ma'no tashimoqda. Bizningcha, "qut" siyosiy-huquqiy atama sifatida "hukmdorning kuch-qudrati, salohiyati, davlat boshqaruvi, siyosiy hokimiyat" ma'nolarida kelmoqda. "Qut" so'zining siyosiy-huquqiy atama sifatidagi ma'nolari uchun qarang: [Omonov 2010, 3].

rasmiy matnlar tushunilgan.

Shuningdek, xoqonlar yorliqlari boshlanmasi unvonining ajralmas komponenti tarzida keluvchi *sözüm* ni qadimgi turkiy xalqlar ish yuritish amaliyotida “buyruq, farmon” ma’nosida ishlatgan. Ularning hujjatlarida *sözüm* leksimasi o’rnida *sabīm* (𐰽𐰺𐰍) qo’llanilgan. A.Bernshtamning yozishiga qaraganda, qadimgi xitoy yilnomalarida meloddan burungi yuzyilliklarda qadimgi turkiy davlatlardan borgan rasmiy matnlar, xoqonlar yo’llagan yorliqlarning unvoni Kul tigin va Bilga xoqon bitiglariga kiritilgan yorliqlar boshlanmasida keluvchi unvon singari edi [Bernshtam 1940,69–70]. Manbalar eng qadimgi hujjatlar tili ko’k turk bitiglaridan ko’pda farqlanmaganini ko’rsatmoqda.

Turk xoqonliklari davri hujjatchiligi

Bu davr turkiy rasmiy uslub tarixida ikkinchi bosqich sifatida o’ziga xos qirralari va taraqqiyot qiyofasiga ega. U o’z doirasiga VI–IX yuzyilliklarni qamragan. Mazkur bosqich hujjatchiligini bir–birining uzviy davomida turuvchi ikki bosqichga ajratish mumkin:

1) *Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliklari davri hujjatchiligi* (VI–VIII asrlar);

2) *Uyg’ur xoqonligi davri hujjatchiligi* (VIII–IX asrlar).

Turkiy ulusning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuksalish ro’y berib, buyuk saltanatlar qurgan, madaniy hayotda ulkan yutuqlarga erishgan turk xoqonliklari davri turkiy rasmiy uslub tarixida alohida o’ringa ega. Shu o’rinda, turk xoqonliklari davri hujjatlari uslubining o’ziga xos qirralari to’g’risida qisqacha izoh berib o’tish maqsadga muvofiqdir.

Ko’k turk xoqonligi 552 yili yuzaga keldi. Uning quruvchisi Bumin xoqondir. Turkiy xalqlar *türk* otini ham o’sha kezlarda olgan. Turk xoqonliklari davrining rasmiy yozmalari uslubi eng qadimgi turkiy davlatlar an’anasini saqlagan. Ular o’rtasiga chegara qo’yib bo’lmaydi. Biroq, turk xoqonliklari davridagi rasmiy uslub eng qadimgi davrlarning uslubini eski ko’rinishda takrorlamaydi ham. Bu davr rasmiy uslubi o’zigacha o’tgan qondoshlari yaratgan uslubning taraqqiyot cho’qqisiga erishgan ko’rinishidir. Uning yorqin namunalarini Bilga xoqon va Kul tigin bitigtoshlari tarkibiga kiritilgan yorliqlarda va ko’k turk xatida bitilgan ayrim vasiqalarda ko’rish mumkin. Ushbu davrdan qolgan rasmiy matnlar tahlili bu chog’lar hujjatchiligimiz uslub jihatdan anchayin yuksalganini ko’rsatmoqda. Hukmdorlar yorliqlarining kirish qismidan o’rin olgan unvon va murojaat qismlari ana shu davrda yanada takomil topgan, deyishga

eslatadi.

Bulardan boshqa hozirgi rasmiy yozmalar ichida alohida tur ko'rinish kasb etuvchi "tarjimai hol (avtobiografiya, o'z kechmishi)" va "tavsifnoma (xarakteristika)" janrining ilkin namunalari ham ko'k turk davrida yuzaga kelgan, deyishga asos bor. Masalan, To'nyuquq bitigida kunimizda yoziladigan tarjimayi holning kirishida keluvchi qoliqli boshlanmaning shaklini uchratamiz: **𐰽𐰺𐰍𐰏𐰤 𐰇𐰏𐰤𐰠𐰪𐰏𐰤 𐰇𐰏𐰤𐰠𐰪𐰏𐰤 𐰇𐰏𐰤𐰠𐰪𐰏𐰤 𐰇𐰏𐰤𐰠𐰪𐰏𐰤 𐰇𐰏𐰤𐰠𐰪𐰏𐰤** *Bilgä Toñuquq-bän. Özüm Tabğaç älinä qilintim. Türk bodun Tabğaçqa körür ärti.* – "Bilga To'nyuquqman. O'zim Tabg'ach davlatida tarbiya topdim. Turk xalqi Tabg'achga qaram edi" [Is'hoqov, Sodiqov, Omonov 2009, 59, 70].

Hujjatchilik taraqqiyotida uyg'ur xoqonligi davri rasmiy matnlari uslubi turk xoqonliklari hujjatlari uslubini davom ettirish barobarida ayrim o'ziga xos jihatlariga ega. Xususan, turk xoqonliklari davrida «bitilgan narsa» ma'nosida ishlatilgan *bitig* so'zi uyg'ur xoqonligi davriga kelib *belgü* leksimasi bilan birga juft so'z hosil qilib "bitilgan narsa" ma'nosidan tashqari "nizom" anglamida ham qo'llanilgan. Masalan, Mo'yuncho'r bitigida: *bñ yälliq tñmñn kñnlik bitigimin belgñmin anta yasñ taşqa yaratitñm.* – "Ming yillik tuman kunlik bitigim belgim(davlat nizomi)ni u yerda yassi toshga yozdirdim" jumlasida bor. Bundan ko'rinadiki, *bitig* leksemasi *belgü* so'zi qurshovida uyg'ur xoqonligi davrida ma'no kengayishiga uchragan.

Tahlillardan bu davr turkiy rasmiy uslub taraqqiy etgan ikkinchi bosqich ekani ko'rinadi.

IX-XIII asrlar hujjatchiligi

Ushbu davr o'zining taraqqiyoti davomida ikki bosqichni qamraydi: 1) X asrning ikkinchi yarmidan boshlab XII asrning so'ngiga qadar davom etgan *Qoraxoniylar davri rasmiy matnlari bosqichi*. 2) Qoraxoniylar hujjatchiligiga yondosh qadimgi davlatlari – *Qo'chu va Gansu davlati hujjatchiligi* amalda bo'lgan (IX-XIII yuzyilliklar).

X asrning ikkinchi yarmidan hokimiyatni idora qilish qoraxoniylar sulolasidan bo'lgan hukmdorlar qo'liga o'tishi bilan ma'lum bir muddat so'nib qolgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda yana jonlanish, rivojlanish boshlandi. Qoraxoniylarning hokimiyatini mustahkamlash, jamiyatdagi turli siyosiy institutlarni tiklash, davlat siyosiy-ijtimoiy tuzumining usullarini belgilash, turli ijtimoiy tabaqalarning vazifasini tayinlash, ular o'rtasidagi muomala va munosabat normalarini, idora usuli nizom-qoidalarini ko'rsatib

berish vazifasi qo'yildi. Davr va jamiyat o'z ko'zqarashlarini o'zgartib bordi, bu rasmiy matnlarning mazmuni hamda tuzilishiga ta'sir etmay qolmadi. XI asrdan turkiy hujjatchilikning yangi qiyofasi ko'zga tashlana bordi.

Bu davr qonunchilik, hujjatchilik va rasmiy uslub rivojida ham yangi bosqich sanaladi. Bu kezda hokimiyatda, mafkurada, madaniyatda, ma'naviyatda, dunyoqarashda, din yo'nalishida yangi o'zan ochildi. Anashularning bari tilda aksetdi hamda til taraqqiyotida yangi bosqich fanda shartli ravishda "eski turkiy til bosqichi" nomi bilan ataluvchi, qoraxoniylar davri turkchasi boshlandi. Qadimgi turkiy adabiy til o'z o'rnini eski turkiy adabiy tilga bo'shatib berdi.

O'zidan burungi davrdan yuksak taraqqiy topgan matnchilik an'anasini singdirib olgan bu davr yangi-yangi hujjat turlarini yuzaga keltirdi hamda turkiy hujjatchilik tizimini tugallik sari yetakladi. Bizga qadar saqlangan rasmiy yozmalarining katta qismi ayni davrdan yetib kelgan. Rasmiy ish yozmalariga xos so'z va so'z birikmalari (kanselyarizm) rasmiy tilning me'yori sifatida mustahkam o'rnashdi.

Chunonchi, qoraxoniylar davrining vasiqlarida *bitig* so'zi "hujjat, vasiqa, akt" ma'nolarini tashigan. *Bitig* ni keng ma'noda hujjatlar otini yasashda qo'llash qoraxoniylar kanselyariyasining mahsulidir.

Bu davrda hujjatchilik ishining yo'lga qo'yiluvini davlat boshqaruvida qo'l kelishini Yusuf Xos Hojib quyidagicha ta'riflaydi:

Eđi keđ keräklig turur bu bitig,

Bitig birlä beglä etär el etig -

Bu hujjat juda ham keraklidir,

Beklar hujjat bilan elni idora etadilar [Sodiqov 2006, 85].

Qoraxoniylar saltanatining devon-mahkama idoralarini *bitigchi* boshqargan. Bu kezlarda bitigchi jamiyatda o'ziga xos mavqega ega ekanini "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan dalillar ham tasdiqlaydi.

Ushbu bosqich davlat boshqaruvi va qonunchiligi bilan bog'liq bo'lgan uslub taraqqiyotini, aytish mumkinki, uning eng yuqori cho'qqisini "Qutadg'u bilig" asarida ko'ramiz.

Qadimgi – Qo'chu va Gansu davlatlari hujjatchiligi ham o'ziga xos bo'lib, IX–XIII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu kezlarda yashagan qavmdoshlarimiz o'zaro barcha huquqiy munosabatlarni hujjatlashtirishga alohida urg'u berishgan. Bu ularning huquqiy ongi anchayin yuksak ekanini dalillaydi. Shuning uchun bu kezda fuqarolarning xususiy-iqtisodiy munosabatlari qayd etilgan rasmiy matnlarning turi nihoyatda ko'p. Bugungi kunda kichik ko'ringan ayrim munosabatlar ham hujjatlashtirib qo'yilgan.

XIII–XVI asrlar hujjatchiligi

Bu davr hujjatchiligi tarixiy taraqqiyoti davomida to'rt bosqichni o'zida qamraydi. Bular:

- 1) *Chig'atoy ulusida amal qilgan hujjatchilik* (XIII–XIV asrlar);
- 2) *Oltin O'rda va undan keyingi xonliklar hujjatchiligi* (XIV asrning birinchi yarmidan XVI yuzyillikning ikkinchi yarmiga qadar);
- 3) *Temuriylar davri hujjatchiligi* (XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI yuzyillikka qadar);
- 4) *Usmoniylar saltanatining dastlabki davri hujjatchiligi* (XV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrga qadar).

Chingiziy hukmdorlarning O'rta Osiyodagi davlatchiligi tarixnavislikda Chig'atoy ulusi nomi bilan yuritiladi. Bu davr hujjatchiligining xos xususiyatlaridan biri ular turkiy til va turkiy rasmiy uslubni devon-mahkama amaliyotiga keng yoyganida ko'rinadi.

Chig'atoy xonlari davrida davlatning bosh qonunlar majmuasi sifatida *yasa* atamasi muomalaga kiritildi. Shuningdek, bu kezlarda yorliqning qo'llanish doirasi kengaydi. Elchi va choparlarning xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan *bayza* = *payza* deb ataluvchi yangi hujjat turi ishlab chiqildi. Hukmdorlar devonida alohida fuqarolarning shikoyatlari bilan ishlovchi *yazğuçı* lavozimi joriy qilingan. Bu to'g'rida arab sayyohi Ibn Battuta o'z yozmalarida yozib qoldirgan. U Xorazm amiri devonxonasining ishlash mexanizmini quyidagicha ta'riflaydi: "Bu amirning odati shunday ekanki, qozi har kuni uning qabulxonasiga kelib maxsus joyga o'tirar, u bilan birga faqihlar, xattotlar kelishar ekan. Qozining to'g'risida bosh amirlardan biri va sakkiz nafar katta turk amirlari va *yazğuçı* deb ataladigan shayxlar joylashadi. Odamlar shu mansabdorlarga o'z shikoyatlarini aytishadi. Agar ish shariatga oid bo'lsa – qozi, boshqa ishlarga oidlarini esa mana shu amirlar hal qilib beradi. Qozi bilan amirlarning qarorlari aniq va adolatli bo'ladi. Chunki ularni ma'lum bir tomonning tarafini olishda ayiblasholmaydi, bular pora ham olmaydi" [Ibrohimov 1993, 60]. Matndagi *yazğuçı* asl arabcha matnda ayni shaklda kelgan. Bu uning mansab oti sifatida kelayotganini ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotda: "Boshqa ishlarga oidlari" deganda fuqarolar o'rtasidagi oldi-sotdi, ijara, meros olish singari notarial ishlar nazarda tutilmoqda.

Oltin O'rda va undan keyingi – Qrim, Qozon xonliklarida ish yurtish amaliyoti o'zidan avvalgi davrlar hujjatchiligi uslubini davom ettirgani bilan turkiy rasmiy uslub tarixida ajralib turadi.

Temuriylar davriga tegishli rasmiy matnlar ustida olib borilayotgan lingvistik tadqiqotlar temuriylar davri hujjatchiligini rasmiy uslub taraqqiyotidagi alohida bosqich sifatida o'rganish kerakligini ko'rsatmoqda [Omonov 2007, 117–120]. Ushbu davr ish yuritish amaliyotida rasmiy matn tuzish an'anasi tugal bir holda shakllangan hamda temuriylar qo'l ostidagi barcha o'lkalarda hujjat bitishning yagona andozasi amal qilgan.

Ushbu davr ish yuritish amaliyotida qo'llangan ayrim hujjat turlari va ularni anglatuvchi nomlar qadimgi qo'llanish qurshovidan boshqa ma'noda ishlatilgani oydinlashmoqda. Ushbu mulohazalar dalilini birgina *nišan* va *tüzük* atamalarining tahlili misolida ham ko'rish mumkin.

Temuriylar zamoniga kelib devon-mahkama idoralarida *yarliğ* atamasi bilan yonma-yon unga teng keluvchi hujjatning huquqiy nomi sifatida qadimgi rasmiy yozmalar uslubida “belgi, muhr” ma'nosida ishlatilgan *nišan* birligi iste'molga kiritildi. Buni temuriylar davridan qolgan hujjatlar tasdiqlaydi. Xususan, Umarshayx mirzoning 1469 yildagi vasiqasida u quyidagi jumlada kelgan: *yilda yangi nišan tilämäyin bu nišan bilä yil sayu heč türlüg saliq salmayin daftarlarğa surusun*. – “Har yili yangi nishon (yorliq, hujjat) so'ramasdan, ushbu nishon (hujjat) bilan yil bo'yi hech qanday soliq solmay, (krim-chiqim) daftarlarga qayd etilsin” [Omonov 2003, 137–139]. Yoki 1422 yili Hirotda bitilgan Shohruh mirzo devonxonasiga tegishli hujjatda ham buni ko'rish mumkin: *pak nišan bermiş erdik* – “haqiqiy hujjat bergan edik”. Shuningdek, hujjat tersida ham hujjatni uning egasi olgani bitib qo'yilgan qaydda ham «nishon» hujjat nomini aglatib kelgan: *nišanni İsmāyil aldı* – “hujjatni Ismoil oldi».

Endigi o'y-qarashlarimiz *tüzük* atamasi bilan bog'liq.

Hujjatchilik amaliyotida davlatning bosh qomusi anglamida *tüzük* atamasining qo'llanilish davri ham temuriylar davriga borib taqaladi. Buning isbotini buyuk sarkarda va yurt egasining tuzuklaridagi ma'lumotlardan, o'sha zamon tarixchilarining Temur va temuriylar faoliyatiga bag'ishlangan asarlaridan topamiz.

“Temur tuzuklari» asarida *tüzük* atamasining mohiyatini belgilovchi shunday so'zlar bor: “Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida ado etdim” [Temur... 1996, 72–73]. Sulton Temurbek qurgan davlatning boshqaruv tizimini o'rganishda bosh manba o'rnida turuvchi asarda keltirilgan ushbu qaydlar yurt egasining o'z tilidan aytilmoqda. Asarni o'qishda davom etamiz: “Dinu shariat ishlari tuzukini tartibga keltirganimdan keyin, saltanatim korxonasining tuzukini tuzishga

kirishdim” [Temur... 1996, 80]. Asardan olingan ushbu uzundi mazmunidan ham Temurbek saltanat boshqaruvida *törä* va *tüzük* ka asoslangani oydinlashmoqda.

Hokimiyatni idora qilish Temur va temuriylar sulolasidan bo'lgan hukmdorlar qo'liga o'tishi munosabati bilan ma'lum bir davrlarda so'nib qolgan madaniy va ijtimoiy hayotda yana jonlanish, rivojlanish boshlandi. Mahalliy hukmdorlarning hokimiyatini mustahkamlash, qo'lga kiritgan yutuqlarini saqlab qolish, kelajak taraqqiyot uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, davlat siyosiy-ijtimoiy tuzumining usullarini belgilash, turli ijtimoiy tabaqalarning vazifasini tayinlash, davlat boshqaruvining nizom-qoidalarini ko'rsatib berish kun tartibidagi masalaga aylandi.

Ayni masalani hal etish uchun Sohibqiron Temurbek eski turkiy boshqaruv an'analariga sodiq qolgan holda, davlatni idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasmu odatlarini, axloq me'yorlarini o'zida mujassamlashtirgan *nizomnoma*, qomussifatida “Temur tuzuklari» asarini yaratdi. Asar oldiga qo'yilgan talab juda muhim edi. Unda yuzaga kelgan yangiliklar, ularni mustahkamlash, idora qilish usullari, oddiy fuqaro (“el kishi» – Sohibqiron Temurbek ta'biri)dan tortib oliymansab beglar va amirlar fe'l-atvori qanday bo'lishi lozimligi, davlat qurilishi, iqtisod va xo'jalik, ma'rifat va obodonchilik, davlatini mustahkamlash, umuman siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, moddiy-madaniy, axloqiy-tarbiyaviy singari masalalarga o'sha davr talabi nuqtai nazaridan yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, javob berish kerak edi

Sulton Temurbek yangi davr, yangi bosqichning qonunshunosi va mafkurachisi sifatida mana shu masalalarga javob berdi. Bu davr qonunchilik va davlat boshqaruvi tizimida ham yangi bosqich sanaladi. Bu kezda hokimiyatda, mafkurada, madaniyatda, ma'naviyatda, dunyoqarashda yangi o'zan ochildi. Ana shularning bari tuzuklarda aks etdi hamda qonunchilik taraqqiyotida o'tmish turkiy davlatlar qonunchiligidan ulgu olgan, tuzuklarga asoslangan boshqaruv tizimining yangi, o'ziga xos davri boshlandi. Yasaga asoslangan eski qonunchilik o'z o'rnini tuzuklarga bo'shatib berdi.

Chingiziy sulolalar davlat qonunlarini angalatgan *yasa* temuriylar davlatida ham qo'llangan. Biroq bu davrga kelib uning qo'llanuv tegrasi toraygan. Temuriylar zamonida u “jinoyat kodeksi» anglamida ishlatilgan. Buning dalilini ham tuzuklarning o'zidan topamiz: “O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qaerda bo'lmasin, tutib olinsa, yasa bo'yicha jazolansin. Kimki bironing molini zo'rlik bilan tortib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib,

egasiga topshirsin» [Temur... 1996, 94]. Yoki “Amr etdimki, “o’g’ri va qaroqchilarni” “yasa” asosida jazolasinlar” [Temur... 1996, 119]. Faktlar tahlilidan “yasa” u kezlarda jinoiy jazolar kodeksi vazifasini bajarganini ko’rsatmoqda.

Asosiysi, temuriylar davrida yuzaga chiqqan rasmiy uslub qadimgi ko’k turk yozuvli bitiglar, shuningdek, keyingi xoqonlik va davlatlar zamonida amalda bo’lgan turkiy rasmiy uslubning davomida turadi; shakl va tuzilishi, ifoda usullari bilan ularni to’ldiradi, mukammallik pog’onasiga ko’taradi.

Usmoniylar o’z saltanatida ham davlat boshqaruvining dastlabki yillaridan to XVI asrga qadar temuriylar va boshqa turkiy davlatlarda amalda bo’lgan hujjatchilik an’analarini qabul etgan. Saltanat hukmronligining dastlabki yillarida yaratilgan hujjatlarning tili va uslubi eski o’zbek adabiy tili hujjatchiligi an’anasiga tayangan edi.

Umuman, turkiy rasmiy uslub eng qadimgi kezlardan XVI asrdagi ko’rinishiga yetgunga qadar bir qancha lingvistik takomil bosqichlarini o’tgan. Ushbu takomil bosqichlar bir – birini uzviy davomida turishi bilan birga o’ziga xos xususiyatlari bilan ham ajralib turadi.

Umuman, adabiy tilning yuzaga kelishida yozma adabiyot bilan bir qatorda boshqa uslublarning ta’sirini ham kuzatish mumkin. Bu jarayonda, ayniqsa, rasmiy uslubning ta’siri katta. Turmushda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar murakkablashgan sari rasmiy matnlarga ehtiyoj tobora ortib borgan. Rasmiy munosabat – turli qabila-urug’larning xalq sifatida shakllanish bosqichiga qadam qo’yayotganini ko’rsatuvchi asosiy dalildir.

Xulosa

Muayyan bir til tarixining turli davrlarida til vositalarining boshqasi bilan almashinuvi (o’rnini egallashi), uning qurilishi va me’yorida sifat jihatdan o’zgarishlar sodir bo’lgani uchun ham tilning taraqqiyot bosqichlarini davrlarga ajratiladi. Turkiy rasmiy uslubning yuzaga kelishi va uning XVI asrgacha bo’lgan tarixiy taraqqiyotini bir – birini uzviy davomida turuvchi hamda o’ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan to’rt bosqichga ajratish mumkin.

Turkiy rasmiy uslubning tarixiy taraqqiyotida Turk xoqonliklari davri hujjatchiligi va Qoraxoniylar davri hujjatchiligi hamda Temuriylar davri hujjatchiligi alohida ahamiyatga ega.

Turkiy rasmiy uslubning takomil bosqichlari tahlili turkiy

saltanatlarning ish yuritish amaliyotida rasmiy matn tuzish an'anasi tugal bir holda shakllanganligini hamda ular qo'l ostidagi barcha o'lkalarda hujjat bitishning yagona andozasi amal qilganligini ko'rsatdi.

Adabiyotlar

- Абдурахмонов, Ғ., Рустамов, А. 1982. *Қадимги туркий тил*. Тошкент.
- Баскаков, Н.А. 1969. *Введение в изучение тюркских языков*. Москва.
- Бернштам, А. 1940. "Уйгурский юридические документы". *ПИ. Выпуск* № 3. Москва – Ленинград.
- Бичурин, Н.Я. 1950-1953. *Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена*. 3 тома. Москва – Ленинград.
- Гумилев, Л.Н. 2002. *Қадимги турклар*. Тошкент.
- Иброҳимов, Н. 1993. *Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати*. Тошкент.
- Исҳоқов, М., Содиқов, Қ., Омонов, Қ. 2009. *Мангу битиглар*. Тошкент.
- Кодухов, В. 1974. *Общее языкознание*. Москва.
- Омонов, Қ.Ш. 2003. "Умар Шайх Мирзонинг уйғур ёзуви нишони хусусида". *Филология янги юзйилликда: фаннинг тугун ва ечимлари*, 58 – 64. Тошкент.
- Омонов, Қ.Ш. 2007. "Темур ва темурийларнинг эски ўзбек адабий тилидаги хужжатлари". *Темурийлар салтанатида давлатчилик ва ренессанс*, 94 – 102. Тошкент.
- Омонов, Қ.Ш. 2010. "Асар отида келган "қут" сўзи тўғрисида". *"Қутадғу билиг" – буюк маънавий мерос*, 43 – 50. Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2004. *Қўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини*. Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2006. *Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши*. Тошкент.
- Темур тузуклари*. 1996. Тошкент.
- http://ru.wikipedia.org/wiki/Менандр_Протектор

K. Omonov

(Tashkent, Uzbekistan)

mmi.prorektor@tsuos.uz

The stages of the development of the official style and the issues of the periodization in the history of turkic languages

Abstract

Turkic languages have an ancient history. It has passed through many stages of development until today's state. In this process, it met the internal and external changes. This can be seen in the development of the official style of the Turkic languages. This article analyzes the history of Turkish language documentation, the history of the official written style, the process of its development and the study of this process in periods.

In the article, the author argues that the language of Blue Turkic script should be considered as the basis of all styles, and tries to base his ideas on examples from the ancient period of the Turkic language. The history of Turkic documentary, the emergence and development of the official style consist of several periods. The author recommends studying it in the following main stages: "Documentary of the most ancient times", "Documentary of the Turkic Khanate", "Documentary of IX-XIII centuries", "Documentary of XIII-XVI centuries". The article also notes that these periods consist of internal stages. The author emphasizes the tradition of writing official texts was completely formed, and it was a single standard of documentation in the practice of the documentation of the Turkic kingdoms.

Key words: *Turkic languages, Blue Turk, official style, stage, periodization, Turkic documents, Turkic khanate.*

About the author: *Kudrat Omonov – Doctor of Sciences in Phlology, Professor, Tashkent State University of Oriental Studies.*

Recommended citation: Omonov, Kudrat. 2020. "Turkiy tillar tarixida rasmiy uslubning takomil bosqichlari va davrlashtirish masalalari". *Oltin bitiglar* 2: 33—48.

References

- Abdurahmonov, G., Rustamov, A. 1982. *Qadimgi turkiy til*. Toshkent.
- Baskakov, N.A. 1969. *Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazikov*. Moskva.
- Bernshtam, A. 1940. "Uygurskiy yuridicheskie dokumenti". *Pl. Vipusk* № 3. Moskva – Leningrad.
- Bichurin, N.Y. 1950-1953. *Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. 3 toma*. Moskva – Leningrad.
- Gumilev, L.N. 2002. *Qadimgi turklar*. Toshkent.
- Ibrohimov, N. 1993. *Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati*. Toshkent.
- Is'hoqov, M., Sodiqov, Q., Omonov, Q. 2009. *Mangu bitiglar*. Toshkent.
- Koduxov, V. 1974. *Obshee yazikoznanie*. Moskva.
- Omonov, Q.Sh. 2003. "Umar Shayx Mirzoning uyg'ur yozuvli nishoni xususida". *Filologiya yangi yuzyillikda: fanning tugun va yechimlari*, 58 – 64. Toshkent.
- Omonov, Q.Sh. 2007. "Temur va temuriylarning eski o'zbek adabiy tilidagi hujjatlari". *Temuriylar saltanatida davlatchilik va renessans*, 94 – 102. -Toshkent.
- Omonov, Q.Sh. 2010. "Asar otida kelgan «qut» so'zi to'g'risida". *«Qutadg'u bilig» – buyuk ma'naviy meros*, 43 – 50. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2004. *Ko'k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2006. *Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi*. Toshkent.
- Temur tuzuklari*. 1996. Toshkent.
- http://ru.wikipedia.org/wiki/Menandr_Protektor

Ibrohim Darvishov*(Namangan, O'zbekiston)*

ibmofifar@bk.ru

Namangan shevalarida unlilar bilan bog'liq fonetik qonuniyatlar

Abstrakt

Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanishi uchun olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda o'zbek tilshunosligi oldiga qo'yilayotgan vazifalarni bajarishga to'liq imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, tilimizni har tomonlama o'rganish masalasiga bag'ishlangan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayni paytda, o'zbek shevalari xususiyatlarini areal lingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslariga tayanib, tarixiy-qiyosiy va etnolisoniy jihatdan tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Sohaning nomukammal, oddiy tavsifiy va tasviriy jihatlardan iborat, mavhum o'rinlarni yangicha qarashlar asosida, mental nuqtayi nazaridan o'rganish va to'ldirishga zarurat sezilmoqda.

Turkiy tillardagi Mahmud Koshg'ariy boshlab bergan tilni areal-tipologik va areal-lingvistik metodlar orqali o'rganish, har qanday lingvistik nazariya va konsepsiyalarning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan shevalarni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kunda ham muhim masalalardan hisoblanadi. Areal lingvistikaning paydo bo'lishi dialektologiya sohasidagi masala va tushunchalarni yangicha baholashga, yangicha usullarda hal qilishga keng yo'l ochdi. Til sistemasini yaxlit o'rganishda dialekt va sheva areallarini nazariy asoslariga tayanib, tarixiy-qiyosiy va etnolisoniy jihatdan tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanganligi o'zbek tilshunosligi va o'zbek tilshunoslari zimmasiga mas'uliyatli yangi vazifalar yuklaydi.

Maqolada Namangan qipchoq va qarluq lahjalaridagi o'ziga xos xususiyatlar, unlilar tizimining tarixiy genezisi, tarqalishi va amal qilish areali masalalari haqida fikr yuritiladi. Shevadagi fonetik-fonologik lisoniy belgi-xususiyat va qonuniyatlarning voqelanish jarayonlari qiyosiy-tarixiy jihatdan yoritilgan. Unda turkiy tillardagi unlilar bilan bog'liq qipchoq lahjalaridagi singarmonizm va qarluq lahjalaridagi umlaut hodisalari haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *etnik til faktlari, lahja, qipchoq va qarluq lahjasi, sheva, fonetik, leksik va grammatik tarkibning tarixiy o'zgarishi,*

singarmonizm qonuniyati, umlaut, lablanish, fonetik kuchsizlanish, tanglay va lab garmoniyasi, nazalizatsiya.

Muallif haqida: *Ibrohim Darvishov* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Namangan davlat universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Darvishov, Ibrohim. 2020. "Namangan shevalarida unlilar bilan bog'liq fonetik qonuniyatlar". *Oltin bitiglar* 2: 49—68.

Kirish

Har qanday lingvistik nazariya va konsepsiyalarning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan shevalarni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, tilni areal-tipologik va areal-lingvistik metodlar orqali o'rganish o'zbek tilshunoslari oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Areal lingvistika sohasining maydonga kelishi dialektologiya sohasidagi turg'un bo'lib qolgan ayrim jihatlarni, dialekt va shevalar mohiyati, xususiyatlari, o'zaro aloqalari, ularning tasnifi, tavsifi masalasidagi tushunchalarni yangicha baholashga, yangicha usullarda hal qilishga keng yo'l ochdi.

Dunyo tilshunosligida areal tilshunoslik ko'p mundarijali soha bo'lib shakllandi, chunki arealogiya italyan neolingvistlari, jahon lingvogeograflari hamda tillar ittifoqi yo'nalishi vakili bo'lgan tilshunoslarning amalga oshirgan tadqiqotlarini o'zida mujassamlashtirdi. Tadqiqotlar negizida areal lingvistik konsepsiyalarning tadrijiy taraqqiyotini analiz va sintezlash natijasida dialektlarni umumiy tilshunoslikning bir aspekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq ekanligi isbotlandi. Dialektlarni arealogik tamoyillar va lingvistik tadqiqot metodlari asosida o'rganish muhim muammo sifatida qo'yildi. Binobarin, til sistemasini yaxlit o'rganishda dialekt va sheva areallarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Ayni damda jamiyatimiz rivojlanishi uchun olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda o'zbek tilshunosligi oldiga qo'yilayotgan vazifalarni bajarishga to'liq imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilmoqdaki, natijada tilimizni har tomonlama o'rganish masalasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar samarasi xalqaro darajada bo'y ko'rsata boshladi.

Alohida e'tirof eish joizki, o'zbek shevalari xususiyatlarini areal lingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslariga tayanib, tarixiy-qiyosiy va etnolisoniy jihatdan tadqiq etish ilmiy jarayonlarning ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmog'i lozim. Sohaning

nomukammal, oddiy tavsifiy va tasviriyl jihatlardan iborat, ko'plab mavhum o'rinlarni yangicha qarashlar asosida, mental nuqtayi nazaridan o'rganish va to'ldirishga zarurat sezilib qolmoqda.

Jahon arealogiya sohasi vakillari o'z ilmiy qarashlarida millat tilini dialektologik manba – materiallarni lingvistik geografiya, areal lingvistika tamoyillari asosida bir butun, yaxlit – umumiy tarzda o'rganish ko'proq samara berishini isbotladilar. Ularning ilmiy qarashlari, asarlari u yoki bu til hodisasining hududiy tarqalishini ko'rsatuvchi lingvistik xaritada tushirilgan belgilar – izoglassa (*izofonema – fonetik belgi, izomorfema – morfologik belgi, izoglassa – leksik belgi*) tushunchasining mohiyatini ochib berdi.

XX asrning 50-60-yillardan boshlab turkiyshunoslar ham lingvistik geografiyaga, lingvistik *xaritalar* tuzish muammolariga diqqatini jalb etdilar. Bu muammoga bag'ishlangan N.A.Baskakov, M.M.Shiraliyev, N.Z.Gadiyeva, E.V.Sevortyan, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, N.B.Burganov singari olimlarning asarlari maydonga keldi.

O'zbek xalq shevalari rang-barang xususiyatlarni o'zida ifoda etadi. Areal xususiyatlar va ularning tarqalish kengliklari tilshunoslarga til hodisa va qonuniyatlarining tarixiy taraqqiyoti, o'zbek milliy tilining shakllanish jarayonlari, adabiy til takomili kabi talay masalalarni yanada chuqurroq va mukammalroq o'rganish imkonini beradi.

Lingvistik hodisalarning muayyan kenglikda tarqalishi va tillararo (dialektlararo) munosabatlarni lingvistik geografiya metodlari asosida o'rganuvchi, asosiy tamoyillari til xususiyatlarining hududiy bo'linishini tavsiflash va izoglassalarni talqin qilish, dialektlar, tillar va areal jamoalar (til ittifoqlari) o'rtasida o'zaro ta'sir maydonlarini (*areallarini*) aniqlash bo'lgan areal lingvistika sohasida ham bugungi o'zbek tilshunosligida bajariladigan vazifalar talaygina.

O'zbek tilini areal nuqtayi nazardan o'rganishda A. Jo'rayev, Q.Muhammadjonov singari olimlar samarali mehnat qildilar. Ayniqsa, bu sohada o'zbek tilini areal o'rganilishining nazariy asoslarini batafsil yoritib bergan professor A. Jo'rayev xizmatlari alohida e'tiborga loyiq.

Asosiy qism

Zahmatkash o'zbek tilshunosi, ona tilimiz fidoyisi, til ilmi targ'ibotchisi, professor Abdulhamid Nurmonov o'zining "O'zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishi" nomli maqolasida

“o‘zbek mahalliy shevalarini o‘rganishda “Chig‘atoy gurungi” olg‘a surgan g‘oya katta xizmat qildi. Bunga ko‘ra “tilimizning adabiyligi arabiylikida emas, o‘zidadir, shuni tirguzmak”, “tilimiz qoidalarini tatarcha yoxud usmonlicha emas, tilimizning o‘zidan olmoq” kerak edi. Shuning uchun “xalq og‘zida yurgan so‘zlarni, xalq adabiyoti bo‘lg‘on ertaklar, maqollar yig‘ib tekshirmak lozim” degan qarorga keladi. Natijada jonli xalq tilining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bel bog‘lanadi” deb ta’kidlagan edi [Nurmonov 2012, 425]. Olim o‘zbek shevashunosligi taraqqiyoti uchun munosib ulush qo‘shgan fan fidoyilari va ularning asarlari haqidagi fikrlari yakunida: “o‘zbek dialektologiyasining keng front bo‘ylab ravnaq topishi o‘zbek tilini lingvistik xaritalashtirish imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, lingvogeografik va areal tadqiqotlar olib borishga qulay sharoit tug‘dirdi. A. Shermatovning lingvogeografiyaga, A. Jo‘rayevning areal lingvistikaga doir tadqiqotlarining dunyoga kelishi o‘zbek tilshunosligining katta yutug‘i” ekanligini ko‘rsatib o‘tgan edi [Nurmonov 2012, 426].

Darhaqiqat, A. Jo‘rayevning samarali ilmiy izlanishlari o‘zbek areal lingvistikasi sohasida amalga oshirilgan yagona ish sifatida ahamiyatli ekanligini e‘tirof etish lozim.

Aslida, o‘zbek areal lingvistik tadqiqotlarining nazariy asoslari Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk”, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlari bilan birgalikda maydonga kelgan.

O‘zbek shevalarini areal lingvistik metodlari asosida o‘rganish professor A.K.Borovkovning Farg‘ona vodiysi shevalaridan materiallar to‘plashdan boshlangan. Lekin o‘sha vaqtlarda respublikada dialektologik ishlarni birlashtiruvchi yagona markazning yo‘qligi bu materiallarni ishlab chiqish va xaritalarga ko‘chirish imkonini bermadi. Oradan ma‘lum vaqt o‘tgandan keyin, o‘zbek shevalari xususiyatlarini xaritalashtirish va areallarini belgilash ishi yana kun tartibiga qo‘yildi.

E.D.Polivanov, G‘.O.Yunusov, I.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov kabi tilshunoslar o‘zbek areal tilshunosligi sohasini ilmiy asarlari, asosli manba – materiallar bilan boyitib, uning rivojlanishiga, takomillashishiga munosib hissa qo‘shdilar.

O‘zbek dialektlari arealini xaritalashtirib o‘rganishda professor V.V.Reshetovning xizmatlarini alohida e‘tirof etish kerak. U Toshkent viloyatining Angren hududida dialektologik tadqiqotlar olib bordi va Ohangaron vohasidagi shevalarda uchraydigan

fonetik, leksik va grammatik farqlarni xaritaga ko'chirdi. O'zbek dialektologiyasida birinchi bo'lib o'zbek qurama shevalarning 49ta lingvistik xaritasini tuzdi. Bu xaritalar negadir hozirgacha nashr qilinmadi [Shermatov 1981, 4].

Kishilar o'rtasida bevosita aloqa vazifasini bajaruvchi til tovush yoki tovushlar kompleksi orqali o'z ifodasini topadi. O'zbek tilshunosi M.M.Mirtojiyev to'g'ri ta'kidlagandek: "Ma'lum tovush yoki tovushlar kompleksida ma'no yoki maqsadning ifoda topishi lug'aviy birlik, lug'at, leksika hisoblanadi. Shu leksikaning ma'lum grammatik qonuniyatlar asosida kommunikatsiyaga kirishuvi nutq, ya'ni tildir. Bu o'rinda tilning uch bosqichdagi tarkibiy qismi haqida gap boradi: tilning material manbai – tovushlar; shu material manbaini o'z vositasida tashishi – leksika, lug'at; o'sha leksikaning kishilar muloqatga kirishuvi uchun o'zaro kommunikativ aloqada bo'lish qonuniyati – grammatika... Tovush tilni namoyon etuvchi materialdir" [Mirtojiyev 2013, 5]. Shu boisdan ham tilning fonetik jabhasiga qiziqish va bu borada amalga oshirilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar o'zining uzoq tarixiga ega.

Praga tilshunoslik to'garagining "Tezis"larida tilning tovush jabhasiga xos tadqiqotlar xususida so'z yuritilib, lingvistik tadqiqotlarda so'zlovchining maqsadini ro'yobga chiqaruvchi akustik timsollarni birinchi, asosiy o'ringa qo'yish zarurligi ta'kidlanadi [Zvegensev 1965, 126].

Darhaqiqat, bildiriladigan har qanday fikrlarning ashyoviy qobig'ini akustik birliklar tashkil etadi. Fikrning yaxlit ashyosi jumla (gap) hisoblansa, shu jumlaning ashyosini tovush va tovushlar yig'indisidan iborat butunlik tashkil etadi. So'z tarkibidagi tovush qobig'i hududiy, hatto, individual shaxsiy farqlar bilan idrok etiladi. Bu hol ayrim hududiy tillarning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tilshunoslik to'garagi "Tezis"larida: "barcha tillarning fonetik-fonologik tasviri lingvistikaning muhim muammosidir" [Zvegensev 1965, 126] kabi bildirilgan fikrlar o'zbek shevashunosligi uchun ham taalluqli bo'lib, shevalarimiz fonologik strukturasidagi hali qo'l tegmagan jihatlarni yoritish kun tartibiga qo'yilishi muqarrardir.

Har qanday fanning tadrijiy – evolyutsion tarzda rivojlanishi yangilik emas. Sharqda turkologiya, ayniqsa, dialektologiyaga XI asrdayoq Mahmud Koshg'ariy (*"Devoni lug'atit-turk"*), keyinchalik, Alisher Navoiy (*"Muhokamat ul-lug'atayn"*) tomonidan tamal toshi qo'yilgan bo'lsa, hozirda ham biz uchun ularning ilmiy qarashlari o'zbek tilshunosligining mayog'i sifatida qo'llanma hisoblanadi.

Turkiy tillarning ilmiy o'rganilishi o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek dialektologiyasi sohasining rivoj topishida muhim o'ringa ega. Bu borada professor Baskakov [Baskakov 1952, 121-135] va boshqa ko'plab turkolog olimlarning ilmiy-nazariy konsepsiyalari turkologiya va o'zbek shevashunosligi taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega.

O'zbek dialektlari arealini o'rganishda professor E.D.Polivanov salmoqli nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirdi va o'zbek shevalarini birinchilardan bo'lib tasnif qildi [Polivanov 1933, 17].

Professor K. K. Yudaxin o'zbek shevalari genezisida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan tillar interferensiyasiga, xususan, o'zbek-uyg'ur va qirg'iz-o'zbek-tojik tillari orasidagi o'zaro munosabatlar masalasini chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratdi. Uning eski turkiy cho'ziqlik va qadimgi morfologik shakllarni o'zida saqlagan Qorabuloq, Vodil, Laylak shevalariga, Chig'atoy tili tovush tizimini o'rganishga bag'ishlangan bir qator asarlari maydonga keldi [Yudaxin 1957, 31-59].

Professor A.K.Borovkovning ilmiy ishlarida o'zbek-tojik tillarining o'zaro munosabati, o'zbek shevalarining tasnifi va tavsifi, o'zbek dialektlari fonetikasiga alohida e'tibor qaratilgan [Borovkov 1963, 164-175].

V. V. Reshetov o'zbek shevalari fonetikasi, transkripsiyasi, o'zbek milliy tilining dialektal asosi va shu kabi o'zbek shevashunosligining bir qator muhim masalalarini oydinlashtirdi. U Respublikamizning Toshkent, Marg'ilon, Namangan kabi bir necha yirik shaharlari shevalarini sinchikovlik bilan o'rgandi. Ilmiy izlanishlari natijasida hozirgi o'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan Toshkent va Farg'ona va boshqa o'zbek shevalarning adabiy tilga bo'lgan munosabati, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosladi. Olim faqat shahar shevalarini o'rganish bilan cheklanmay, qipchoq shevalarining o'ziga xos xususiyatlarini ham batafsil o'rgandi. U Toshkent viloyatidagi qurama shevalarining lingvistik xususiyatlari tadqiqi moboynda to'plangan materiallar asosida qurama genezisining ilmiy asosini aniqlashga muvaffaq bo'ldi va qurama shevalarining o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, fonetik sathini atroflicha tasnifladi [Reshetov, 1978, 3-14].

Sh.Shoadurahmonov, F.Abdullayev, Ya.G'ulomov, Sh.Afzalov, X.Donyorov, A.Y.Aliyev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov kabi dialektolog olimlarimiz o'zbek shevalarining fonetikasi, leksikasi va grammatikasini o'rganish borasida muvaffaqiyatli ish olib bordilar.

O'zbek shevalari fonetikasining o'rganilishi

Shu o'rinda aytish kerakki, o'zbek shevalari, ularning fonetikasini o'rganishda o'zbek dialektologiyasining o'z an'analari, o'ziga xos tamoyil va asoslari bor. O'zbek shevalari fonetikasining ilmiy asosda o'rganilishini E.D.Polivanov, G.O.Yunusov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetovlar boshlab bergan an'ana va tendensiyalarni Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, X.Donyorov, S.Ibrohimov, A.Ishayev, A.Alieyv, N.Rajabov, Sh.Nosirov, S.Otamirzayeva, H.Uzoqov, S.Tulyakov va boshqa olimlar davom ettirdilar.

O'zbek dialektologiyasi sohasida shevalar fonetikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lami ortib bordi. Jumladan, A. Ishayevning Mang'it shevasi fonetikasiga bag'ishlangan izlanishlarida [Ishaev, 1959] mang'it shevasining o'ziga xos xususiyatlari, fonema va tovushlari, tovush o'zgarish hodisalari va bo'g'inlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

F. Abdullaevning o'zbek shevalari fonetikasiga bag'ishlangan dialektologik izlanishlari [Abdullayev 1967, 421] o'zining salmog'i, ilmiy qimmatini bilan ahamiyatli. Uning o'zbek shevalari nutq tovushlari va ularning o'zgarishlari, so'z urg'usi xususida chiqargan asosli ilmiy-nazariy fikrlari va xulosalari sheva fonetikasini o'rganish borsida burilish yasadi.

S.Otamirzayevaning Namangan shevasi fonetikasiga bag'ishlangan tadqiqot ishi [Otamirzayeva, 1974, 132]. Namangan shahar shevasining fonetik strukturasi eksperimental tahlillar asosida o'rganishga, uning boshqa o'zbek shevalaridan farqli, o'zigagina xos belgilari aniqlashga qaratilgan.

Bulardan tashqari, A.Turg'unovning o'zbek tili Baliqchi guruh shevalarining fonetik strukturasi [Turg'unov 1969, 19], H.Hamroevning o'zbek tili Qashqadaryo shevalarining asosiy fonetik xususiyatlari [Hamroyev 2006, 22], D. Abdullayevaning o'zbek tili Oshoba shevasining fonetik xususiyatlari mavzularidagi tadqiqotlarida [Abdullayeva 1999, 21], ham o'zbek shevalarining fonetik strukturasi, fonetik hodisalarga oid jarayonlar, fonetik qonuniyatlar dialektal tahlil qilingan.

Keyingi paytlarda o'zbek dialektologiyasi o'zbek tilshunosligining ancha mukammal tarmog'i sifatida shakllangan bo'lishiga qaramay, soha bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar ko'lami sustlashib ketdi. Barcha o'zbek shevalari va ularning lisoniy xususiyatlari lingvistik geografiya, areal tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan deb bo'lmaydi. Ayniqsa, O'zbekistonning markaziy va aholisi zich yirik shaharlaridan uzoq joylashgan aholi

shevalarini areal o'rganilishi hali o'z yakunini topmagan. Dialektal faktlarni o'rganish xalqimiz milliy vakillarning etnik, mental, ma'naviy va madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Zero, til millatning bebaho qadriyati, Birinchi Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek: "tilda millat ruhi yashaydi".

Aniqki, xalq shevalari adabiy tilining yozma yodgorliklariga nisbatan ham qadimiyoq tarixiy manbadir. Bizgacha etib kelgan yozma yodgorliklarda uchramaydigan til faktlari shevalarda saqlanib qolgan. Shuning uchun sheva materiallarini tadqiq etish tilning ontologik tabiatini ochib berish imkonini beradi.

Darhaqiqat, o'zbek xalq shevalarida hozirgi adabiy tilda uchramaydigan juda ko'p belgilar saqlanib qolganki, ularni asosli ravishda ilmiy o'rganish juda muhim tarixiy-lingvistik xulosalar chiqarishga imkon tug'diradi. Xalq shevalaridagi bunday fonetik, leksik-grammatik fakt va asoslar, P.M.Melioranskiy ta'biri bilan aytganda: "...qadimgi yodgorliklarni tushunish va lingvistik analiz qilishda noyob qo'llanma vazifasini bajaradi"

Singarmonizm va umlaut

Singarmonizm va umlaut turkiy tillarning o'ziga xos lingvistik qonuniy hodisasi bo'lib, u qadimdan amalda. Lekin uning turkiy tillarda saqlanish darajasi har xil. O'zbek tilining tayanch shahar shevalarida bu hodisalar o'z kuchini deyarli yo'qotgan, lekin ko'plab qipchoq va qarluq shevalarida saqlanib qolgan. Shunday bo'lsa-da, bir guruh tilshunoslar turkshunoslikka bag'ishlangan adabiyotlarda uning mukammal qoidasi yo'qligi, atamaning qanday lingvistik hodisa ekanligi batafsil bayon qilinmaganini, uni assimilyatsiyaning bir turi ekanidan boshqa narsa emasligini ta'kidlaydilar [Koshg'ariy 1963, 69; 23; Reshetov 178, 295-299; Abdullayev 1967, 74-82; Tenishev 1976, 93-96].

Bizningcha, singormanizm ham, umlaut ham alohida lisoniy o'ziga xosliklari bilan Namangan shevalar arealida amalda va u o'z qonuniyatlariga ega.

Singarmonizm so'zdagi unlilarning ma'lum nuqtayi nazardan bir xillanishi bo'lib, uni N.K.Dmitriyev "tovushlar assimilyatsiyasining ko'rinishlaridan biridir" – deb izohlagan edi. U turkiy tillarning o'ziga xos qonuniyatlaridan hisoblanib, turkiy tillarning barchasida o'z aksini topganligi, hatto, adabiy tili nosingarmonistik bo'lgan o'zbek tilining, ayrim shahar shevalaridan tashqari, barcha shevalari singarmonistik ekanligi qayd qilingan [Scherbak 1970? 50-55].

Professor A.Nurmonov Fitrat o'zbek adabiy tilida 23 ta unsiz

fonema mavjudligini ko'rsatganligini, **x**, **h**, **f** fonemalari asl turkcha emasligini, barcha turkiy tillarda u yoki bu darajada mavjud bo'lgan singarmonizm qonuniyatini aks ettirishini, uni shahar shevalarida fors-tojik tilining ta'sirida buzilganini, shuning uchun umumturkiy fonetik xususiyatini ko'proq saqlab qolgan qishloq shevalariga tayanish juda to'g'ri ekanini, ana shu asosda o'zbek tilida unlilarning "yo'g'on"lik va "ingichka"lik belgisi farqlovchi belgi vazifasini bajarishi va shu belgiga ko'ra unlilar ikki qatorga bo'linishini ko'rsatganini ta'kidlaydi [Nurmonov 2012, 272].

Singarmonizmning rudiment sifatida o'zbek adabiy tilida ham ko'zga tashlanishi, uning o'zbek tili shevalaridagi o'ziga xos spetsifik lingvistik belgi-xususiyatlari, "y"lovchi va "j"lovchi qipchoq shevalarda amal qilish qonuniyatlari haqida o'zbek adabiy tili, uning shevalari fonetikasi va fonologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar, ilmiy asarlar hamda qo'llanmalarda tilga olingan [Reshetov, Shoabdurahmonov 1978, 184-188; Abdullayev 1963, 74-82; Atamirzayeva 1974, 15-18; Mirtojiyev 2013, 306; Jamolxonov 2005, 32].

V. Reshetov o'zbek tilidagi i, u, o, a oraliq unlilarni Toshkent shevasi talaffuziga asoslanganligini, unlilarning bu fonetik tasnifi rus tili unlilari bilan qiyoslash orqali berilganligini ta'kidlaydi [Nurmonov 2012, 273].

Bizningcha, V.V.Reshetov oraliq (indifferent) unlilar haqida fikr yuritganda, o'zbek tili fonetik-fonologik sistemasiga diaxron nuqtai nazardan yondashgan. U o'zbek tilining hozirgi Toshkent dialektida qadimgi qator bo'yicha zidlanuvchi unlilarning zidlanish belgisi yo'qolganligi, oraliq unlilarning hosil bo'lganligi borasida bahs yuritgan. Shuning uchun ham bu unlilarni ikki qatordagi unlilarning birlashuvidan – konvergentsiyasidan hosil bo'lgan degan fikr bilan konvergentlar nomi ostida birlashtirgan. Xuddi shu fikr professor F.Abdullaevda ham uchraydi [Abdullayev 1963, 41].

Jahon tilshunosligida N.S.Trubetskoy dunyo tillarining ko'pida, masalan, sharqiy va g'arbiy Belarus tillarida ham unlilarning bunday holati tarixiy fonologik ahamiyatini yo'qotganligi, biroq qaysidir holatlarda u shevalar miqyosida saqlanganligini misol orqali izohlagan [Trubetskoy 2000, 31-36].

Ko'rinadiki, turkiy tillarning vokalizmiga bag'ishlangan barcha tadqiqotlarda qator belgisi va lab ishtiroki belgisi unlilarni tasnif qilish uchun farqlovchi belgi sifatida qarab kelinadi.

Tilshunos olim E.Umarov o'zbek adabiy tilidagi bunday tasnif asosiga e'tirozli holda, o'zbeklar tilning oldi yoki orqasi bilan

gampiradilarmi degan savolga “yo‘q” deb javob berish kerakligini bayon qiladi, unlilarni og‘izning ochilish darajasi va labning ishtirokiga ko‘ra tasnif qilish o‘rinli ekanligi haqidagi fikrlarni bildiradi [Umarov 1994, 15-18].

Haqiqatan, turkiy tillar, ularning ayrim shevalar uchun palatal va labial singarmonizmning xosligi, palatal garmoniyada unlilar qatorga ko‘ra ohanglashuvi hech kimda e‘tiroz turdirmaydi. O‘zbek adabiy tilining hozirgi davri uchun garchi singarmonizm amal qilmasa-da, lekin o‘zbek shevalarida saqlanib kelayotganligi deyarli barcha shevashunos olimlar tomonidan e‘tirof etiladi. Shu bilan birga, qatorga ko‘ra zidlanishni o‘zida saqlab kelayotgan o‘zbek shevalarida bir o‘rinda qator bo‘yicha korrelyatorlarning o‘zaro almashinib ma‘no farqlashi [Trubetskoy 2000, 34] mavjudligi qatorni unlilar uchun farqlovchi belgi sifatida ajratishga imkon beradi. Masalan, Andijon shevasida [ət] inson organi nomi, o‘tmoq fe‘li – [o‘t] maysa, olov, [o‘r] o‘tni o‘rmoq – [ør] sochni o‘rmoq, [øz] olmosh – [o‘z] bosib o‘tmoq, [yn] ovoz – [un] bug‘doyning maydalangani.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili unli fonemalari uchun qator belgisi fonologik qimmatini yo‘qotgali, shuning uchun hozirgi o‘zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo‘la olmasligi haqida fikrlar mavjud [Nabiyeva 2005, 3].

O‘zbek tilining ayrim shevalarida, xususan Namangan shevasida singarmonizmning boshqa ko‘rinishi – affikslarning o‘zak fonetik xususiyatiga moslashish emas, balki o‘zak unlilarining affiks unlilari xarakteriga moslashishi kuzatiladi. Bunday moslik umlaut hisoblanadi.

Umlaut uyg‘ur tili va hozirgi o‘zbek tilining Namangan shahar, Uychi, Chortoq tumanlari, Yangiqo‘rg‘on va Uchqo‘rg‘on tumanlarining ayrim qishloq shevalariga xosdir [Aliyev 1975, 14]. Yangiqo‘rg‘on va Uchqo‘rg‘on tumanlari Qirg‘iziston Respublikasi chegaralariga yaqin bo‘lsa-da, singarmonizm ta‘siri kuzatilmaydi. Buni Yangiqo‘rg‘on tumani markazi, uning atrofi va Qayqi qishlog‘i aholisi Namangan shahriga, yaqin joylashganligi, u yerlarga umlautli sheva vakillarining ko‘chib borishlari bilan izohlaymiz.

Lingvistik adabiyotlarda umlautning uch turi: palatal, labial va lingvial ko‘rinishi mavjudligi ta‘kidlanadi.

Birinchi turda birinchi bo‘g‘inning orqa qator keng unilisi keyingi bo‘g‘inning tor lablanmagan unlisi ta‘siriga berilib, old qator unliga aylanadi. Masalan, Namangan viloyatining Uychi shaharchasi, Chortoq shahri, Uchqo‘rg‘on tumani Qayqi qishlog‘i shevasida: [təshʲ]

toshi, [bəsh'] boshi, [qəsh'] qoshi, [shəl'] sholi, [səv'p] sovib, [səg'p] sog'ib, [əl'vər//ɔvər] **olib yubor**, [ɔtvər//ət'vər] **otib yubor**, [yɔzvər//yəz'vər] yozib yubor, [qəshqəldə:] qashqaldoq, [təv'p] tabib, [bər'p] borib, [yəzip] yozib kabi.

Ikkinchi turda birinchi bo'g'inning keng lablanmagan unlisi keyingi bo'g'inlardagi lablangan unlilari ta'sirida lablashadi. Masalan, (Namangan sh., Uychi t., Chortoq t.): [tənyr] tandir, [ɔ:dərytti] ag'daryapdi, [ɔdɔ^wyldy//ɔdɔshyldy] ado, tamom bo'ldi kabi.

Masalan, Namangan viloyatining Uychi shaharchasi, Chortoq shahri, Uchqo'rg'on tumani Qayqi qishlog'i shevasida: [təsh'] toshi, [bəsh'] boshi, [qəsh'] qoshi, [shəl'] sholi, [səv'p] sovib, [səg'p] sog'ib, [əl'vər//ɔvər] **olib yubor**, [ɔtvər//ət'vər] **otib yubor**, [yɔzvər//yəz'vər] yozib yubor, [qəshqəldə:] qashqaldoq, [təv'p] tabib, [bər'p] borib, [yəzip] yozib kabi.

E'tibor qiling, birinchi va ikkinchi tur:

[Shəl' 'k'shkə yərgə yer t'kisləshkə chiqvətydy, bəmed', təsh' ja: kupaka:. Təshl' ja:da shəl' yaxsh' buma:di, ɔmɔlə:k't'n, to'za su: ichkən'da:(n) shəl' zyryləd'. Ishlan' t':zdə tugatsa:, shəl'n' s'pvərəddy]

(Sholi ekishga (sepishga) jar (atrofi)ga yer tekislashga chiqayapmiz, bo'lmayapti, toshi (yerning) juda ko'p ekan. Toshli joyda sholi yaxshi bo'lmaydi, ammo, lekin toza suv ichganligi uchun sholi zo'r (serhosil) bo'ladi. ishlar (yer tekistlash ishlari)ni tezda tugatsak, sholini sepib yuborar edik).

Uchinchi turda og'izning ochilish darajasi o'zgaradi. Keyingi bo'g'inning tor *i* unlisi ta'sirida birinchi bo'g'inning old qator keng unlisi o'rta-keng unliga aylanadi. Masalan, uyg'ur tilida: [kasish] **kesish**, [katti] ketdi kabi. Biroq Namangan viloyatining umlautlashgan shevalarida uchinchi tur ko'rinishi deyarli kuzatilmaydi [Atamirzayeva 1974, 26].

Umlaut ayrim turkiy tillarning lahjalarida, hatto qipchoq guruhga mansub dialektlarda ham ma'lum darajada mavjud. U singarmonizmga teskari proporsional bo'lib, turkiy tillarda nisbatan keyingi hodisadir. Ayrim tilshunoslarning fikriga ko'ra, [Polivanov, 1933, 35; Borovkov 1963, 63; Reshetov 1978, 122] umlaut assimilyatsiyaning keng rivojlanishi va o'ziga xos urg'u zaminida vujudga kelgan. Bir guruh tilshunoslarning fikricha, umlaut singarmonizm kuchsizlanishi bilan bog'liq.

Har ikkala – tanglay va lab garmoniyasi Namangan qipchoq shevalarida viloyatdagi boshqa shevalarga nisbatan kuchli. Lekin oltoy, xakas, boshqird va qirg'iz tillaridagiga nisbatan kuchsiz. Bu o'rinda N. S. Trubetskoy fikrlariga tayanish maqsadga muvofiq

bo'ladi [Trubetskoy, 2000, 31-36].

Tanglay garmoniyasi janubiy-g'arbiy Namangan shevalarida quyidagi ko'rinishlarga ega: a) o'zakning birinchi bo'g'inida til orqa unlilardan biri bo'lsa, so'zning so'nggi bo'g'inlarida ham til orqa (*yoki qattiq*) unli tovushlar ishlatiladi; b) o'zakning birinchi bo'g'ini til oldi (*yumshoq*) uililardan biri bilan boshlansa, unda so'zning keyingi bo'g'inlarida ham til oldi yumshoq unlilar ishtirok etadi.

E'tibor qiling:

[*zəkənd', dəyrən' bəlig'i ko'lda boqilg'on bəlihtən sh'r'n bo'ladi. Bəlihlər o'tindi cho'qido p'sh'r'lsə, ya pəhtə yəg'ida qəvirilsə, zo'ro'ladi, mazzə qibiys'z. Bəlixti qətiqqə qo'ship yevo'miydi, o'shəng'ə qətihti məntig'ə qo'sh'p yiyish kerək, yo'məsmə ədəm əqərip ketəd'*]

(*zakan (suv osti sizoq suvlari oqadigan shevadagi gidronim), daryoning balig'i (sun'iy) ko'lda boqilgan baliqdan shirin bo'ladi. baliqlar o'tinning cho'g'ida pishirilsa yoki paxta yog'ida qovurilsa, shirin (zo'r) bo'ladi, mazza qilib tanovul qilasiz. Baliqni qatikka qo'shib eb bo'lmaydi, shuning uchun qatiqni mantiga qo'shib eyish kerak, yo'qsa odam oqarib (terisida oq dog'larning paydo bo'lishi) ketadi.*)

Yuqoridagi dialektologik matn Namangan "y"lovchi qipchoq shevalari vakili (Jo'ravoy Nizomov, 1932-yilda tug'. Mingbuloq t.) tilidan yozib olingan. Matn palatal (tanglay) uyg'unlik namaunasidir.

Tanglay garmoniyasining qonuniyati Namangan qipchoq lahjalarida quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. So'zning o'zak qismi – tub leksik shakllarda. Ko'p bo'g'inli so'zlardagi birinchi bo'g'in tarkibidagi unliga qolgan bo'g'indagi unlilar moslashadi.

Dialektal arealdagi Namangan, To'raqo'rg'on, Mingbuloq, Pop tumanlariga qarashli ko'plab qishloqlardagi "j" lovchi va "y" lovchi qipchoq lahjalarida so'zlashuvchi aholi shevalarida bunday tanglay garmoniyasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan: [*bəliq*] baliq, [*mənti*] manti, [*qətiq*] qatiq, [*chəchiq*] sochiq, [*chyməli*] chumoli, [*təg'ərə*] tog'ora, [*symələk*] sumalak, [*zəmbər*] zambil, [*tərg'is//tərvīs*] tarvuz, [*səmsə*] somsa kabi bir talay tub so'zlarda singarmonizm o'z qonuniyatini saqlab qolgan.

2. So'zning o'zak qismiga qo'shimcha qo'shilganda. Namangan qipchoq lahjalarida qo'shimchalar tarkibidagi unlilarning til orqa va til oldi variantlarga egaligi affikslarning til orqa qattiq va til oldi yumshoq variantlarini yuzaga keltirgan. Ko'plab so'z yasovchi va shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar o'zining kontrast juftlariga ega.

a) so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilganda yoki qo'shma so'zlarda: [*pərmə+lə+ v+g'ch*] parmalagich, [*yy+mə+lə+mə*]

uymalama, [səvə+ch+p] savag'ich, [memɔ+xɔnɔ] mehmonxona, [sɔmsɔx+piyɔs] sarimsoqpiyoz, [kəz+əynək] ko'zoynak, [dymɔlb+q//yumɔlb+q], [sɔr+tɔrɔsh+xɔnɔ] sartarosh-xona, [nɔn+tɔxtɔ, qiymɔ+tɔxtɔ] nontaxta, qiymataxta kabi juda ko'p sodda yasama va qo'shma so'zlarda singarmonizm o'z qonuniyatini saqlab qolgan.

b) sintaktik shakl hosil qiluvchi kelishik qo'shimchalari qo'shilganda:

– qaratqich va tushum kelishigi [-di//d', -t'//ti:] [bunn'//mynn'] burni, [qɔzzɔndi qulɔg'i], [qɔzzɔndi ko'tar] qozonning qulog'i, qozonni ko'tar, [dədəmd' pichɔhlɔri], [enəmd' kəynəhlər] dadamning pichoqlari, onamning ko'ylaklari, [bɔg'lorɔdi dɔrɔxlɔri], [sɔvchilɔrdi gəplər] bog'larning daraxtlari, sovchilarning gaplari, [tɔshti təg'də], [ɔtt' tyyɔg'i], [ɔsht'yeng], [tɔvɔhti yɔv] toshning tagida, otning tuyog'i, oshni eng, tovoqni yuv kabi. Dialektal arealining deyarli barcha qipchoq shevalarida qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari talaffuzda deyarli farqlanmaydi;

– jo'nalish kelishigi [-g'o'//-g'ɔ'//-ngɔ, -g'a'//-gə, -qa'//-kə]: "y"lovchi va "j"lovchi shevalarda [numɔngɔ'//numɔvg'ɔ] nimaga, nega, aralash tip shevalarda: [numɔngə] nimaga, nega, [qəyg'ə'//qəyg'ɔ] qaerga, [to'yg'ɔ'// to'yg'a'//to'ygə] to'yga, [terəhti ɣch'gəchiht'] terakning uchiga (eng baland joyiga) chiqdi, [tɔg'ɔrɔg'ɔ sɔ:] tog'oraga sol, [ɔriqqɔ chʏsh] ariqqa tush, [terəkkə chihti] terakka chiqdi, [ojivɔeg'ɔ kett'] objuvozga chiqib ketdi kabi.

Nazalizatsiya

Namangan shevalarida asos tarkibida burun tovushlari mavjud bo'lgan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda nazalizatsiyaning [Mirtojiyev, 2013, 306] kuchliligi kuzatiladi.

Nazalizatsiya unlilar artikulyatsiyasida burunda hosil bo'lgan rezonator tonning qo'shib berilishidir. Bu asosan burun orqali hosil bo'luvchi sonant talaffuzi bilan kontakt keluvchi unlilarda kuzatiladi: [numongo, numovg'o, numonga] kabi. Chunki avvalgi tovush artikulyatsion rekursiyasi keyingi tovush artikulyatsion ekskursiyasiga teng keladi. Shuning orqasida avvalgi tovushdagi unning davomi keyingi tovushga ulashib ketadi va burun tovushining ham rezonator toni keyingi unli rezonator toniga qo'shiladi. Natijada unli artikulyatsiyasida ham burun rezonator toni qayd etiladi. Bunga nazalizatsiya deb qaraladi. Namangan shevasida odatiy hol deb qaralsa ham, Toshkent, Farg'ona yoki boshqa shevalarga xos deb aytish to'g'ri emas. O'zbek tilining boshqa shevalarida sonant ta'sirida unli nazalizatsiyaning sodir bo'lishi ancha kuchsiz. U Namangan

va uning atrofi shevalarida odatiy hol ekanligini S.Otamirzaeva o'z izlanishlarida qayd etgan [Atamirzayeva, 1974, 108-111].

– o'rin-payt kelishigi [-da//do//-də, -ta//tə]: [kəchadə] ko'chada, [uydə] uyda, [təmdə] tomda, [kel'də tyy] o'g'irda tuy, [məlladə] etakda, [dəhchadə] tokchada, [səhət beshdə] soat beshda, [esh'htə] eshikda, tashqarida kabi.

– chiqish kelishigi [-dan//dən, -tan//dən//ton//nən//nan//nən]: [ukəmdən] ukamdan, [siyn'mdən] singlimdan, [chekkədən] chetdan, [ɔlmədən] olmadan, [səmsədən] somsadan, [bəshqədən] o'zgan, birovdan, [terəhtən] terakdan, [esh'htən] eshikdan, [ɔttən] otdan, [xurmodən] xurmodan, [səhtən] omonim: ochdan, oshdan, [bəshqəttən] yangidan, qaytadan, [g'ləmnən] gilamdan [enəmnən] onamdan kabi. Agar so'z o'zagi burun konsonantlari bilan tugagan bo'lsa yoki o'zakka sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimcha burun konsonantlari bilan tugagan bo'lsa, nazalizatsiya kuchayadi va til oldi portlovchilari [d] va [t] [n] va [ŋ] tovushiga almashadi: [nonnon] nondan, [enəmdən] onamdan, [qo'l'mnən yəhlədi] qo'limdan ushladi, [chəch'ngdən tortimī] sochingdan tortdimi?, [bəshingnən o'g'irvər] boshingdan aylantirib yubor, [qən't'ng'zən sətvələmən] qantingizdan sotib olaman kabi.

– egalik qo'shimchalarining birligi [-(')m//-(i)m; -(')ng//-(i)ng; -(s)'/-(s)i] qo'shilganda: [bunn'm//mynn'm] burnim, [qənnim] qornim; [chəch'ng] soching, [bəshing] boshing; [enəs'] onasi, [ɔtəsi] otasi; ko'pligi [-(')mis//-(i)miz; -(i)ngis//-(i)ngiz; -'// -ləri// -lori]: [kel'n'mis] kelinimiz, [qoshig'imiz] qoshig'imiz; [et'g'ngis] etigingiz, [etə:ngis] etagingiz, [qizingiz] qizingiz; [qo'shnilərđi p'chəg'] qo'shnilarning pichog'i, [səvziləri] sabzilari, [pichohlori] pichoqlari kabi.

– shaxs-son qo'shimchalarining birligi [-(')m//-(i)m; -(')ng// -(i)ng; -t'// -di] qo'shilganda: [keld'm] keldim, [qildim] qildim; [kərding] ko'rding, [bərding] boring; [əytt'] aytdi, [qildi] qildi; ko'pligi [-m's// -mis// -miz; (')ng// -s's// -sis// siz, -nər// -nor; -'// -lər// -lor]: [ɔ:ŋg] oling, [keng] keling, [keləmis] kelamiz, [qiynəməymis] qiynamaymiz, [o'yləymis] o'ylaymiz; [keləs's] kelasiz, [bərɔsis] borasiz, [o'ynəysis] o'ynaysiz, [chiqinnar] chiqinglar, [kennər] kelinglar, [bərinnər] boringlar; [kelad'] keladi, [kelallar] keladilar, [bərɔdilor] boradilar kabi.

v) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda: – ko'plik qo'shimchalari [-lər// -lar// -lər]: [chevəllər] chevarlar, [y'plər] iplar, [quvillər//qybirlər] quvurlar, [g'o'rəlr] dovuchchalar, [kərpəchələr] ko'rpachalar, [qərvəllər] qorovullar, [bəllər] bolalar,

[təllər] tollar, [dʲvəllər] devorlar kabi.

– sifatdosh qo'shimchasi [-gan// -kən// -qon// -g'on]: [d'gən] degan, [əytkən] aytgan, [chiqqən] chiqqan, [bərgən] borgan kabi.

– ravishdosh qo'shimchalari [-(i)p; -g'əni// -gən'// -kən']: [tur'p] turib gapir, [o'q'p] o'qib ko'r; [bo'g'ip] bo'g'ib, [og'oni] olgani, [urg'oni] urgani, [qog'oni] qolgani, [borg'oni] borgan, [ko'rgan] ko'rgani, [bergan] bergani, [aytkən] aytgani, [ekkən] ekkani keldik kabi.

Xulosa

Xullas, Namangan qipchoq va qarluq lahjalarida ham ko'pgina so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi affikslar o'zlarining kontrast juftlariga ega. O'zak tarkibida til orqa unli mavjud bo'lsa, qo'shimcha iarkibidagi unli ham qattiq, til oldi unli mavjud bo'lsa, yumshoq talaffuzga ega bo'ladi.

Lab garmoniyasi. Lab garmoniyasi qonuniga muvofiq o'zakning birinchi bo'g'inida lablashgan unlilardan biri bo'lsa, so'nggi bo'g'inlardagi unlilar ham lablashadi.

Namangan qipchoq shevalarida lab garmoniyasi qonuni, oz bo'lsa-da, mavjud. Lablanish hodisasi birinchi, ikkinchi bo'g'inlarda sezilarli bo'lib, uchinchi va so'nggi bo'g'inlarga o'tishi sporadik. Lekin lab garmoniyasi mufassal saqlangan oltoy va qirg'iz tillaridan keskin farq qiladi. Mazkur tillarda affikslar faqat qattiq yoki yumshoqligi bilan emas, balki lablangan va lablanmaganligi bilan ham ajralib turadi.

Namangan qipchoq lahjalarida affikslarning faqat qattiq va yumshoq variantlari mavjud bo'lib, sistemali emas. E'tibor qiling:

1-jadval

	Namangan qipchoq shevalarida	Adabiy tilda
u – u	<i>uryv, syyyq, tuvʻyshqon</i>	uruv (devor urish), suyuq, tug'ishgan
ə – ʏ	<i>qurydi, ɵrym, ɵkʏn, ɵkʏlota</i>	quridi, o'rim (soch), o'kinmoq, vakilota
ʏ – ʏ	<i>kʏkʏn, tʏʏʏn, ʏʏʏʏr</i>	kukun, tugun, yugur
ʏ – ə	<i>kʏʏɵv, sʏrɵv'</i>	kuyov, surobi (<i>surobi tortilmoq</i>)

Ko'rinadiki, Namangan qipchoq lahjalarida labial singarmonizmning faqat [u-u, ʏ-ʏ, ə-ʏ] va qisman [ʏ-ə] ko'rinishlari mavjud bo'lib, qolgan [v-v, u-ʏ, o-ʏ, o-ʏ] tiplari yo'q, uchramaydi.

Avvalgilari ham juda chegaralangan bo'lib, sanoqli so'zlardagina (aksariyat "j"lovchilarda) ishlatiladi.

Tarkibida lablashgan unli bo'lgan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shimcha qo'shilganda lablanish sodir bo'ladi: [yr+dyq] (urdik), [tyr+yng] turing, [yvr+yp] yurib, [təl+up] to'lib kabi.

Namangan qipchoq shevalarida sporadik holatda lablanish hodisasi ikkinchi va uchinchi bo'g'inlarga o'tishi kuzatiladi: [ygyryk] yugurik qo'l, musht, [kyynyk] achinarli, hafagarchilik, [syynyv] xursandchilik, [bylyndyryq] tumanli qirov, [syrgyrych] shiringuruch, [chygyrchyq], [tytyryq] kabi. Lab garmoniyasining amal qilish doirasi chegaralangan.

Xullas, singormonizm qonuniyati Namangan qipchoq shevalari arealida fonetik-fonologik strukturasidagi o'ziga xosliklar asosida amal qiladi. Dialektalarealning qarluqlahjaliguruh va shoxobchalarda unlilarning sifat va miqdor jihatidan farqlari, tovushning anotomik-fiziologik jihatlari va sheva etnogenezi umlaut hodisasini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Namangan shahar tip shevalari shoxobchasi fonematik bo'lmagan mutlaqo boshqa hodisa – emfatik cho'ziqlikka egaligi uchun umlaut shahar shevasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Singarmonizm Namangan qipchoq shevalarida unli tovushlar miqdori, artikulyatsion o'rni va talaffuzida alohida farqlarni yuzaga keltiradi. Shevadagi nazalizatsiyaning kuchliligi singormonizmni yanada yaqqol ko'rsatadi, zero nutqiy voqelanishda sintagmatik munosabatlar orqali unlilar sifatini undoshlar, o'z navbatida, undoshlar sifatini esa unlilar belgilab beradi.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Ф. 1967. *Фонетика*. Ташкент: Фан, 380.
- Абдуллаев, Ф.А. 1967. *Фонетика хорезмских говоров*. Ташкент: Фан, 345.
- Абдуллаева, Д. 1999. *Ўзбек тили Ошоба шевасининг фонетик хусусиятлари*. Филол. фан. номз. ...дис. автореф. Тошкент.
- Алиев, А. Ю. 1975. *Наманганская группа говоров узбекского языка*. Автореф. дис. ...док. фил. наук. Ташкент.
- Атамирзаева, С. 1974. *Экспериментально-фонетическое исследование наманган-ского говора узбекского языка*. Ташкент.
- Баскаков, Н.А. 1952. "К вопросу о классификации тюркских языков". Изв. АН СССР XI, Вып. 2. Москва.
- Боровков, А.К. 1946. *К характеристике узбекских "умлаутный" или "уйгуризо-ванных" говоров*. Фрунзе.
- Боровков, А.К. 1963. *Узбекские говоры Наманганской области*. Ташкент.

- Ишаев, А. 1959. “Манғит шевасида ассимиляция ва диссимиляция”. Тил ва адабиёт масалалари 3, 54-69.
- Ишаев, А. 1961. “Манғит шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари”. Ўзбек диалектологиясидан материаллар II, 465. Тошкент: Фан.
- Жамолхонов, Ҳ. 2008. *Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қитоб*. Тошкент.
- Кононов, А.Н. 1960. *Грамматика современного узбекского литературного языка*. Москва: Издательство Академии наук СССР.
- Миртожиев, М.М. 2013. *Ўзбек тили фонетикаси*. Тошкент: Фан, 485.
- Мусабаев, К. М. 1964. *Грамматика караимского языка*. Москва: Наука.
- Набиева, Д. 2005. *Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши*. Тошкент: Шарқ.
- Нурмонов, А. 2012. *Танланган асарлар. II жилд*. Тошкент: Akademnashr.
- Отамирзаева, С. 1963. *Звуковой состав Наманганского говора узбекского языка*. Ташкент.
- Отамирзаева, С. 1974. *Экспериментально-фонетическое исследование Наманганского говора узбекского языка*. Ташкент.
- Поливанов, Е.Д. 1933. *Узбекская диалектология и узбекский литературный язык*. Ташкент: Уз. Госиздат.
- Поливанов, Е. Д. 1935. *Материалы по грамматике узбекского языка. I. Введение*. Ташкент.
- Қошғарий, М. 1960. *Девону луғотит турк. I*. Тошкент.
- Решетов, В. В. 1959. *Узбекский язык. I*. Ташкент: Уз. Госиздат.
- Решетов, В., Шоабдурахмонов, Ш. 1978. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент: Ўқитувчи, 326.
- Тенишев, Э. Р. 1976. *Строй саларского языка*. Москва.
- Трубецкой, Н.С. 1987. *Избранные труды по филологии. Фонология и лингвистическая география*. Москва: Прогресс. 516.
- Трубецкой, Н.С. 2000. “Основы фонологии”. Пер. с немец. А.А.Холодовича; Подред. С.Д.Канциельсона. Москва: Аспект Пресс. 352.
- Тургунов, А. 1969. *Фонетическая структура балыкчинской группы говоров узбекского языка*: Автореф. дис. ...канд. фил. наук. Ташкент.
- Умаров, Э. 1994. “Ўзбек тилида тил олди товушлари борми”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 36.
- Хамраев, Х. 1973. *Основные фонетические особенности Кашкадарьинских говоров узбекского языка*. Ташкент.
- Юдахин, К.К. 1950. “Узбекско-уйгурские языковые связи”. Изв. АН КазССР, № 86. Серия уйгуро-дунганской культуры. Вып. I. Алма-Ата.
- Юдахин, К.К. 1958. “Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик”. *Ўзбек тили ва адабиёти масалалари*, №1. 24-32.
- Звегенцев, В.А. 1965. “История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях”. Тезисы Пражского лингвистического кружка. В книг. Част II. Москва: Просвещение.
- Шерматов, А. 1981. *Лингвистик география нима?* Тошкент: Фан.

- Шаабдурахманов, Ш. 1971. *Ўзбек шевалари, улар ҳақида умумий маълумот. Ўзбек халқ шевалар луғати*. Тошкент.
- Щербак, А. М. 1970. *Сравнительная фонетика тюркских языков*. Ленинград.

Ibrohim Darvishov

(Namangan, Uzbekistan)

ibmofifar@bk.ru

Phonetic Patterns Associated with Vowels in Namangan Dialects

Abstract

At present, there are all opportunities and opportunities for the Uzbek linguistics in the implementation of reforms for the development of our society. At the same time, the study of the features of Uzbek dialects based on theoretical foundations of range linguistic research has been identified as one of the priority areas of historical-comparative and ethno linguistic research. The field consists of imperfect, simple descriptive and visual aspects, and there is an urgent need to study and fill the abstract positions on the basis of new perspectives.

The study of the Turkic language initiated by Mahmud Kashghariy by means of iral-typological and are-linguistic methods, the study of the poems, their peculiarities, is the starting point of any linguistic theories and concepts. The emergence of Areal linguistics has opened the way for a new assessment and solution of new problems and concepts in the field of dialectology. The fact that historical, comparative and ethno linguistic research has been identified as one of the priority areas for integrating the language system into the theoretical foundations of dialects and dialects imposes new responsibilities on Uzbek linguistics and Uzbek linguists.

The article discusses the peculiarities of Namangan kipchak and early dialects, the historical genesis of the vowel system, the distribution and range of action. The phonetic-phonological linguistic characteristic of dialect and the processes of occurrence of regularities are described in comparative-historical terms. It contains thoughts on the singularize of the kipchak dialects related to the Turkish vowels and the events of umlaut in the dialects of old age.

Key words: *ethnic language, dialect, kipchak, and dialect, historical change in phonetic, lexical and grammatical content, singonism law, umlaut, labial, phonetic weakness, palate and lip harmony, nasalization.*

About the author: *Ibrohim Darvishov* – Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Namangan State University.

Recommended citation: Darvishov, Ibrohim. 2020. "Phonetic patterns associated with vowels in Namangan dialects". *Golden scripts* 2: 49—68.

References

- Abdullayev, F. 1967. *Fonetika*. Tashkent: Fan.
- Abdullayev, F.A. 1967. *Fonetika xorezmskix govorov*. Tashkent: Fan.
- Abdullayeva, D. 1999. *O'zbek tili Oshoba shevasining fonetik xususiyatlari*. Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. Toshkent.
- Aliev, A. Y. 1975. *Namanganskaya gruppа govorov uzbekskogo yazika*. Avtoref. dis. ...dok. fil. nauk. Tashkent.
- Atamirzaeva, S. 1974. *Eksperimentalno-foneticheskoe issledovanie namangan-skogo govora uzbekskogo yazika*. Tashkent.
- Baskakov, N.A. 1952. "K voprosu o klassifikatsii tyurkskix yazikov". *Izv. AN SSSR XI, Vip. 2*. Moskva.
- Borovkov, A.K. 1946. *K xarakteristike uzbekskix "umlautniy" ili "uygurizovannix" govorov*. Frunze.
- Borovkov, A.K. 1963. *Uzbekskie govori Namanganskoy oblasti*. Tashkent.
- Isxakov, G. 1968. *Garmoniya glasnix v tyurkskix yazikax*. ISGTYA, I.
- Ishaev, A. 1959. "Mang'it shevasida assimilyatsiya va dissimilyatsiya". *Til va adabiyot masalalari* 3: 54-69.
- Ishaev, A. 1961. "Mang'it shevasining ba'zi bir fonetik xususiyatlari". *O'zbek dialektologiyasidan materiallar II*, 465. Toshkent: Fan.
- Ishaev, A. 1990. *O'zbek dialektal leksikografiyasi*. Toshkent: Fan.
- Jamolxonov, H. 2008. *Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-kitob*. Toshkent.
- Kononov, A.N. 1960. *Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika*. Moskva: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR.
- Mirtojiev, M.M. 2013. *O'zbek tili fonetikasi*. Toshkent: Fan. 485.
- Musabaev, K. M. 1964. *Grammatika karaimskogo yazika*. Moskva: Nauka.
- Nabieva, D. 2005. *O'zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylilik dialektikasining namoyon bo'lishi*. Toshkent: Sharq.
- Nurmonov, A. 2012. *Tanlangan asarlar. II jild*. Toshkent: Akademnashr.
- Otamirzaeva, S. 1963. *Zvukovoy sostav Namanganskogo govora uzbekskogo yazika*. Tashkent.
- Otamirzaeva, S. 1974. *Eksprementalno-foneticheskoy issledovanie Namangan-skogo govora uzbekskogo yazika*. Tashkent.
- Polivanov, Y.D. 1933. *Uzbekskaya dialektologiya i uzbekskiy literaturniy yazik*. Tashkent: Uz. Gosizdat.
- Polivanov, Ye. D. 1935. *Materiali po grammatike uzbekskogo yazika. I. Vvedenie*. Tashkent.
- Qoshg'ariy, M. 1960. *Devonu lug'otit turk. I*. Toshkent.
- Reshetov, V. V. 1959. *Uzbekskiy yazik. I*. Tashkent: Uz. Gosizdat.
- Reshetov, V., Shoabdurahmonov, Sh. 1978. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi. 326.

- Tenishev, E. R. 1976. *Stroy salarskogo yazika*. Moskva.
- Trubeskoy, N.S. 1987. *Izbrannie trudy po filologii. Fonologiya i lingvisticheskaya geografiya*. Moskva: Progress. 516.
- Trubeskoy, N.S. 2000. "Osnovy fonologii". Per. s nemes. A.A.Xolodovicha; Podred. S.D.Kansielsona. Moskva: Aspekt Press. 352
- Turgunov, A. 1969. *Foneticheskaya struktura balikchinskoy gruppi govorov uzbekskogo yazika*: Avtoref. dis. ...kand. fil. nauk. Tashkent.
- Umarov, E. 1994. "O'zbek tilida til oldi tovushlari bormi". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 36.
- Xamraev, X. 1973. *Osnovnie foneticheskie osobennosti Kashkadarinskix govorov uzbekskogo yazika*. Tashkent.
- Yudaxin, K.K. 1950. "Uzbeksko-uygurskoe yazikovie svyazi". Izv. AN KazSSR, № 86. Seriya uyguro-dunganskoy kulturi. Vip. I. Alma-Ata.
- Yudaxin, K.K. 1958. "O'zbek va uyg'ur xalqlari tillaridagi yaqinlik". *O'zbek tili va adabiyoti masalalari*, №1. 24-32. – Toshkent: O'zFA.
- Zvegensev, V.A. 1965. "Istoriya yazikoznaniya XIX-XX vekov v ocherkax i izvlecheniyax". Tezisi Prajskogo lingvisticheskogo krujka. V knig. Chast II. Moskva: Prosveshenie.
- Shermatov, A. 1981. *Lingvistik geografiya nima?* Toshkent: Fan.
- Shaabduraxmanov, Sh. 1971. *O'zbek shevalari, ular haqida umumiy ma'lumot. O'zbek xalq shevalar lug'ati*. Toshkent.
- Sherbak, A. M. 1970. *Sravnitel'naya fonetika tyurkskix yazikov*. Leningrad.

Eldor Asanov*(Toshkent, O'zbekiston)*

eldarassanov82@gmail.com

O'rta Osiyo turk-run yodgorliklarida kelishik kategoriyasi

Abstrakt

Qadimgi turkiy tildagi kelishik kategoriyasini o'rganish tilshunoslikda uzoq tarixga ega. Turkiy tillarda gap qurilishida muhim o'rin tutadigan ushbu grammatik kategoriya ko'pchilik grammatikalarda, umumiy xarakterdagi monografiyalarda chuqur ko'rib chiqiladi. Shunga qaramay, ismli turlanishning kelishikli paradigmasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar juda kam. Runik bitiklar korpusining uncha katta bo'lmagan va yaxshi o'rganilmagan qismlaridan biri bo'lmish O'rta Osiyo topildiqlarining tiliga bag'ishlangan tadqiqotlar esa deyarli yo'q. Ulardagi kelishik kategoriyasini olimlardan hech kim maxsus o'rganmagan, ularning kelishik tizimi rekonstruktsiya qilinmagan.

Taklif etilayotgan maqola ushbu kamchilikni muayyan darajada to'ldirishga xizmat qiladi. Unda O'rta Osiyo turk-run yodgorliklarida kelishik shakllari ko'rib chiqiladi. To'plangan material asosida mintaqada islomgacha bo'lgan davrda tarqalgan turkiy dialektlarning kelishik tizimi rekonstruktsiya qilinadi.

Olingan natijalarga ko'ra, VIII asr O'rta Osiyo turkiy-runik matnlarda kelishikning olti turi uchraydi. Ularning barchasi qadimgi turk tilining boshqa yozma korpuslari – O'rxun va Enasoy matnlarida uchraydi. Shu bilan birga, O'rxun va qisman Enasoy matnlarida uchraydigan ayrim kelishik qo'shimchalari ko'rib chiqilayotgan bitiklarda uchramaydi. Maqolada buning sabablari haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo, Talas, turkiy bitiklar, runik yozuv, Farg'ona bitiklari, kelishik, bosh kelishik, chiqish kelishigi, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi.*

Muallif haqida: *Eldor Asanov – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi kichik ilmiy xodimi.*

Tavsiya etiladigan havola: *Asanov, Eldor. 2020. "O'rta Osiyo turk-run yodgorliklarida kelishik kategoriyasi". Oltin bitiglar 2: 69—84.*

Kirish

Qadimgi turk tillaridagi kelishik kategoriyasini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud emas. Ilgarigi ishlarimizning birida aytib o'tilganidek [Asanov 2014, 312–315], bu borada eng “omadli” so'z turkumi fe'l va uning grammatik kategoriyalarini alohida o'rganishga turkologiyada e'tibor qaratilgan. Xususan, o'tgan asrning 70–80-yillarida Sh. Shukurov turli davr va hududga mansub matnlarda fe'lning mayl va zamon shakllariga oid monografiya va maqolalar yaratgan edi [Shukurov 1970]. Fe'lning funksional shakllari haqida tadqiqotlardan eng diqqatga sazovori sifatida M. Erdalning tadqiqotini eslash mumkin [Erdal 1998, 53–68]. Turkologlarning boshqa so'z turkumlariga bo'lgan munosabatini esa asosan, tarixiy grammatikaga bag'ishlangan tadqiqot va qo'llanmalardan bilishimiz mumkin. Ammo bunday xarakterdagi kitoblarda qadimgi turk tillaridagi ismlarning grammatik kategoriyalari yaxshi o'rganilmagani yaqqol namoyon bo'ladi. Masalani kelishik kategoriyasi o'rnagida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularning aniq tizimi ishlab chiqilmaganini, kelishiklar sonini har xil mualliflar turlicha ko'rsatishini, bir xil ko'rsatkichlar turli manbalarda boshqa-boshqa kelishiklarga tegishli deb ta'riflanishini kuzatishimiz mumkin. Quyida buning sabablarini ko'rib chiqamiz.

O'tgan asrning 80-yillaridagi eng mukammal grammatika muallifi A.N. Kononov o'n bitta kelishikni ajratib ko'rsatadi¹ [Kononov 1980, 149].

Olim ba'zan kelishik shakllari qatoriga ekvativ (kvantitativ, +čA) ham kiritilishini aytib o'tsa-da, buning uchun yetarli asos topmaydi [Kononov 1980, 149].

¹ Maqolada kelishik ko'rsatkichlari transkripsiyasini berishda quyidagi shartli belgilar qabul qilingan:

- *k* barcha pozitsiyalarda *q* va *k* o'rin almashishi mumkinligini ko'rsatadi;
- *g* barcha pozitsiyalarda *ğ* va *g* o'rin almashishi mumkinligini ko'rsatadi;
- katta unli ushbu pozitsiyadagi unli o'zak morfemaning vokal kontekstiga qarab old yoki orqa qatorga o'tishi mumkinligini ko'rsatadi;
- *V* ushbu pozitsiyada unli, qator almashtirishdan tashqari, kvadrat labial singarmonizmga ham uchrashi mumkinligini ko'rsatadi.

№	Kelishik nomi	Ko'rsatkichlar	
		Undoshlardan keyin	Unlilardan keyin
1.	bosh kelishik (nominativ)	–	–
2.	tushum (akkuzativ)	<i>+Ig, +Ug +In, +nI</i>	<i>+g, +n, +nI</i>
3.	jo'nalish-o'rin-payt (dativ-lokativ)	<i>+kA, +A</i>	<i>+kA</i>
4.	o'rin-payt-chiqish (lokativ-ablativ)	<i>+tA, +dA</i>	<i>+dA</i>
5.	chiqish (ablativ)	<i>+tAn, +dIn</i>	<i>+dIn</i>
6.	instrumentalis-birgalik (instrumentativ-komitativ)	<i>+In</i>	<i>+n</i>
7.	qaratqich (genitiv)	<i>+In, +Ig</i>	<i>+nIn</i>
8.	yo'naltirish (direktiv)	<i>+rV</i>	
9.	o'rin-payt-yo'naltirish (lokativ-direktiv)	<i>+rA</i>	
10.	jo'nalish-yo'naltirish (dativ-direktiv)	<i>+gAr, +gAr</i>	
11.	jo'nalish-chegaralash (dativ-terminativ)	<i>+yA</i>	

Ro'yxatga run matnlarida kuzatilgan barcha kelishik qo'shimchalarni xronologik va dialektal differentsiatsiyasiz kiritilganki, ular bir standartlashtirilgan tilda yaxlit tizimni tashkil qilgan, degan tasavvur uyg'onadi. Lekin, aytaylik, sof ablativ ko'rsatkichi *+dIn* qadimgi *uyg'ur* tilining, u orqali qarluq tillarining innovatsiyasi bo'lib, ungacha iste'molda bo'lgan yozma me'yorda uchramaydi. Ikkinchi Sharqiy Turk xoqonligiga mansub bitiktoshlarda ablativ ma'nosi odatda *+dA* vositasida ifodalanadi. Ya'ni bu ikkala kelishik bir davrda, bitta idiom doirasida mavjud bo'lmagan. Diaxroniyani va areal tafovutlarni chetga surib qo'ygan

holda hamma kelishiklarni bir tasnif ichiga “uyish”dan iborat bunday metodika o’zini oqlaydimi? Javobni keyingi tasniflardan qidirib ko’ramiz.

I.V. Kormushin 2004-yili chop etilgan kitobida qadimgi turk tilida to’qqizta kelishik bor deb ta’kidlaydi [Kormushin 2004, 276–277]:

2-jadval

№	Kelishik nomi	Ko’rsatkichlar	
		O’timli shakli	O’timsiz shakli
1.	bosh kelishik (nominativ)	–	–
2.	undash (vokativ)	+A	
3.	qaratqich (genitiv)	+In, +nIn	+in
4.	tushum (akkuzativ)	+Ig, +nI	+In, +n
5.	jo’nalish (dativ)	+kA, +gA	+nA
6.	o’rin-payt-chiqish (lokativ-ablativ)	+dA, +tA	+ntA, +ndA
7.	yo’naltirish (direktiv)	+gArU	+nArU
8.	instrumentalis-birgalik (instrumentativ-komitativ)	+In	
9.	o’xshatish-taqqoslash (ekvativ)	+čA	

Ikki jadval qiyoslaganda tafovut nechog’li katta ekani anglashiladi. I. V. Kormushin nafaqat kelishiklar sonini to’qqiztagacha qisqartiradi, balki o’z tasnifiga A.N. Kononov kelishik deb tan olmagan ekvativ shaklini ham kiritadi. Kelishiklarning nomi va ko’rsatkichlari ham bir qadar o’zgaradi. To’rt yildan so’ng nashr qilingan “Тюркские енисейские эпитафии. Грамматика. Текстология” nomli monografiyasida olim shu jadvalni takroran keltiradi [Кормушин 2008, 184]. Bir narsa diqqatni tortadi: O’rxun matnlarida mavjud +gArU Enasoy manbalarida uchramasa-da, o’zga kelishiklar bilan bir safga qo’yilgan. Shunday ekan, O’rxun qabrtoshlarida ishlatiladigan boshqa ikkilamchi kelishiklar nega jadvaldan o’rin olmadi?

2004-yili nashr qilingan yana bir yirik tadqiqot – M. Erdalning “A Grammar of Old Turkic” kitobi zamonaviy lingvistik nazariyalarga tayangan holda tuzilgan bo’lib, strukturasi va metodikasi I. V. Kormushinning ishlaridan bir qadar farqlanadi. M. Erdal qadimgi

turk tillaridagi kelishiklar sonini o'n ikkitaga yetkazadi; bunda ayrim formantlarni o'zgacha talqin qilibgina qolmay, yangilarini ham kiritadi. Similyativ (+lAyU), komitativ (+llgU), formativ (+dln/+tln) shular jumlasidandir [Erdal 2004, 179–182].

3-jadval

№	Kelishik nomi	Ko'rsatkichlar
1.	nominativ	–
2.	genitiv	+ (n)Vη, +Vη, + nXg
3.	akkuzativ	+Vg, +g, +nl
4.	dativ	+kA, +gA
5.	lokativ	+dA, +tA
6.	ablativ	+dln, +dAn, +dA
7.	instrumentativ	+Vn, +ln
8.	ekvativ	+čA, +čl, +čU
9.	direktiv	+gArU, +kArU
10.	direktiv-lokativ	+rA, +yA
11.	similyativ	+lAyU
12.	komitativ	+llgU, +lVgU, +lUgUn
13.	yo'naltiruvchi formativ	+dVn, +tVn, +dln, +tln

Ko'rinib turganidek, M. Erdal keltirgan variant hozircha qadimgi turkiy til kelishik tizimining eng katta ro'yxati bo'lib turibdi. Erdal klassifikatsiyasining nisbatan mufassalligiga sabab shuki, A.N. Kononov va I. V. Kormushin runik xatda bitilgan qadimgi turk tili yodgorliklarini tahlil qilgan. M. Erdal esa o'z tahliliga, runikadan tashqari, *uyg'ur* xatidagi matnlarni, moniylikka oid yodnomalarni, shuningdek, Qoraxoniylar davri badiiy adabiyoti namunalarini jalb qilgan. *Uyg'ur* matnlaridan material sifatida foydalanilishini qadimgi turk tili yodgorliklarining ko'proq guruhlarini o'rganish ishtiyoqi bilan izohlash mumkin bo'lsa, "Qutadg'u bilig" singari islom davri kitoblariga murojaat etilishi yondashuvda, metodikadagi tafovutni aks ettiradi.

Darhaqiqat, ba'zi tadqiqotchilar qadimgi turkiy tilni keng ma'noda tushunib, *xoqoniyya* turkchasini ham uning doirasiga qo'shishiga, ba'zilar esa aksincha, O'rxun obidalarini bilan cheklanishni taklif qilishiga ko'p guvoh bo'lganmiz. Yondashuvlar har xil va ular turli argumentlarga asoslanadiki, obyektiv ravishda u yoki bu qarash to'g'ri, faqat mana shu guruh yodgorliklar qadimgi davrni aks

ettiradi deyish mushkul. Rostdan, "Qutadg'u bilig" tili hali qadimgi davrga, ayniqsa, *uyg'ur* matnlariga ancha yaqin turadi; aslida, *uyg'ur* hujjatlarining juda katta qismi yo *xoqoniyya* hujjatlariga zamondosh, yoki hatto undan keyingi davrga tegishli (XII–XIV asrlar). Bu turkiy idiomlar bir tekis rivojlanmaganini, bir davrda arxaik va ilg'or yozma me'yorlar yelkama-yelka mavjud bo'lganini, yangi an'ana eskisining qoldiqlari ustida emas, u bilan o'zaro aloqada va raqobatda yuzaga kelganini ko'rsatadi. Ya'ni aslida o'rta turkchani eski turkchaga bevosita davomchi deb hisoblash ham jiddiy metodologik va faktik muammolarni keltirib chiqaradi.

Xo'sh, qadimgi turkiy til nima? Faqat runik matnlar uchun ishlatilgan yozma me'yormi (deylik, *uyg'ur* yoki *tibet*, moniy matnlari ham runikadan farqli zamon, makon va madaniy kontekstga ega) yoki VIII–XI asrlarda turli geografik, madaniy va siyosiy muhitlarda mavjud bo'lgan yozuv an'analari majmuasimi? Bu savolga aniq javob yo'q. Shunday ekan, M. Erdalning tasnifi ham nisbatan to'liq deb hisoblash bu masalaga qanday yondashishga bog'liq. Ikkinchi nuqtai nazarni qabul qilsak, tasnif reallikni aks ettiradi; birinchi yondashuvda esa har bir yozma an'anani alohida tahlil qilish, runik, *uyg'ur* va hokazo matnlar uchun alohida tasniflar tuzib chiqish talab etiladi.

Yana bir masala. Arxaik davrda kelishikli paradigma bundan ham kattaroq va keng qamrovli bo'lgani va ko'proq funksiyalarni bajarani aytiladi. Bunday to'xtamga kelish uchun o'ziga yarasha asoslar bor. *Birinchidan*, qadimgi turkiy tilda hali ravishlar bo'lmagan, ular gapda ifodalaydigan grammatik ma'no kelishiklar yordamida hosil qilingan. *Ikkinchidan*, bu davrdagi turk tillari va dialektlarida hali yordamchi so'zlar ham juda oz edi; bugungi turkiy tillarda yordamchi so'z turkumlari zimmasiga yuklangan vazifalarni qadimda kelishiklar bajargan. Umuman, qadimgi turkiy davrda va hatto bugungi kunda ayrim ko'rsatkichlar kelishik vazifasini bajarishi borasida bahslar bor. Bu bahslar produktiv yakunga yetmagani, arxaik davr kelishik tizimining to'laqonli rekonstruksiyasi bo'yicha chuqur tadqiqotlar yo'qligi bois bu masalani tashlab ketamiz.

Endi o'zbek tilidagi grammatikalarga e'tibor qarataylik. Ularda keltiriladigan nazariy ma'lumotlarni yuqoridagilarga chog'ishtirsak, o'zbek fani bilan dunyo turkologiyasi orasidagi hayratlanarli darajada katta uzilishning guvohi bo'lamiz. Q. Sodiqovning kitoblaridan birida joy olgan ro'yxatga ko'ra, qadimgi turk tillarida yettita kelishik bor [Sodiqov 2006, 152]:

№	Kelishik nomi	Ko'rsatkichlar
1.	bosh kelishik	–
2.	qaratqich	$+nV\eta, +V\eta$
3.	jo'nalish	$+kA, +gA, +A, +gArU, +kArU, +gAr, +kAr, +rU, +rA$
4.	tushum	$+g, +Vg, +n, +nI, +I$
5.	o'rin-payt	$+dA, +tA$
6.	chiqish	$+dAn, +tAn, +dVn, +tVn, +dA, +tA$
7.	vosita	$+n, +Vn$

O'zbek tilidagi darslik va qo'llanmalarda bu ma'lumot deyarli o'zgarishsiz takrorlanadi¹.

Albatta, kelishiklar sonini belgilash tadqiqotchining yondashuviga, foydalanayotgan metodikasiga bog'liq. O'zbek olimlari o'tmishda qo'llangan ko'rsatkichlarni hozirgi tillarda mavjud kelishiklar qolipiga "joylashtirishga" intilsalar, rossiyalik va yevropalik tilshunoslar ularning grammatik ma'no nozikliklarini to'la ochishga, zamonaviy tillarga mo'ljal olmasdan, shakl va ma'no taraqqiyotini diaxronik aspektda kuzatishga harakat qiladi. Darhaqiqat, o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi $+dA$ o'tmishda ablativ ma'noga ham ega bo'lganini eslaylik; shunday ekan, qadimgi adabiy tilda ikkita kelishik butunlay izomorf ko'rsatkichga ega bo'lganmi, yoki ikkalasining xususiyatlarini o'zida jamlovchi alohida lokativ-ablativ mavjud bo'lganmi? Ushbu e'tiroflarning qay biri qadimgi turk tillarining obyektiv mohiyatini aks ettiradi? Bu kabi masalalarni hal qilish uchun keng miqyosda nazariy-metodologik muhokama olib borish talab etiladi. Lekin kelishikli turlanish paradigmasiga tegishli nazariy muammolarini to'la ko'rib chiqish tadqiqotimizdan ko'zda tutilgan maqsad bo'lmagani tufayli umumiy rakursdagi bibliografik sharhni shu o'rinda to'xtatamiz. O'ylaymizki, izlanishlarimizning quyida bayon qilingan natijalari tug'ilgan savollardan ayrimlarini ochiqlashda ko'mak beradi.

¹ Bu o'rinda hozirgi o'zbek adabiy tilining kelishik tizimi qadimgi turkiy tilga proeksiya qilinayotgani ko'rinib turibdi, ya'ni tadqiqotchi bugungi o'zbek adabiy tilida qabul qilingan kelishiklarni asos qilib olib, qadimgi turkiy tildagi kelishik ko'rsatkichlarini ularning orasida taqsimlab chiqyapti. Buni kelishiklar tasnifining boshqa metodi sifatida ham talqin qilish mumkin.

Tahlil

O'rta Osiyo run yodgorliklarida qo'llangan kelishiklarni tasniflagan birinchi tadqiqotchi I. A. Batmanov bo'ladi. U Talas bitiktoshlarida quyidagi kelishiklarni qayd etadi:

- 1) tushum (akkuzativ): *-g, -lg*;
- 2) birgalik-instrumentalis (komitativ-instrumentativ): *-In*;
- 3) jo'nalish-yo'naltirish (dativ-direktiv): *-A, -kA*;
- 4) chiqish (ablativ): *-tA* [Batmanov 1971: 57].

Olmoshlarda uchragan kelishiklar:

- 1) qaratqich (genitiv);
- 2) jo'nalish (dativ);
- 3) o'rin-payt (lokativ) [Batmanov 1971, 58–59].

Oxirgi o'n yilliklar mobaynida O'rta Osiyodan yana bir qancha yodgorliklar topildi, bitiklarning yangicha talqinlari ilgari surildi [Alimov 2008, 35–48; Alimov 2013, 17–38; Alimov 2014; Bazilhan 2014, 1–12]. To'planib qolgan material ko'pgina grammatik kategoriyalar qatorida kelishiklar haqidagi bilimlarimizni ham ancha to'ldiradi.

Nisbatan katta va to'liq matnlardan iborat Talas yodgorliklari hanuzgacha mintaqaga daxldor asosiy manba bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, tahlilga boshqa guruh yodgorliklarida uchragan o'rnaklar ham jalb qilindi. Qiyosiy material sifatida keng hududiy diapazondagi matnlarning olinishi esako'zdan kechirilayotgan yozma yodgorliklarining sanasi va dialekti masalasini aniqlashtirishda qo'l keladi.

Tadqiqotchilar orasida hali talay kelishiklarning xarakteri xususida bir to'xtamga kelinmagani sababli tahlil natijalarini tizimlashtirishda "ilmiy intuitsiya"ga suyanishga to'g'ri keldi, bu o'z navbatida bizning talqinimizdagi kelishiklar tipologiyasi bilan avval sharhlangan tasniflar o'rtasida kichik nomutanosiblikni yuzaga keltirdi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo run yozuvi yodgorliklarida qayd etilgan qiyosiy kelishiklar majmui tubandagicha manzara hosil qiladi:

- g e n i t i v – tegishlilikni bildirib, otlarning attributiv guruhida nopredikat aniqlovchi tarzida realizatsiya qilinadi. A.N. Kononov uni *izofa III* deb nomlab, bosh funktsiyalari sirasida tegishlilikni, sifatni va qismning butunga munosabatini ifodalashini ko'rsatib o'tadi [Kononov 2008, 161, 220].

Genitiv ko'rsatkichlarining taqsimlanishi bugungi o'g'uz tillaridagidek: undoshlardan keyin *+nVη*, unlilardan so'ng *+Vη*.

Run yodgorliklarida unli yozilmaydi, qadimgi *uyg'ur* va *xoqoniyya* tillari materiallaridan kelib chiqadigan bo'lsak, u yerda kvadrat singarmonistik o'zgarish sodir bo'lgan: lablashmagan singarmonik kontekstda *+nIŋ/+Iŋ*, lablashganlarida – *+nUŋ/+Uŋ*.

O'rxun bitiktoshlarida *+nIg/+Ig* ham ba'zan genitiv ma'no anglatadi [Kononov 2008, 149; Erdal 2004, 169].

I. A. Batmanov *+Iŋ* affiksi *sāniŋ* olmoshi tarkibida uchrashini yozadi [Batmanov 1971, 58]. Ammo R. Alimov bu so'zni āsiniŋ tarzida o'qishni taklif qiladi [Alimov 2013, 17–38]: *Qara Ćor: āsiz āsiniŋ ōzgā uyalarına adırılmış* (Talas-II, bundan keyin – T-I–XIV). Demak, bu so'zda ikkinchi shaxs birlik egalik qo'shimchasi qo'llangan deb hisoblash joiz.

Qo'chqor-XII yodgorligida *+Uŋ* shakli tiklanadi: *ayunŋ yatŋu ābi* [Alimov 2014, 174].

Qaratqich kelishigi talay o'rinlarda belgisiz qo'llangan: *atası atı Toğan, oŋlı atı Qara Ćor, kiĉig oŋlı atı Uŋut* (T-II); *yaŋı atı Qıyaŋan, atası atı Öteg* (T-X).

O'zbek tilida *+Iŋ* shakli faqat birinchi va ikkinchi shaxs birlik olmoshlarida saqlanib qolgan bo'lib, qolgan o'rinlarda adabiy me'yorga ko'ra *+nIŋ* ishlatiladi. Dialektal vaziyat boshqacharoq: o'g'uz va qipchoq lahjalarida *+nIŋ* affiksi saqlanib qolgan, qarluq lahjasida esa deformatsiyaga uchrab, tushum kelishigi qo'shimchasi *+nI'*ga to'g'ri kelgan.

- l o k a t i v – a b l a t i v – gapda qiyosiy to'ldiruvchining belgisi hisoblanadi. Formanti – *+dA*; *n, l, r* sonorlaridan keyingi pozitsiyada – *+tA*.

Talas yodgorliklarida bu affiks lokativ: *otuzunta itip ār atım Udun āsiz; qatunı Yāšinü anta tulı qalmış* (T-I); *uyalarumda at aĉ, öküž aĉ* (T-XIII), va ablativ bo'lib keladi: *özintä işinkä qalmaz* (T-I). Sho'rabashat yozuvida ablativ vazifasida: *Urı Uluŋ Apa Ökädä* [Harmatta 1988: 40]. Ko'zga tashlanadigan narsa – uchinchi shaxs egalik qo'shimchasidan so'ng *n* orttirilib, keyin *+tA* birikadi.

Mustaqil chiqish kelishigi IX–X asrlarda, kammahsul formativ (vaziyat kelishigi) suffiksi *+dIn/+tIn*'ning semantik siljishi o'laroq yuzaga kelgan [Erdal 2004, 181–182; SIGTYa 2002, 427]. Uning *+dIn* shakli *uyg'ur* xatidagi, *+dAn* shakli moniy xatidagi hujjatlarda qo'llanadi [Erdal 2004, 181–182]. *+dA/+tA* esa sekin-asta sof o'rinpayt mazmuniga og'a boshlaydi. Bugungi aksariyat turk tillarida undan doimo shu semantik doirada foydalaniladi, yoqut tili, ozarbayjon tilining ba'zi shevalari, xalaj tilidagi rudimentar hollar bundan mustasno [Kononov 1980, 157].

- d a t i v – d i r e k t i v kelishigida O'rxun bitiklarida egaliksiz ismlar *+kA* affiksini olsa, birinchi va ikkinchi shaxs egalik qo'shimchasidan keyingi pozitsiyada sistematik ravishda *+A* formanti keladi. Talas yodgorliklarida *+kA* shakli qayd qilingan bo'lib, jo'nalish semantikasini ifodalaydi: *özintä işinkä qalmaz* (T-I). Enisey matnlarida u dativ, O'rxun yodgorliklarida esa dativ va lokativ vazifalarni bajaradi.

+kA'ning invarianti *+A* biz ko'rayotgan matnlarda ablativga yaqin funksiyani bajaradi: *Qara Čor äsiz äsiniň özgä uyalarına adırılmış* (T-II); *otuz oğlan sağdıçlarına adırılmış* (T-XI). Bunda, lokativ-ablativda bo'lganidek, uchinchi shaxs egalik qo'shimchasidan so'ng pronominal *n* orttiriladi [Batmanov 1971, 57–58]. Bundan tashqari, u *+kA* va *+A*'ni dativ-direktivning ikki diaxronik ko'rinishi deb hisoblaydi. 2007-yili shunga yaqin fikr takroran ilgari surildi. V. Ponaryadovning kuzatishlariga qaraganda, Yenisey matnlarining A dialektida (shartli ravishda *qirqiz* deb nomlangan) ba'zi holatlarda *+A* qo'llanadi, B dialektida esa (*chik-az* tili) *+A* uchramaydi, lekin *+kA* sporadik jaranglilashadi: *+kA>+gA* [Ponaryadov 2007, 127–132]. Olim *qirqiz* dialektida *+kA* va *+A* o'rtasidagi farq xronologik shartlangan deb baholaydi. Darvoqe, I. V. Kormushin Enasoy tilini mutlaqo dialektlarga ajratmay, *+kA* "kechki yodgorliklarda jarangli variant kasb etgan" deb tushuntiradi [Kormushin 2008, 187].

Nazarimizda, mazkur jozibador gipoteza o'z isbotini topgan taqdirda dativ-direktivparadigma VII–IX asrlar turktili va shevalarida bir necha yo'llar bilan rivojlanganini ta'kidlashi mumkin: **+kA>+kA/+A* (O'rxun); **+kA>+kA>+A* (Enasoy-A, *qirqiz* tili); **+kA>+kA>+gA* (Yenisey-B, *chik-az* tili). Ayni paytda, O'rxun yodgorliklarida ham *+kA* allomorfi *+A* bilan joy almashib, turlanayotgan so'zshakllarda parallelizm hosil qiladi: *yaşıma=yaşımqa* (Bilga xoqon). Xullas, V. Ponaryadovning o'zi ta'kidlab o'tganidek, uzil-kesil xulosa qilinishi uchun izlanishlarni davom ettirish darkor.

–Talas yozuvlaridan ikkitasida a k k u z a t i v ko'rsatkichi dativ-direktiv o'rnida uchraydi: *atı Čor otuz oğlan sağdıçıǵ adırılmış* (T-IV); *otuz oğlan sağdıçıǵ qalmış* (T-VIII). Bu yerda dativ-direktiv kelishi kutilayotgan edi (*sağdıçlarına adırılmış* qabilida). Shunga ko'ra R. Alimov buni bitikchining xatosi deb baholaydi [Alimov 2014, 97]. Nima bo'lganda ham, shu orqali Talas yodgorliklari tilida akkuzativ qo'shimchasi *+Ig* bo'lganini bilamiz.

- e k v a t i v o'xshatish-taqqoslash kelishigi deb ham atalib, miqdor va sifat spetsifikasiga ko'ra solishtirish va o'xshatish ma'nosini bildiradi. Uning ko'rsatkichi *+čA*: *altı uyasınča bir qız sö-*

külüp öldü (T-II).

+čA qadimgi tillardayoq bo'ylama taqqos (obyektning bo'yi va uzunligini qiyoslash) ma'nosini yo'qotib bo'lgandi. Uning umumiy o'xshatish semantikasi birinchi planga chiqib, ko'plab ekvativ so'zshakllar ravishlar tarkibiga o'tgan. X-XV asrlarda sodir bo'lgan ismli so'zshakllarning yalpi adverbializatsiyasi jarayonida ko'rsatkichning o'zi ham o'g'uz, qipchoq va qarluq tillarida ismlarning so'z o'zgartiruvchi paradigmasidan ravishlarning so'z yasovchi affiksiga aylandi [Kormushin 2004, 282–283; Kormushin 2008, 192].

-instrumentativ-komitativ +In, +n ko'rsatkichlariga ega bo'lib, vosita (harakat kim yoki nimaning yordamida bajarilmoqda) hamda birgalik (harakat kim bilan birgalikda bajarilmoqda) ma'nolarini anglatgan [Kormushin 2004, 281–282; Kormushin 2008, 191]: *oğln beg atısı qalmış* (T-III).

Birgalik semantikasini kuchaytirish uchun ko'pincha “yana, va, bilan, -dan tashqari” ma'nolarini beruvchi [DTS: 609] *ulati* ko'makchisi bilan qo'llangan: *atasın anasın ulatı qaldım* (T-III); *qutluğ oğlanın ulatı qalmış* (T-IX).

Qadimda faol qo'llangan bu kelishik bugungi tillarda iste'moldan chiqib, leksikonda bir guruh nomahsul payt ravishlarini qoldirgan xolos [Kormushin 2004, 281].

Xulosa

Talas hamda unga yondosh hududlardan topilgan yozma yodgorliklarni o'rganish natijasida kelishik tizimi quyidagicha tiklanadi:

5-jadval

№	Kelishik nomi	Ko'rsatkichlar
1.	nominativ	–
2.	genitiv	*+nVη, *+Vη, +Uη
3.	lokativ-ablativ	+dA, *+tA, *+ndA, +ntA
4.	dativ-direktiv	+kA, +A
5.	Akkuzativ	+Ig
6.	Ekvativ	+čA
7.	instrumentativ-komitativ	+In, +n

Qadimgi turk tillaridagi oltita qiyosiy kelishikni qamrab olgan bu tizim, o'ylashimizcha, O'rta Osiyoda ilk asrlarda muomalada bo'lgan qadimgi turk idiomlarida turlanishning ismli paradigmasini

nisbatan to'liq aks ettiradi. Turlanishning boshqa struktur ko'rinishlarini o'rganish keyingi tadqiqotlarimiz uchun obyekt bo'ladi.

Turk-run korpusining boshqa guruh bitiklarida mavjud ba'zi kelishik morfemalari qayd qilinmadi:

+A – vokativ (undash kelishigi), Enasoy epitafiyalari kontekstida tilga olinadi. XI–XIII asrlarda iste'moldan chiqib, XIV–XVI asr adabiy tillarida uning joyini fors tilidan o'zlashgan *+ā* va *+ē* postpozitiv undovlari egallagan;

+gArU, *+kArU*, *+ηArU* – “kimningdir yoki nimaningdir tomoniga” degan ma'noni anglatuvchi ushbu kelishik shakli O'rxun yodgorliklarida uchraydi [Kormushin 2008, 191]. Bu asosda u yolg'iz O'rxun turkchasiga xos unikal kelishikli paradigma degan xulosaga kelish mumkin edi, lekin adverbializatsiya jarayonida turkiy tillarda hosil bo'lgan qotib qolgan kelishikli shakllar orasida uni ko'p uchratamiz: *ičkäri*, *ilgäri*, *taşqarı*; bu mazkur kelishik o'tmishda aksariyat dialektlarda tarqalganini ko'rsatadi;

+nI – keyinchalik turk tillarida tushum kelishigining tanho belgisiga aylangan ushbu suffiks VII–VIII asrlarda hali *+Ilg'a* raqobatni boy berayotgan edi [Kononov 1980, 151];

+dIn – yuqorida aytilganidek, IX–X asrlardan qayd etiladi;

+rI, *+rU* – sof direktiv, *+rA* – lokativ-direktiv va *+yA* – dativ-terminativ, *+gAr*, *+kAr*, *+ηAr* – dativ-direktiv, nafaol kelishiklar;

+IAyU – similyativ va *+IIgU* – komitativ, M. Erdal tomonidan ajratib ko'rsatilgan [Erdal 2004, 179-182].

Bir tarafdin, O'rxun tilidayoq ahamiyatini yo'qota boshlagan kelishiklarning, ikkinchidan, keyinchalik shakllanib, boshqa ekvivalentlarini siqib chiqargan *+nI* va *+dIn* allomorflarining yo'qligi Talas yodgorliklarining kechki datirovkasini (VIII asr) tasdiqlaydi.

Qaratqich kelishigining belgisiz ifodalanishi haqida so'z yuritgandik. Bizning tushunimizcha, bu Talas turklari qabrtoshlarga yozuv tushirishda ma'lum badiiy vositalardan foydalanganini dalillaydi. *+nVη* affiksini tushirib qoldirish matnning ravon o'qilishiga xizmat qilgan, shu tariqa ohangdorlikka erishilgan.

I. A. Batmanov uchinchi shaxs egalik negizlarida *n* orttirilishini “turlanishning qarluqcha tipiga xos emas” deb talqin qiladi [Batmanov 1971, 57–58]. Aslida, bu – o'rta asr qarluq adabiy tillarida uchraydigan, lekin nostabil fonetik hodisadir [Shcherbak 1962, 93].

I. A. Batmanovga ergashib, *+A* formantini *+kA* allomorfining kechki mahsuli deb hisoblasak, bu Talas tilini “yenisoylashtirish”da

yordamchi fakt bo'ladir. Vaholanki, bir necha marotaba amalga oshirilgan bunday urinishlarda yetarli argument topmadik¹. Taxminimizcha, O'rta Osiyo turk-run yodgorliklari kelishik tizimining mazmuniy qamrovi O'rxun tilidagi holatga yaqinroq. To'g'ri, bu xulosalarning bari fakultativdir (ishchi gipoteza tartibida), bir yechimga kelishga esa hozircha manbalarining kamligi to'sqinlik qilmoqda.

Talas yodgorliklarida boshqa turk-run yozma tillari me'yorlaridan og'ish aytarli sezilmaydi. Qaratqichning *ayuŋ* so'zi tarkibida qayd etilgan *+Uŋ* varianti lablashmagan singarmonik kontekstda lablashgan unlining qo'llangani bilan diqqatga sazovor. Bu hodisa o'rta asr o'g'uz manbalariga xos xususiyatdir. Mazkur detal eng kamida ichki dialektal bo'linish borligiga ishora qiladi. Bundan kengroq masala – mintaqada tarqalgan lahjaning boshqa o'lkalardagidan farqlarini ochib berish uchun tilning barcha sathlarini birdek sinchiklab o'rganib chiqish lozim.

Adabiyotlar

I

ДТС – Древнетюркский словарь. 1969. Ленинград.

СИГТЯ – Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Т. V. Региональные реконструкции. 2002. Москва.

II

Alimov, R. 2008. "Eski Türk Runik Metinleride Geçen Bir Acınma Ünlemi Üzerine". *Türk Dilleri Araştırmaları* 18: 35–48.

Alimov, R. 2013. "Eski Türk Runik Metinlerideki Esiz Üzerine". *TAED*: 17–38.

Alimov, R. *Tanrı Dağı Yazıtları. Eski Türk Runik Yazıtları Üzerine Bir İnceleme*. 2014. Konya.

Асанов, Э. 2014. "Ўрта Осиё туркий битикларида феълнинг майл ва замон шаклларининг қўлланиши хусусида". *ЎзМУ хабарлари* 2: 312–315.

Батманов, И.А. 1971. Таласские памятники древнетюркской письменности. Бишкек.

Батманов, И.А. 1959. Язык енисейских памятников древнетюркской письменности. Бишкек.

¹ Masalan, I.A.Batmanovda Talas yodgorliklari tilining Yenisey tili bilan ayniyati hech qanday shubha tug'dirmaydi: Qirg'iziston run epigrafikasini tavsiflashda chog'ishtirma material qilib Yenisey matnlari olinadi, ularda uchramagan sonlar Yeniseydagilari bazasida tiklanadi, hatto run xatining mintaqaga kirib kelishi ham Yenisey *qirgizlari* bilan bog'lanadi [Batmanov 1959, 12].

- Erdal, M. 1998. "On the Verbal Noun in -(y)Iş". *Doğan Aksan Armağanı*: 53–68.
- Erdal, M. 2004. *A Grammar of Old Turkic*. Leiden–Boston.
- Harmatta, J. *Doğu Avrupa'da Türk Oyma Yazılı Kitabeler*. 1988. Ankara.
- Кононов, А.Н. 1980. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII–IX вв. Ленинград.
- Кормушин, И.В. 2004. Древние тюркские языки. Абакан.
- Кормушин, И.В. 2008. Тюркские енисейские эпитафии. Грамматика. Текстология. Москва.
- Napil, Bazilhan. 2014. "Kazakistan'da Bulunan Göktürk yazıtları hakkında". *Teke* 3/2: 1–12.
- Понарядов, В.В. 2007. "Диалектная дифференциация в древнетюркском языке Енисейских рунических надписей". *Вопросы языкознания* 2: 127–132.
- Содиқов, Қ. 2006. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. Тошкент.
- Шукуров, Ш. 1970. Феъл тарихидан. Қадимги туркий ёдгорликлар тилида майл ва замон формалари. Тошкент.
- Щербак, А.М. Грамматика староузбекского языка. 1962. Москва–Ленинград.

Eldar Asanov

(Tashkent, Uzbekistan)

eldarassanov82@gmail.com

Case Forms in Turkic Runiform Inscriptions from Central Asia

Abstract

The studying of the case category in the Old Turkic language has a long history in linguistics. This category, which is important in the sentence structure of Turkic languages, is thoroughly examined in most grammars and monographs of a general character. Despite this, there are very few researches on the case paradigm of nominal declension. Studies on the language of one of the small and poorly studied groups of the corpus of runic texts – Central Asian findings are very few as well. None of the scientists have yet conducted special research on the case category in them, have not reconstructed their case system.

This article is dedicated to filling this gap to some extent. It discusses

about the case forms in Turkic runiform inscriptions from Central Asia. The attempt to reconstruct the case system of Turkic dialects spread in the region has been taken on the basis of the collected data.

According to the taken results, there were six case forms in Turkic runiform inscriptions from Central Asia of VIII century. All of them are similar with the forms that were identified in other corpuses of documents in Old Turkic language – Orkhon and Yenisey texts.

At the same time, some of case forms determined in Orkhon and Yenisey texts were not found in mentioned inscriptions. The article contains some versions of explanation for this situation.

Key words: *Central Asia, Talas, Turkic inscriptions, runic script, Fergana inscriptions, Grammatical Case, Nominative Case, Ablative Case, Genitive Case, Accusative Case.*

About the author: *Eldar Asanov* – Junior Researcher of the National Center for Archaeology, Academy of Science of the Republic of Uzbekistan.

Recommended citation: Asanov, Eldar. 2020. "Case Forms in Turkic Runiform Inscriptions from Central Asia". *Golden scripts* 2: 69—84.

References

I

DTS – Drevnetyurkskiy slovar. 1969. Leningrad.

SIGTYA – Sravnitel'no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazikov. T. V. *Regionalnie rekonstruktsii.* 2002. Moskva.

II

Alimov, R. 2008. "Eski Türk Runik Metinleride Geçen Bir Acınma Ünlemi Üzerine". *Türk Dilleri Araştırmaları* 18: 35–48.

Alimov, R. 2013. "Eski Türk Runik Metinlerideki Esiz Üzerine". *TAED*: 17–38.

Alimov, R. *Tanrı Dağı Yazıtları. Eski Türk Runik Yazıtları Üzerine Bir İnceleme.* 2014. Konya.

Asanov, E. 2014. "O'rta Osiyo turkiy bitiklarida fe'lning mayl va zamon shakllarining qo'llanishi xususida". *O'zMU xabarlari* 2: 312–315.

Batmanov, I.A. 1971. *Talasskie pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti.* Bishkek.

Batmanov, I.A. 1959. *Yazikyenisetskixpamyatnikovdrevnetyurkskoy pismennosti.* Bishkek.

Erdal, M. 1998. "On the Verbal Noun in -(y)Iş". *Doğan Aksan Armağanı*: 53–68.

Erdal, M. 2004. *A Grammar of Old Turkic.* Leiden–Boston.

Harmatta, J. *Doğu Avrupa'da Türk Oyma Yazılı Kitabeler.* 1988. Ankara.

Kononov, A.N. 1980. *Grammatika yazika tyurkskix runicheskix pamyatnikov VII–IX vv.* Leningrad.

Kormushin, I.V. 2004. *Drevnie tyurkskie yaziki*. Abakan.

Kormushin, I.V. 2008. *Tyurkskie yeniseyskie epitafii. Grammatika. Tekstologiya*. Moskva.

Napil, Bazilhan. 2014. "Kazakistan'da Bulunan Göktürk yazıtları hakkında". *Teke* 3/2: 1-12.

Ponaryadov, V.V. 2007. "Dialektnaya differentsiatsiya v drevnetyurkskom yazıke Yeniseyskix runicheskix nadpisey". *Voprosy yazykoznaniya* 2: 127-132.

Sodiqov, Q. 2006. *Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi*. Toshkent.

Shukurov, Sh. 1970. *Fe'l tarixidan. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida mayl va zamon formalari*. Toshkent.

Sherbak, A.M. *Grammatika starouzbekskogo yazika*. 1962. Moskva – Leningrad.

Jaloliddin Jo'rayev

(Toshkent, O'zbekiston)

oyqor@mail.ru

Abdurahmon Jomiyning “Risolayi muammoyi manzum” asari va uning tarjimasi

Abstrakt

Abdurahmon Jomiyning risolalari o'z davrida muammo janriga qiziquvchilar uchun qulay va tushunarli qo'llanma bo'lgan, lekin keyingi asrlarga kelib muammo janri adabiy jarayonlarda kam istifoda etila boshladi. Shu bois o'quvchilarda muammo janri to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun yangi qo'llanmalar yozish, mavjud risolalarni sharhlashga zarurat sezildi. Jomiyning “Risolayi muammoyi manzum” nomli risolasi XX asrda Abdulla Gulshaniy tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi ana shunday zaruratlar natijasi edi.

Ushbu tadqiqotda Abdurahmon Jomiyning “Risolayi muammoyi manzum” nomli muammo ilmiga bag'ishlangan risolasi, uning Abdulla Gulshaniy tomonidan bajarilgan tarjimasini tahlil qilingan, risolasi tarjimasining matniy tadqiqi amalga oshirilgan. Muallif Jomiyning “Risolayi muammoyi manzum” nomli asarining ushbu tarjimasini eski o'zbek yozuvidan hozirgi o'zbek yozuviga to'liq tabdil qilgan va matnni ilova qilgan. Ushbu risola va uning tarjimasi joriy o'zbek grafikasida ilk bor nashr etilmoqda.

“Risolayi muammoyi manzum”ning tarjima matni aniq tuzilishga ega. Unda, dastlab, Jomiyga tegishli bayt keltiriladi, pastda qavs ichida baytning tabdilchi Jaloliddin Jo'rayev amalga oshirgan transliteratsiyasi beriladi, undan so'ng Abdulla Gulshaniy tarjimasi, izoh va muammo yechimlari keltirilgan. Abdulla Gulshaniyning tarjima va izohlari ham eski o'zbek yozuvidan yangi o'zbek alifbosiga Jaloliddin Jo'rayev tomonidan o'girilgan.

Kalit so'zlar: *Nmuammo, janr, Abdurahmon Jomiy, Abdulla Gulshaniy, tarjima, risolayi muammo, sharh, transleteratsiya.*

Muallif haqida: *Jaloliddin Jo'rayev* – filologiya fanlari doktori, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi.

Tavsiya etiladigan havola: Jo'rayev, Jaloliddin. 2020. "Jomiy "Risolayi muammoyi manzum"ining tarjimasini haqida". *Oltin bitiglar* 2: 85—105.

Kirish

Forsiy adabiyotdagi ko'plab janrlar qatorida muammo janriningg'oyaviy-badiiy jihatdan yuksalishida Mavlono Abdurahmon Jomiyning alohida o'rni bor. Mavlono mazkur janrda she'r bitish barobarida uning nazariy va amaliy jihatlariga bag'ishlab "Risolayi muammoyi kabir", "Risolayi muammoyi mutavassit", "Risolayi muammoyi sag'ir" va "Risolayi muammoyi manzum" deb nomlangan to'rtta risola yozgan. Bu risolalar turli davrlarda muammo janriga qiziquvchilarning xohish-istaklari va janrning taraqqiy etib borishiga ko'ra tartib berilgan. Shu sababli ular muammo qoidalarini tasniflash va uslubi kabi jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, "Risolayi muammoyi kabir", "Risolayi muammoyi mutavassit" va "Risolayi muammoyi manzum"da muammo qoidalari uchta – tas'hiliy, tahsiliy va takmiliy guruhlariga bo'linadi. "Risolayi muammoyi sag'ir"da to'rtta guruhga ajratilgan: tas'hiliy, tahsiliy, takmiliy va taz'iliy.

Jomiyning risolalari o'z davrida muammo janriga qiziquvchilar uchun qulay va tushunarli qo'llanma bo'lgan. Lekin keyingi asrlarga kelib muammo janri adabiy jarayonlarda kam istifoda etila boshladi. Natijada, o'quvchilarda muammo janri to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun yangicha qo'llanmalar yozish, mavjud risolalarni sharhlashga zarurat sezildi [Шаpхи рисолаи... 1332 ҳиж.; Tarlan 1936, 32]. Ana shunday sharh yozilgan risolalar sirasiga Jomiyning muammo risolalarini ham kiritish mumkin. Xususan, Yormuhammad binni Pirmuhammad Toshkandiy "Risolayi muammoyi sag'ir"ga "Sharhi kitobi muammoyi sag'ir" nomli asar bitgan [Собрание... 1960, 153-154]. O'z navbatida bunday risolalar, jumladan, Jomiyning muammo risolalarini o'zbek tiliga tarjima qilish talab qilingan. XX asarda o'quvchilarning foydalanishiga qulay qilish maqsadida ularni o'zbek tiliga o'g'irishga urinishlar bo'lgan. Chunonchi, R. Xoliqov Mirzo Xayrullo Ho'qandiy Jomiyning muammo risolalaridan birini o'zbek tiliga tarjima qilganligini aytadi. Lekin tadqiqotchi Xayrullo Ho'qandiy shoirning qaysi risolasini tarjima qilganini ko'rsatmagan [Холиқов 1973, 25].

Jomiyning muammo risolalarini tarjima qilishga harakat qilganlardan yana biri qamashilik shoir, tarjimon va kotib Abdulla Abdurahmon o'g'li Gulshaniydir (1898–1978). U Jomiyning "Risolayi

muammoyi manzum"ini o'zbek tiliga o'giran¹.

Ushbu o'rinda "Risolayi muammoyi manzum"ning tuzilishi haqida so'z yuritganda, avvalo, nazmda bitilganligi bilan muallifning muammo janriga bag'ishlangan boshqa risolalaridan farq qilishini qayd etish joiz. Shuningdek, boshqa risolalarida bo'lgani singari asarning yozilish sababini ko'rsatuvchi qismi yo'q. Shuningdek, Jomiyning nasrda yozilgan muammo risolalaridagidek "Risolayi muammoyi manzum"da qoidalar keng va batafsil tushuntirilmagan, nazariy fikrlar bildirilgan emas. Unda faqat har bir muammo qoidasining mohiyatigina ta'riflangan. Masalan, Jomiy nasrda yozilgan muammo risolalarida biror-bir muammo qoidasini ta'riflagandan keyin o'sha qoidaga ikki va undan ortiq misol keltiradi. Zarur hollarda qoidalarga bog'lab keltirilgan misollarning yechimini oydinlashtiradi. "Risolayi muammoyi manzum"da muallif muammo qoidalarini bir-ikki bayt doirasida bayon qilib, bir-ikkita misol ko'rsatish bilan cheklangan. Misol tariqasida keltirilgan muammoning yechimi, ta'rifi berilayotgan qoidaga qaysi jihatlari bilan bog'liqligi borasidagi tafsilotlarga e'tibor qaratilmagan. Risola muammo janri qoidalari yuzasidan muayyan bilimga ega o'quvchi uchun qoidalarni yana bir bor esga olishda qo'l kelishi mumkin.

"Risolayi muammoyi manzum"ning tarjimasi Gulshaniyning "To'y va to'yona" asari bilan bir jildda joylashgan. Matn kitobcha shakliga keltirilib, tayyorlangan yozuv qog'oziga oddiy nastaliq xatida qora tush bilan ko'chirilgan. Qo'lyozma 81 varaqdan iborat. 5^a-49^b varaqlarda "To'y va to'yona", 53^a-80^a varaqlarda Abdurahmon Jomiyning "Risolayi muammoyi manzum"i tarjimasi o'rin olgan.

53^a varaqda tarjimon tomonidan "Mullo Abdurahmon Jomiy. Muammo qoidalari "Risolayi manzuma"si. Fors tilidan o'zbek tilida tarjima qildi va muammolarni hal qildi Abdulla Abdurahmon o'g'li al-Gulshaniy" so'zlari yozilgan.

Yuqorida aytganimizdek, Gulshaniyning "To'y va to'yona" asari

¹ Gulshaniy ijodiy merosida mumtoz adabiyotning g'azal, muxammas, ruboiy, qit'a kabi janrlar qatorida muammo janridagi asarlar salmoqli o'rin egallagan. Uning qalamiga mansub turli shaxs va shaharlarga bag'ishlab yozilgan muammolar "Muammoyot" nomli qo'lyozmada jamlangan. Shuningdek, "To'y va to'yona" nomli she'riy asari ham muammo janriga asosan yozilgan. Gulshaniy yana Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasi va "Xazoyin ul-ma'oniyy" kulliyotiga kirgan muammolarning yechimini ko'rsatib bergan. Bular qatorida Abdulla Gulshaniy Husayn Nishopuriyning "Risolayi muammo" asari va qayd qilganimizdek, Abdurahmon Jomiyning "Risolayi muammoyi manzum"ini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ushbu asarlar ayni paytda O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi O'zbekiston shoir va yozuvchilari arxivida saqlanadi.

muammo janriga asosan yozilgan. Muallif asardagi muammolarning yechimini ko'rsatib bergan bo'lsa ham, o'quvchilarning muammo janri borasidagi bilimini oshirish maqsadida unga Jomiyning "Risolayi muammoyi manzum"ining tarjimasini ham ilova qilgan. Bu xususda kitob so'ngida quyidagicha izoh berilgan: "Mazkur risola Mir Alisher Navoiyni zamondoshi ulug' olim va mutafakkir Mullo Abdurahmon Jomiyning muammo fani qoidalari haqidagi risolalaridir. Muammo faniga havaskor bo'lgan yosh olimlar uchun mazkur risolani fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qildim va muammo mas'alalarini hal qildim va mazkur "To'y va to'yona" dostoniga ilova qilib, kitob shakliga kirgizdim" [Gulshaniy, 78^b-79^a varaqlar].

Tarjima asl matn va uning nasriy bayoni shaklida berilgan. Masalan, "Bismillo"dan keyin Jomiy yozadi:

چون از حمد و تحیت یافتی کام
بدان ای در معما طالب نام

Ushbu bayt Gulshaniy tomonidan: "Vaqtiki hamd-u tahiyatdan forig' bo'lib maqsudunga yetgach, ey muammodan nom qiluvchi shaxs, bilgikim" deb tarjima qilingan [Gulshaniy, 53^b varaq].

Jomiy risolada muammo amallarini batafsil bayon qilib o'tirmaganidek, Gulshuniy ham asl matndagi ma'lumotlarga qo'shimcha va izohlar kiritmagan. Keltirib o'tganimizdek, har bir qoida she'riy bayonining nasrdagi mazmunini taqdim qilish bilan cheklangan.

Risola asliyatida misol tariqasida keltirilgan muammolarning yechimi berilmaganligini aytib o'tgan edik. Shu bois Gulshaniy tarjima bilan birga muammolarning yechimini ham ko'rsatib bergan. Tarjimon muammolarning yechimini ko'rsatish jarayonida ismning chiqarilish yo'llariga batafsil izoh beradi. Bu esa o'quvchilarda muammo qoidalari yuzasidan kengroq tasavvur hosil bo'lishida muhimdir. Masalan, talmeh qoidasiga misol tariqasida keltirilgan "Suhayl" nomiga yozilgan muammo mana bunday:

چو تابد مهر ازین فیروزه ایوان
شود نام تو با ناهید کیوان

Muammoning Gulshaniy tomonidan amalga oshirilgan tarjimasini va yechimi: Ism moddasi "مهر" ("mehr"), "ناهید" ("nohid"), "کیوان" ("kayvon")dur. Chunonchi, "مهر" ("mehr")ni murodifi "شمس" ("shams")i mazkurni ahli nujum zijlarida belgulangani mashhur harfi "س" ("sin") harfidur. "ناهید" ("nohid")ni murodifi "زهره" ("Zuhra")

i mazkurni harfi "هـ" ("he") harfi. "كَيَوْن" ("kayvon")ni murodifi "زُحْل" ("Zuhal")i muzkurni harfi "ل" ("lom") harfi. Demak, mazkur hosil bo'lg'on "س" ("sin"), "هـ" ("hi"), "ل" ("lom") harflarini tartibi bilan tartib berilganda "سُهَيْل" ("Suhayl") bo'lur [Gulshaniy, 55b varaq].

Ayni chog'da muammolar yechimlarinining ba'zi o'rinlarida oddiy kitobxon uchun mavhum bo'lib qolgan o'rinlar ham uchraydi. Bizningcha, o'sha o'rinlarga ham biroz izoh berib o'tilganda, yaxshi bo'lar edi. Masalan, yuqoridagi muammoning yechimida ismning uchta harfi qay tariqa hosil qilinganligi ko'rsatilgan. Lekin "ى" harfining qanday qilib yashirilgan ismning yechimida paydo bo'lib qolganligi oydinlashtirilmagan. Shu bilan birga, "mashhur harf" yoki "mazkur harfi" degan tushunchalarning mazmuni nimaligi aytilmagan.

Shuningdek, intiqod amaliga keltirilgan "Najm" nomiga yozilgan muammoning yechimi ham matndagi ishoralarga mos kelmaydi. Muammo janri qoidasiga binoan, ismni ikki yo'l bilan ham hosil qilsa bo'ladi. Tarjimon o'zi yechgan yo'l ana shu qoidaga mos kelishini zikr qilib o'tsa, ma'qul bo'lardi:

نگار من برج دل ز انجمن ببرد
بزیر کاش از بیدار خواب ببرد

She'rning Gulshaniy tarjimasi va ismni chiqarish yo'li mana bunday: "Nigorim yuzi bilan anjuman dilini oladi. Bedorlardan uyquni nun")") ("ن" nigor"ni yuzi") "نگار":taqimiga oladi. Mas'alani hal qilish kom") lafzini") "کام", jim") harfi") "ج" anjuman")ni dili") "انجمن", harfi Najm") hosil bo'lur")") "نجم" mim") harfi majmu'i tarkib") "م" tagi "نگار من برج دل ز انجمن ببرد" [Gulshaniy, 55b varaq]. Aslida, muammoda Nigori man burji dil zi anjuman bebarad") degan ishoraga ko'ra") anjuman") so'zining ikki tarafidagi alif va nun harflarini") "انجمن" tushirib qoldirish orqali ism chiqariladi.

Xulosa qilib aytganda, Jomiyning "Risolayi muammoyi manzum" asarining tarjima qilinishi muhim hodisa. Asar tarjimasi kelgusida Jomiy asarlar tarjimasi, shu bilan birga adabiyotshunoslikda nazariy asarlar tarjimasi masalalari, tarjima tarixi yuzasidan olib borilajak tadqiqotlar va muammo janriga qiziquvchilar uchun qimmatli manba bo'ladi.

Adabiyotlar

Гулшаний. *Тўй ва тўёна*. Гулшаний архиви йиғма жилди. ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи Ўзбекистон

- шоир ва ёзувчилар архиви. 786-79а варақлар.
Собрание Восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. 1960.
Ташкент: Фан.
Tarlan, Ali Nihad. 1936. *Divan edebiyatinda muamma.* Istanbul:
Burhaneddin matbaasi.
Холиков, Р. 1973. *Мирзо Хайрулло Хокандий и его литературное
наследие.* АҚД. Самарканд.
Шарҳи рисолаи муаммои Мавлоно Мир Ҳусайн Нишопурий. 1332
ҳиж. ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейининг
17-рақамли босма китоб. Новая Бухара, Фото-литография. Л.Н.Леви-
на.

Djaloliddin Djuraev

(Tashkent, Uzbekistan)

oyqor@mail.ru

About the Translation of "Risalai Muammoi Manzum" by Jami

Abstract

Jami's pamphlets were at one time a convenient and understandable guide for those who were interested in the muammo genre, but in the following centuries the muammo genre began to be less used in literary processes. Therefore, it was necessary to write new manuals and comment on existing brochures in order to give students an idea of the muammo genre. The translation of Jami's treatise called "Risalai Muammoi Manzum" by Abdullah Gulashani in the twentieth century was the result of such necessities.

In the research Abdurahman Jami's treatise called "Muammoi Risalai Manzum" which is dedicated to the science of the muammo genre, and its translation by Abdullah Gulashani are analysed, as well there is the textual research of the translation of the treatise in the article. The author translates Jami's treatise "Risalai Muammoi Manzum" by Abdulla Gulashani from the old Uzbek script into the modern Uzbek script and adds the text. This treatise and its translation are published for the first time in the current Uzbek graphics.

The translated text of the treatise called "Risalai Muammoi

Manzum" has a clear structure. It first quotes a byte from Jami, followed by a transliteration of the byte performed by Jaloliddin Juraev in parentheses, followed by a translation, commentary, and a muammo genre solving by Abdullah Gulshani. Abdullah Gulshani's translations and commentaries have also been translated from the old Uzbek script into the new Uzbek alphabet by the author.

Key words: *muammo (a genre of poem), genre, Abdurahman Jami, Abdulla Gulshani, translation, the pamphlet of muammo, commentary, transliteration.*

About the author: *Djaloliddin Djuraev* – Doctor of Sciences in Philology, Senior Researcher of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni.

Recommended citation: Juraev, Jaloliddin. 2020. "About the translation of "Risalai uammoi manzum" by Jami". *Golden scripts* 2: 85—105.

References

- Gulshaniy. *To'y va to'yona*. Gulshaniy arxivi yig'ma jildi. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi O'zbekiston shoir va yozuvchilar arxivi. 78b-79a varaqlar.
- Sobranie Vostochnix rukopisey Akademii nauk Uzbekskoy SSR*. 1960. Tashkent: Fan.
- Tarlan, Ali Nihad. 1936. *Divan edebiyatinda muamma*. Istanbul: Burhaneddin matbaasi.
- Xolikov, R. 1973. *Mirzo Xayrullo Xokandiy i yego literaturnoe nasledie*. AKD. Samarkand.
- Sharhi risolai muammoi Mavlono Mir Husayn Nishopuriy*. 1332 hij. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining 17-raqamli bosma kitob. Novaya Buxara, Foto-litografiya. L.N.Levina.

1-ilova/Appendix 1
Matn.Tarjima/Text.Translation

Mullo Abdurahmon Jomiy

Risolayi muammoyi manzum

Forsiydan Abdulla Gulshaniy tarjimasi

Nashrga tayyorlovchi va joriy alifboga tabdil muallifi
filologiya fanlari doktori Jaloliddin Jo'rayev

بسم الله خير الاسماء

Ma'budi barhaq nomi nomlarni go'zalrog'idur

چون از حمد و تحیت یافتی کام
بدان ای در معما طالب نام
(Чун аз ҳамду таҳият ёфтӣ ком,
Бидон, эй дар муаммо, толиби ном.)

Vaqtiki hamd-u tahiyatdan forig' bo'lib maqsudungga yetgach,
ey muammodan nom qilguvchi shaxs, bilgilkim,

که اعمال معمایي سه قسم است
که هر یک گنج اسما را طلسم است
(Ки аъмоли муаммой се қисм аст,
Ки ҳар як ганҷи асморо тилисм аст.)

Muammoiy amallar uch qismdur. Bularni har biri nomlar
xazinasining tilsimidurlar.

یکی اعمال تحصیلی که از ان
به تحصیل حروف آرد خبر دان
(Яке аъмоли таҳсилӣ, ки аз он,
Ба таҳсили ҳуруф орад хабар, дон!)

Mazkur amallardan **biri tahsiliy amallar**idurkim, bular
huruf'larni hosil qilishdan xabar berurlar.

دوم آنها که در تکمیل صورت
بود صاحب معما را ضرورت
(Дуввум онҳо, ки дар такмили сурат,
Бувад соҳибмуамморо зарурат.)

Ikkinchisi esa suratni takomillashdirishdur. Bu esa
muammo sohiblariga zarurdur.

سوم اعمال تسهیلی که دانا
ز وی گردد بران باقی توانا
(Севвум аъмоли тасҳилӣ, ки доно,
Зи вай гардад бар он боқӣ тавоно.)

Uchinchisi tas'hiliy amallari bo'lib, dono ulardan kuchli
bo'ladi.

Tas'hiliy amallar.

نخست از قسم تسهیلی سخن ران
کز ان گردد دو قسم دیگر آسان
(Нухуст аз қисми таҳсилӣ сухан рон,
К-аз он гардад ду қисми дигар осон.)

Avvalo tas'hiliy amallaridan suxan qilkim, qolgan ikki
qismni ma'rifati oson bo'lur.

بود آن انتقاد و آنگاه تحلیل
پس از تحلیل دان ترکیب تبدیل
(Бувад он интиқод в-он гоҳ таҳлил,
Пас аз таҳлил, дон, таркиб табдил.)

Intiqod amaliga ishorat:

چه باشد انتقاد اندر عبارت
به چیز و لفظها کردن اشارت
(Чӣ бошад интиқод андар иборат,
Ба чизу лафзҳо кардан ишорат.)

Chunonchi "Najm" nomida muammo:

نگار من برخ دل ز انجمن ببرد
بزیر کامش از بیدار خواب ببرد
(Нигори ман ба рух, дил зи анҷуман бибарад,
Ба зери комаш аз бедор хоб бипарад.)

Nigorim yuzi bilan anjuman dilini oladi. Bedorlardan uyquni taqimi tagida oladi.

Masalani hal qilish: "نگار" ("nigor"ni yuzi "ن" ("nun") harfi, "انجمن" ("anjuman") ni dili "ج" ("jim") harfi, "کام" ("kom") lafzini tagi "م" ("mim") harfi majmu'i tarkib "نجم" ("Najm") hosil bo'lur.

Tahlil amaliga ishorat.

چو سازی لفظ مفرد را مجزا
بود تحلیل در فن معما
(Чу созй лафзи муфрадро муҷаззо,
Бувад таҳлил дар фанни муаммо.)

Har vaqt yolg'iz lafzlarni juz-juzlarga aylantirsang, ana shuni muammo fanida tahlil deb ataydilar. Chunonchi, ("Baho" nomiga muammo):

چه غم گر شحنه بر مستان دلیر است
که ما را رو به آمد گرچه شیر است
(Чӣ ғам гар шиҳна бар мастон далер аст,
Ки моро рубаҳ омад, гарчӣ шер аст.)

Soqchilarning mastlarga dalirlik qilishlaridan bizga nima g'am, ki biz rindlar oldida sherlar shag'ol kabitur.

Masalani hal qilish: Ism moddasi "رو به آمد" ("rubah omad") dur. Mazkurni tahlili "ru"-"bah"-"o"-"mad" bo'lur. Bundan muammoyi ma'ni yuzi ("bah"-"o") bo'lsun degandur. Mazkur ("bah"-"o") tarkib berib yozganda "بها" "Baho" bo'lur.

Tarkib amaliga ishora.

چو لفظ چند را سازی بهم ضم
کز ان آید یکی مفرد فراهم
وزان معنی نی لفظ مقصود

به ترکیش توان مخصوص فرمود
(Чу лафзи чандро созй ба ҳам зам,
К-аз он ояд яке муфрад фароҳам.
В-аз он маънӣ на лафзи мақсуд,
Ба таркибаш тавон махсус фармуд.)

Har vaqt bir necha lafzlarni bir-birlariga qo'shganda undan bir mufrad muammoi ma'niy chiqsa va ma'nidan lafzi maqsud bo'lmasa, ammo mazkur lafz tarkibi uchungina maxsus bo'lsa, ana shunga tarkib amali deb aytadilar. Chunonchi "Sadr" nomida muammo:

دگرگون شد ز صبر و بی برم حال
خون دیده کردم روی زرد ال

Masalani hal qilish: "صبر" ("Sabr") digargun bo'lsa, mazkurdan " ("be") soqit bo'lsa, "سر" ("sr") bo'lur. Va yana "زرد ال" ("zardol") tahlil bo'lsa, "زر"-"دل" ("zr"- "dol") bo'lsa, maqsud ("د" "dol") harfidur. Mazkur " ("sr")ga " ("dol") harfi qo'shulsa " ("srd"). Mazkur digargun bo'lganda "صدر" ("Sadr") hosil bo'lur.

Tabdil amaliga ishora.

چو لفظی را بدل سازی بیکبار
به لفظ دیگر اندر نظم و اشعار
(Чу лафзери бадал созй ба як бор,
Ба лафзи дигар андар назму ашъор.)

Har vaqtiki nazm-u ash'orda bir lafzni boshqa bir lafz bilan badal qilmoqchi bo'lganida.

درین فن نیست جز تبدیل نامش
کنون می سازم از تمثیل رامش
(Дар ин фан нест чуз табдил номаш,
Кунун месозам аз тамсил ромаш.)

Bunday ishni bu fanda tabdildan boshqa nomi yo'qdur. Endi men tubanda uni misollarini keltirib senga o'rgatib berurman.

Chunonchi "Muborak" nomida muammo:

مگر کردند بوی آن کیوان را
که مشک ناف مشکبارست آهوان را
(Магар карданд бўйи он кайвонро,
Ки мушки ноф мушкбор аст, охувонро.)

Magar u oliy borgohni bo'yini olibdurlarki ohularni mushk kindiklari mushk tarqatuvchi bo'libdur.

"مشکبار" ("Mushkbor")dagi ("be") harfi "ش" ("shin") o'rnida badal bo'lsa, ("مبار" "Mubor") bo'lur. Qalbi esa "مبارک" ("Muborak")dur.

Tahsiliy amallar bobida ishorat.

چو شد اعمال تسهیلی مفصل

به تحصيلی کنم آن را مکمل
(Чу шуд аъмоли тасҳилӣ муфассал,
Ба таҳсилӣ кунам онро мукаммал.)

Vaqtiki tas'hiliy amallar bayon qilingach, tahsiliy amallarni
aytib uni kamolga yetkuzurman.

نباشد قسم تحصيلی بجز نه
شمارم گر کنی گوش توجه
(Набошад қисми таҳсилӣ ба чуз нӯҳ,
Шуморам, гар кунӣ гӯши таваҷҷӯҳ.)

Tahsiliy qismlarni turlari to'qquzdan boshqa emasdur. Quloq
solsang ularni birin-ketin bayon qilib berurman.

Tansis va taxsis amallari:

یکی تنصيص باشد کان فتاد است
صريحاً ذکر لفظ آن مراد است
(Яке тансис бошад, к-он фито́д аст,
Сариҳан зикри лафзи он мурод аст.)

Biri tansis amalidur. Unda lafzni ochiq zikri murod bo'lur.
Chunonchi "Zayniddin" nomida:

دل زاهد ز حال دين حزين است
که چشمش بر سر تاراج دين است
(Дили зоҳид зи ҳоли дин ҳазин аст,
Ки чашмаш бар сари тороҷи дин аст.)

Zohidni dili din uchun xafa ko'runsa ham, uni ko'zi dinni
talamoq ustidadur.

Masalani hal qilish: "(Hazin" "حزين") dan bosh harf toroj bo'lsa,
"(zin" "زين") qolur. " " "Hol") ni boshi toroj bo'lsa, "al" "ال" qolur.
"(din" "دين") esa tansis amali bilan zohirdur.

Tasmiya amali.

و زان پس تسميه اصليست مطلوب
وقوع آن ميسر بر دو اسلوب
(В-аз он пас тасмия аслест, матлуб,
Вуқӯи он муяссар бар ду услуб.)

Ondin so'ng tasmiya amali matlubi asliydur. Va u ikki uslubda
voqe' va muyassardur.

یکی از نام حرفی خواستن حرف
بقصد حرف کردن نام را صرف
(Яке аз ном ҳарфе хоستان ҳарф,
Ба қасди ҳарф кардан номро сарф.)

Biri harf nomidan harf izlamoq. Harfni qasd qilib, nomni
iste'mol qilmoqdur.

دوم از حرف قصد نام کردن

وز ان مقصود را تمام کردن
(Дуввум аз ҳарф қасди ном кардан,
В-аз он мақсудро тамом кардан.)

Ikkinchisi esa harfdan nom izlamoq, shu bilan tamom qilib, maqsadga erishmoq. Chunonchi, "Bobur" nomida:

قبا بر قد تو میدوزد ایام
بر آر از قاف تا قاف ای نکو نام
(Қабо бар қадди ту мидӯзад айём,
Барор аз қоф то қоф, эй нақӯном.)

Sening qaddi qomating uchun kunlar qimmatbaho to'nlari bichmoqda. Qofdan qofgacha, ey go'zalim, nomingni chiqargil!

Mas'alani hal qilish: Ism moddasi "قبا بر قد" ("Qabo bar qad") dur. "ق" ("Qof") harfidan boshlab, "ق" ("qof") harfi o'rtasidagi harflarni terib deganda "بابر" ("Bobur") hosil bo'ladi.

Va yana bir misol "Salom" nomida:

بود روی تو گل زلف تو سنبل
نهد سر سنبلت بر دامن گل
(Бувад рӯи ту гул, зулфи ту сунбул,
Ниҳад сар сунбулат бар домани гул.)

[Yuzing gul edi, zulfing esa sunbul. Sunbulingni boshini gulning etagiga qo'yadi.]

Ism moddasi "سر سنبلت" ("Sari sunbulat") va hamda "بر دامن گل" ("bar domani gul") dur. Mazkur "سر سنبلت" ("Sari sunbulat") dan murod "س" ("sin") harfidur. "گل" ("Gul") ni etagi "ل" "lom". (Undan) Murod "س" ("sin") harfini lomga tarkib(i) "سلام" ("Salom") bo'lur.

سوم ز اعمال تحصیلاست تلمیح
بگویم با تو شرح این به تصریح
(Севвум зи аъмол таҳсиласт талмех,
Бигӯям бо ту шарҳи ин ба тасрех.)

Tahsiliy amallardan **uchinchi qismi talmih amalidur**. Buni men senga bayon qilib berurman.

اشارت کردن است از لفظ مذکور
بلفظ دیگر اندر جای مشهور
(Ишорат кардан аст аз лафзи мазкур,
Ба лафзи дигар андар ҷойи машҳур.)

U talmeh shundan iboratki, bir lafzni zikr qilishdan bir joyda mashhur bo'lgun lafzga ishorat qilmoqdur. Chunonchi "Ahmad" nomida:

چو خوانی سوره سبع المثانی
بدانی نام او بی حرف ثانی

(Чу хонї сураи сабъ ал-масонї,
Бидонї номи ў беҳарфи сонї.)

Suri fotihani o'qig'oningda ikkinchi harfni tashlasang, u yorni nomini bilasan.

Masalani hal qilish: "سبع المثاني" ("Sab' al-masoni") surasidan murod "الحمد" ("Al-hamd")dur. Mazkurdan ikkinchi harf tashlanganda "أحمد" ("Ahmad") bo'ladi.

Va yana bir misol "Suhayl"

چو تابد مهر ازين فيروزه ايوان
شود نام تو با ناهيد كيوان

(Чу тобад меҳр аз ин ферўза айвон,
Шавад номи ту бо ноҳид кайвон.)

[Mehr bu feruza ayvondan burilsa, kayvon nohidi bilan noming chiqadi.]

Ism moddasi "مهر" ("mehr"), "ناهيد" ("nohid"), "كيوان" ("kayvon")dur. Chunonchi, "مهر" ("mehr")ni murodifi "شمس" ("shams")i mazkurni ahli nujum zijlarida belgulangan mashhur harfi "س" ("sin") harfidur. "ناهيد" ("nohid")ni murodifi "زهره" ("Zuhra")i mazkurni harfi "هـ" ("he") harfi. "كيوان" ("kayvon")ni murodifi "زحل" ("Zuhal")i muzkurni harfi "ل" ("lom") harfi. Demak, mazkur hosil bo'lg'on "س" ("sin"), "هـ" ("hi"), "ل" ("lom") harflarini tartibi bilan tartib berilganda "سهيـل" ("Suhayl") bo'lur.

Va yana misol "Ato" nomida:

نشايـد از خنده آن لعل گهربار
ز کنج ديده ام در نگونسار

(Нашояд аз хандаи он лаъли гуҳарбор,
Зи кунҷи дидаам дар нигунсор.)

U gavhar sochuvchi la'l lab xanda bilan ko'zum kunjidan oqadurgon yoshlarga taskin berdi.

Hal qilish: "ديده" ("dida")ni murodifi "عين" ("ayn")dur. Mazkurdan ("عين") harfi muroddur. Va yana mazkur "dida"ni kunji "هـ" ("he") harfi "خنده" ("xanda")ni kunji ham "هـ" ("he") harfidur. Abjad hisobi bilan bu ikki harf o'n adad bo'lur. Ya'ni "ط" ("to") hamda "ا" ("alif") harflariga barobardur. Mazkur "ط" ("to"), "ا" ("alif")ni "ع" ("ayn") harfiga tarkibi "عطا" ("Ato") bo'lur.

بود چهارم ترادف از آن چه باک است
اگر گویم ز پنجم اشتراک است

(Бувад чаҳорум тародиф, аз он чї бок аст?
Агар гўям зи панҷум иштирок аст.)

To'rtunchi amal tarodif amalidur. Agar **beshinchi amal ishtirok** desam, nima zarari bor.

Tarodif amali:

دو لفظ از بهر یک معنی معین
چو شد آن را ترادف جان با تن
(Ду лафз аз баҳри як маънӣ муайян,
Чу шуд онро тародиф ҷон бо тан.)

Ikki lafz bir ma'ni uchun muayyan bo'lsa, u tarodif u jonu tan deb bilgil.

Ishtirok amali:

چو باشد اشتراک از لفظ واحد
دو معنی فهم کردن در توارد
(Чу бошад иштирок аз лафзи воҳид,
Ду маънӣ фаҳм кардан дар таворид.)

Ishtirok bir lafzdin ikki ma'ni paydar-pay fahmlansa. Chunonchi "Shujo" nomida:

شب آن شمع دل از صد غصه پرداخت
که رخ بنمود جا بر چشم من ساخت
(Шаб он шамъам дил аз сад ғусса пардохт,
Ки рух бинмуд, ҷо бар чашми ман сохт.)

Oqshom u sham'im dilimni yuzlarcha g'ussadan avayladi. Yuzini ko'rsatdi va ko'zumga joy oldi.

Masalani hal qilish: "شمع" ("Sham") yuzi "ش" ("shin") harfi. "جا" ("jo") tansis amali bilan zohirdur. "چشم" ("Chashm")ni murodifi "عين" ("ayn")dur. Undan "ع" ("ayn") harfi mazkur mahsulot tarkib berganda "شجاع" ("Shujo") bo'lur.

ششم ز اعمال تحصیل است تصحیف
ز شهرت نیست آن محتاج تعریف
(Шашум з-аъмоли таҳсил аст тасҳиф,
Зи шуҳрат нест он муҳтоҷи таъриф.)

Tahsiliy amallarni oltinchisi tashif amalidurkim, bu amal mashhur bo'lg'oni uchun ta'rifga muhtoj emas. Chunonchi, "Iso" nomida:

چو بینم صورت عیشی مهیا
از ان نام خوشت گردد هویدا
(Чу бинам сурати айше муҳайё,
Аз он номи хушат гардад хувайдо.)

Biror ayshni ko'rganimda undan go'zal noming ko'rinur.

Masalani hal qilish: "عیشی" ("Ayshi") lafzini nuqtalaridan ozod qilganda "عیسی" "Isi" bo'lur. "ی" ("Yo") harfini alifi maqsuraga qalb qilganda "عیسی" ("Iso") bo'lur.

Va yana bir misol ("Muso" nomida):

گزیدم از خموشی لب بدندان

لب شیرین او شد گوهرافشان
(Газидам аз хамушӣ лаб ба дандон,
Лаби ширини ӯ шуд гавҳарафшон.)

Xomushlikdan labni tishladim. Shirin labi qiymat baho dur va javohirlarni sochuvchi bo'ldi.

Masalani hal qilish: Ism moddasi “خموشی” (“xamushi”)dur. Mazmurni labi “خ” (“xe”) soqit bo'lsa “موشی” (“mushi”) qolur. Nuqtalar mazkurdan sochsa, ya'ni soqit bo'lsa, “مسی” “Musi” bo'lur. Mazkur “ی” (“yo”) harfini maqsura alifga qalb qilib o'qisa, “مسی” (“Musu”) o'qilur.

Hisobiy amallar:

بود هشتم عملهای حسابی
گوش از دخل عدد خالی نیایی
(Бувад ҳаштум амалҳои ҳисобӣ,
Гӯш аз дахли адад холи наёбӣ.)

Tahsiliy amallardan sakkizinchisi **hisobiy amallardur**. Buni esa adadlardan xoli tofolmaysan.

فروع این عمل بسیار باشد
که شرح یک بیک دشوار باشد
(Фурӯи ин амал бисёр бошад,
Ки шарҳи як ба як душвор бошад.)

Bu amallarni turlari juda ko'p. Ularni bayon qilmoq og'ir.

همان بهتر و رابی قیل و قالی
نمایم بعضی آنها را امثالی
(Ҳамон беҳтар ва робе қилу қоле,
Намоям баъзе онҳоро амсоле.)

Yaxshisi shudurki, ularni ba'zilarini misol ko'rgazaman. Chunonchi “Ahmad” nomida muammo:

یکی را گر یکی اندر کنی جای
شود نقد تو آن نام دلارای
(Якero гар яке андар куни ҷой,
Шавад нақди ту он номи дилорой.)

Masalani hal qilish: Ism moddasi “یکی” (“yaki”), “یکی” (“yaki”) lafzlaridur. Chunonchi birinchi “یکی” (“yaki”)dan murod “احد” (“Ahad”)dur. Ikkinchi “یکی” (“yaki”)dan murod harflar sonidur. “یکی” (“Yaki”) jummal hisobida qirq adadidur. Bu adaddan “م” (“mim”) harfi iroda qiling'ondur. Mazkur “م” (“mim”) harfi “احد” (“Ahad”) ichra joy olsa, “احمد” (“Ahmad”) bo'lur.

Va yana “Sadr” nomida:

اگر خورشید در چشمت زبون است
رخ آن مه بویین باری که چون است
(Агар хуршед дар чашмат забун аст,

Рухи он маҳ бубин боре, ки чун аст.)

Agar ko'zung o'tkurligidan quyoshni zabun qilgan bo'lsa ham, u go'zalni yuziga bir nazar qilg'ilki, qanday ekanligini bilasan.

Masalani hal qilish: Ism moddasi "قمر" ("Qamar"), "بارى" ("bori")dur. "قمر" ("Qamar")ni bosh harfi "ق" ("qof")dur. Mazkur jummal hisobida "صد" ("sad")dur. ("bori") tahlil bo'lsa, "با"- "رى" ("bo"- "ri") bo'lur. Ya'ni mazkur "صد" ("sad") "ر" ("re") harfi bilan bo'lsun deganidur. Shunday bo'lgach, "صدر" ("Sadr") hosil bo'ladur.

Va yana "Yusuf" nomida:

گزيدم نيمه آن لب بدندان

دهان را از دهانم داشت پنهان

(Газидам нимаи он лаб ба дандон,

Даҳонро аз даҳонам дошт пинҳон.)

[U labning yarmini tishladim. Og'zini og'zimdan yashirin tutdi.]

"لب" ("Lab") jummal hisobida o'ttuz ikki. Uni yarmi esa, o'n olti. Bu raqam esa "يو" ("yu")ni raqamidur. "دندان" ("Dandon") murodifi "سن" ("sen"). Uni lab esa "س" ("sin") harfi. Tarkib "يوس" ("yus")dur. Va yana "دهان" ("dahon")ni murodifi "فم" ("fam"). Uni labi esa, "ف" ("fe")dur. Majmu'i tarkib "يوسف" ("Yusuf")dur.

Va yana "Shams" nomida muammo:

رود عمرم بسر بوجه دلخواه

چو رو بنما بدم در سالی آن ماه

(Равад умрам ба сар бар ваҷҳи дилхоҳ,

Чу рӯ бинмо ба дам дар соле он моҳ.)

[Damda yilda u oyni yuz ko'rsat, umrim dilxohlik vajhida boshiga boradi.]

Masalani hal qilish: Yil o'rta hisob uch yuz oltmish kun. Va yana "ماه" ("moh")ni boshi hamal hisobida qirqdur. Jam'i to'rt yuzdur. Mazkur "شمس" ("shams") ham jummal hisobida to'rt yuzdur.

Va yana "Usmon" nomida:

پی نام خود آن خورشید ابرار

کشاد از هم دو انگشت نگونسار

(Пайи номи худ он хуршеди аброр,

Кушод аз ҳам ду ангушти нагунсор.)

[U xurshidi abror o'z nomining yo'lida egilgan ikki barmoqni bir-biridan ajratdi.]

Masalani hil qilish: ism moddasi "نام" ("nom"), "ابرار" ("abror"), "م" ("mim") harfi. Adad hisobida qirqdur. "ابرار" ("Abror")ni izi "ر" ("re") harfi. Adadi ikki yuzdur. "انگشت" ("Angusht")da bo'lgan "nigunsor"

harflar “ن” (“nun”) hamda “ش” (“shin”) harflarini chiqarib tashlaganda “ا” (“alif”), “ك” (“kof”), “ت” (“te”) harflaridur. Jummal hisobida bularni adadi to‘rt yuz yigirma birdir. Yuqorida hosil bo‘lgan adadlarni qo‘shganda olti yuz oltmish bir bo‘lur. Bu esa “عثمان” (“Usmon”) harflarini yig‘indisiga barobar.

بقانون نهم آمد کنایت
رسید اعمال تحصیلی به غایت
(Ба қонуни нўҳум омад киноят,
Расид аъмоли таҳсилӣ ба ғоят.)

To‘qquzunchi qonun kinoyatdur. Shu bilan tahsiliy amallari tamom bo‘ldi.

بود آن اینکه لفظی را نشانه
کنی بی این اصول هشت گانه
(Бувад он ин ки лафзеро нишона,
Кунӣ бе ин усули ҳаштгона.)

Bir lafzni zikr qilib, boshqa lafzni iroda qilinur. Chunonchi “Hoshim” nomida:

نما طرف مهت ای شاه اکبر
دراز پای تو روشن ز اختر
(Намо тарфи маҳат эй шоҳи акбар,
Дарози пойи ту равшан зи ахтар.)

Masalani hal qilish: “شاه” (“Shoh”) qalbi “هاش” (“Hosh”)dur. “مه” (“Mah”)ni tarafi “م” (“mim”) harfi. Mazkur “هاش” (“hosh”)ni ayog‘i “م” (“mim”) harfi bo‘lganda, “هاشم” (“Hoshim”) bo‘lur. Bu misolda “دراز پا” (“darozi po”) lafzi “م” (“mim”) harfidan kinoyatdur.

Va yana “Nur” nomida:

رون هیام ارن ابز تمامان دوب
مکرر گفتمش نورا علی النور
(Бувад номат забонро мояи нур,
Мукаррар гуфтамаш нуран ал-аннур.)

Sening noming tilda nur manba‘idur. Takror deymanki, sening noming nur ustida nur.

Masalani hal qilish: “نور” (“Nur”) nomdan kinoyadur. Bu misol tansis va taxsis amallariga ham misol bo‘loladi.

Takmiliy amallar.

چو شد اعمال تحصیلی مکمل
بود اعمال تکمیلی سه اسلوب
که شرح یک بیک امری است مطلوب
(Чу шуд аъмоли таҳсилӣ мукаммал)
(Бувад аъмоли такмилӣ се услуб,
Ки шарҳи як ба як амрест матлуб.)

Takmiliy amallar uch uslubdar. Ularni birin-ketin bayon qilish matlubdur.

Ta'lif amali:

یکی تالیف دان کان جمع اجزاست
که حاصل گشته هر یک از دگر جاست
(Яке таълиф дон к-он ҳамъи аҷзост,
Ки ҳосил гашта ҳар як аз дигар ҷост.)

Birini ta'lif deb bil. U эsa boshqa mavzularda zikr qiling'on juzvlarni jam' qilishdan iboratdur. Chunonchi, "A'lo" nomida:

بود چشمت بلاى جانم ايدوست
خلاصى زين بلا نتوانم ايدوست
(Бувад чашмат балои ҷонам, эй дӯст,
Халосӣ з-ин бало натавонам, эй дӯст.)

Ey go'zal, ko'zung jonimni balosi bo'lgandur. Bu balodan biror xalos bo'lish yo'lini tofolmayman.

[Masalani hal qilish:] Ism moddasi "چشم" ("chashmat"), "بلا" ("balo") lafzlaridur. Chunonchi, "چشم" ("chashm")ni murodifi "عين" ("ayn")dur. Murod "ع" ("ayn") harfi. "بلا" ("Balo")ni tahlili "به"-"لا" ("ba"- "lo")dur. Buni muammoiy ma'nosi "لا" ("lo") bilan deganidur. Mazkur hosil bo'lgan "ع" ("ayn")ni "لا" ("lo") bilan deganda "علا" ("A'lo") bo'lur.

Va yana "Humom" nomida:

پدر مه بود مادر را ترا لیک
نه مادر چون تو باشد نه پدر نیک
(Падар маҳ буд, модари туро, лек,
На модар чун ту бошад, на падар нек.)

Ota va oning oy edilar, biroq go'zallikda na otang va na onang senga barobar bo'lolmaydilar.

[Masalani hal qilish:] "مه" ("Mah")ni qalbi "هم" ("ham")dur. "ما" ("Mo") lafzini qalbi "ام" ("om") "هم" ("ham") bilan tarkib "همام" ("Humom")dur.

دوم اسقاط تخلص است آن است
ز چیزی کان نیاید داشتن دست
(Дуввум исқот тахлис аст, он аст,
Зи чизе к-он наёяд доштан даст.)

Ikkinchi uslub isqotdur. Uni bayon qilmasak bo'lmaydi. Chunonchi "A'lo" nomida:

به مهرت این دل از اغیار صاف است
که شسته در میان اندر خلاف است
(Ба меҳрат ин дил аз ағёр соф аст,
Ки шуста дар миён андар хилоф аст.)

Sening mehringda dilim g'ayr naqshidan tozadur. Xilofga ketishdan qo'l yuvgan sendan digar g'ayrni istamaydur.

Masalani hal qilish: "مهر" ("Mehr")ning murodifi "عين" ("ayn") dur. Murod "عين" ("ayn") harfi. "خلاف" ("Xilof") lafzini dili "لا" ("lo") dur. Tarkib "علا" ("A'lo") bo'lur.

سوم قلب است اندر نظم و ترکیب

عبارت باشد از تغییر ترتیب

(Севвум қалб аст андар назму таркиб,

Иборат бошад аз тағйири тартиб.)

Uchunchi amal nazm-u tarkibda qalbdur. Bu esa tartibni tag'iy berishdan iboratdur. Chunonchi "Toj" nomida:

دلَم از هر دو عالم جات گشته

شنیده نام تو شیدایت گشته

(Дилам аз ҳар ду олам ҷот гашта,

Шунида номи ту шайдоят гашта.)

Dilim har ikki olamdan ham sovidi. Nomingni eshitib sening maftuning bo'ldi.

Masalani hal qilish: "جات" ("Jot")ni qalbi "تاج" ("Toj")dur.

Va yana "Umar" nomida:

میوشان حال خود از سینه ریشان

که دور از دانه مرغ آمد پریشان

(Мапӯшон ҳоли худ аз синарешон,

Ки дур аз дона мурғ омад парешон.)

O'z holingni siynalari jarohatlanganlardan yoshurma. Donadan uzoq bo'lgan qush parishon kelur.

Masalani hal qilish: مرغ ("Murg")ni qalbi "غمر" ("g'mr"). Mazkur donadan uzoq bo'lsa, ya'ni dona-nuqtadan kinoyadur. Mazkur nuqta tashlanganda, "عمر" ("Umar") hosil bo'ladur.

Va yana bir misol "Hurmuz" nomida:

ز مَزهر نام مطلب شد هویدا

ولی بر وضع اندک زیرو بالا

(Зи мазҳар номи матлуб шуд хувайдо,

Вале бар вазъ андак зеру боло.)

Mazhardan har bir talab qilingan ism ochiq bo'ldi. Lekin asl vaz'da andak zer-u bolo bo'ldi.

Masalani hal qilish: Ism moddasi "مز" "هر" ("maz", "har")dur. Bular oldin-keyin bo'lsalar, "هرمز" ("Hurmuz") bo'lur.

بنا میزد زهی در گرامی

که هفت الماس نوک کلک جامی

(Бино мезад зиҳй дурри гиромӣ,

Ки ҳафт алмос нуки килки Ҷомӣ.)

Ya'ni har qancha qimmatbaho dur va javohir bo'lsa ham Jomiyini so'zlariga barobar kelolmaydi. Jomiyini qalamini uchi haftjo'shdandur.

چو فیض آمد چه جای جای تو بیخ
که باشد گر کند بر جای تاریخ
(Чу файз омад чӣ қой қойи тубих,
Ки бошад гар кунад бар қойи торих.)

Fayz kelgach, malomat va sarzanishga joy qolmaydi. Mumkindurki, ta'rix joyidur deb tanlasalar.

به تشریف قبول ارزنده بادا
به ارباب کرم فرخنده بادا
(Ба ташрифи қабул арзанда бодо,
Ба арбоби карам фархунда бодо.)

Bu risola qabul sharafiga arzisun va karam ahllariga shod-u xurramlik bo'lsun.

Mazkur risola Mir Alisher Navoiyning zamondoshi ulug' olim va mutafakkir Mullo Abdurahmon Jomiyini muammo fani qoidalari haqidagi risolalaridur. Muammo faniga havaskor bo'lgan yosh olimlar uchun mazkur risolani fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qildim va muammo masalalarini hal qildim va mazkur "To'y va to'yona" dostoniga ilova qilib, kitob shakliga kirgizdim. Bu kitobni o'quvchilar husnixatda tarjimada yoki muammolarni yechishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsam, afu qilg'aylar va karam qalami bilan alarni tuzotqaylar. Tammat.

Abdulla ibn Abdulrahmon al-Gulshaniy Keshiy.

Xotima

Kamina yuqorida "To'y va to'yona" dostoni kitobimni o'g'ur-latib qo'yganim sababli bu ikkinchi tasnifga ko'chushimni mufasssal ravishda bayon qilgan edim. Bu tasnifi soniyni muvaffaqiyat bilan tamomiga yetkazdim. Bunda avvalgi o'g'urlangan kitobga qarog'onda husnixat go'zalroq bo'lib tushdi. Va yana tasnifi avvalda yo'l qo'yilg'on bir qator xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmadi. Va bir qancha yangiliklar kirgizildi. Va yana mutolaa qilguvchilar shubhada qolmasinlar uchun kerak bo'lg'on joylarda muammo qoidalari bilan tanishtirib izohotlar berildi. Ana shunday qilib, avvalgidan go'zalroq va afzalroq bir ajoyib san'at vujudga chiqarildi. O'g'rilarni va hasadchilarni numrlari o'tmay qoldi. Bu muvaffaqiyatda biz rostlik bilan etduk. Agar xiyonatkor bo'lsak, aslo yetmas edik. Chunki o'g'ri-firibgarlar va hasadchilar maqsadga yetishdan mahrumlar.

Abdulla ibn Abdulrahmon al-Gulshaniy. Sana 1965.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta-siga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo’limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo’limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa,

bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*,
Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi
raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. “Milliy qadriyat va globallashuv”. *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini *"The Chicago Manual of Style, 16th Edition"* qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son "Oltin bitiglar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiklar@gmail.com
Tel.: +99891 166-31-38
Bosishga 00. 00 2019-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8
Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77, +99894
659 94 62